

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**Abduxoliqov J.
Yuldasheva S.**

DINSHUNOSLIK

Toshkent 2004

**Abduxoliqov J. Yuldasheva S. Dinshunoslik. (o'quv qo'llanma) Toshkent,
Toshkent Moliya instituti. 116 bet**

Annotatsiya

Mazkur qo'llanmada din va uning mohiyati, dinning qadimgi shakllari va ularning mavjudligiga aloqador bo'lgan dunyoviy fan yutuqlari berilgan. Bundan tashqari mazkur qo'llanmada buddaviylik, xristianlik, islom kabi dunyoviy dinlarning ijtimoiy va gnoseologik ildizlari, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rirlari, insonning ma'naviy takomilidagi ahamiyati ochib berilgan. Qo'llanmada din va dinlararo munosabat, din va siyosat masalalariga oid hozirgi zamon qarashlari, muammolari v ularning echimlariga aloqador bo'lgan mulohazalar o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma «Falsafa» kafedrasi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. «29» yanvar 2004y. 2-son.

«Falsafa» kafedrasi mudiri:

N. Mamatov

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. «__»
_____ 2004 y. ____-son majlis bayoni.

Rektorning o'quv va metodik
ishlar bo'yicha muovini:

A. Vohobov

Taqrizchilar: f.f.n. prof. Zaripov .M

f.f.n., dots. Nosirov Q.

Toshkent Moliya instituti, 2004

So'zboshi

Bakalavrlar tayyorlash bo'yicha qabul qilingan yangi Davlat ta'lif standartining o'quv rejasiga muvofiq «Dinshunoslik» fanini o'qitish ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqqan holda ushbu «Dinshunoslik» qo'llanmasi tayyorlandi.

Iqtisodiy oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida keng ixtisosdagi iqtisodchi bakalavrlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan fanlar orasida «Dinshunoslik» fani muhim o'rinni egallaydi. «Dinshunoslik» kursida dinning ijtimoiy mohiyati, uning eng qadimgi shakllari, milliy dinlar, jahon dinlari bo'lgan Buddaviylik, Xristianlik, Islom dini, hamda islom dinining manbaalari bo'lgan Qur'on, I'adislarning mohiyatiga bag'ishlangan masalalar yoritilgan. Mazkur kursda diniy ekstremizm, fundamentalizmning mohiyati ochib beriladi va ularga qarshi kurash uslub va vositalari bayon etilgan.

«Dinshunoslik» kursni o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad bakalavrlarni dinga oid dunyoviy bilimlar bilan qurollantirish, hamda ularni ijtimoiy-siyosiy ma'nnaviy jarayonlarni taxlil qilishga, dinga va diniy dunyoqarashga aloqador bo'lgan masalalarni hal qilishga tayyorlashdan iborat.

«Dinshunoslik» fanini keng ko'lamma va chuqr o'zlashtirishda filosofiya, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, tarix, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarni ham o'zaro uyg'unlikda qaraladi. Ayniqsa, dinning mohiyatini tushuntirishda filosofiya va Miliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, madaniyatshunoslik fanlarining ahamiyati nihoyatda kattadir.

«Dinshunoslik»kaoid bo'lgan ta'lilot, tamoyil, qarash, kontseptsiyalarning mohiyatini bilish, dinlar tarixi va mazmunini o'zlashtirish, hayotda din va dinga aloqador bo'lgan xodisa va munosabatlarni ob'ektiv baholay olish, uning ijobjiy jihatlaridan foydalana olish, din niqobida jamiyat ijtimoiy hayotiga raxna soluvchi kuchlarga qarshi kurasha olish immunitetini talabalarda shakllantirish imkoniyatini beradi.

DINSHUNOSLIK KURSI PREDMETI

Dinshunoslik asoslari kursining predmeti va uning ijtimoiy fanlar o'rtasida tutgan o'rni.

Hozirgi zamon voqeligining o'ziga xos xarakterli xususiyalaridan biri shundaki, jamiyatning barcha sohalariga ilmiy tafakkurning ta'siri keskin kuchaymoqda, uning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatidagi roli ortmoqda. Fanning XX asrdagi muvaffaqiyatlari chindan ham buyukdir. U bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanib, inson tabiat sirlarini tobora chuqur anglash imkonini bermoqda.

Hozirgi vaziyatda ilmiy dinshunoslikning nazariy yutuqlari va mamlakatimizdagi diniy tashkilotlarning g'oyaviy va amaliy ish faoliyatini hisobga olganda din va dindorlarga bo'lgan munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Dinshunoslik asoslari kursining vazifasi oliygoh talabalariga shu sohada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni tahlil etishda ilmiy va ob'ektivlik uslubini qo'llab, ularda diniy qarashlar taraqqiyotiga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon va e'tiqodni shakllantirishdan iborat.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Agar mendan nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelayapti, deb so'rashsa, bu - avvalo muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergen bo'lur edim. Shu zaminda o'tgan necha-necha avlodlar diniy e'tiqodni yurakda saqlamasa, islom falsafasini rivojlantirib kelmasa, biz bebahov betakror ma'naviy - ruhiy merosdan mahrum bo'lib qolardik. Toki har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to'g'risida emas, umuman, dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin.

Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir - biriga ta'sirini, ular o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak».¹

¹ «Fidokor» gazetasi, 8 iyun 2000 yil.

Ibtidoiy din shakllaridan tortib to urug', qabila va milliy dinlargacha, ularda jahon dinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining ijtimoiy, gnoseologik (nazariy bilish) va psixologik ildizlari mavjuddir. Ana shularni har tomonlama tarixiy dalillar asosida ilmiy tahlil qilish mazkur kursning vazifasidir.

Din tushunchasi. Din va diniy e'tiqodning falsafiy mohiyati. Din tushunchasi ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli ijtimoiy hodisani ifodalaydi. Din so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, inonish ma'nolarini bildiradi. E'tiqod ham arabcha bo'lib, chuqur va mustahkam ishonch demakdir. Din va diniy e'tiqod fan shakllana boshlagandan falsafaning etakchi mavzusi bo'lib kelgan. Aynan dinga munosabatda, dunyoni bilishda faylasuflar idealistlar va materialistlar oqimlariga ajralib ketishgan.

Dunyoviy dinshunoslik bilishning dialektik usulidan foydalanib, dinning gnoseologik va ijtimoiy ildizlarini, uning mohiyatini, kelib chiqishi va rivojlanib borishini mufassal tahlil etib bergen. Dinning psixologik ildizi inson psixikasining xususiyatlariga bog'liq bo'lib, u olamning odam ongida in'ikos etishi uchun imkon yaratadi.

Dinga ishonuvchining ratsional va hissiy elementlarini o'z ichiga oluvchi bu ruhiy holatlari diniy o'z - o'zini anglash va o'zini-o'zi his etish vujudga kelishi uchun shart - sharoit va imkoniyat yaratadi. Ular muayyan ijtimoiy, avvalo salbiy omillarning ta'sirida, ro'yobga chiqishi amalga oshishi mumkin. Bu omillar turli xil salbiy hislar paydo bo'lishi uchun sababdir.

Dinning psixologik va gnoseologik ildizlari bir - biri bilan chambarchas bog'langan. Bunda shaxs psixikasini aql yordamida anglash va hissiy - irodali his etish elementlari amal qiladi.

Dinning psixologik xususiyatlariga esa diniy his - tuyg'u, irim - chirim, turli diniy marosim, xatti - harakat, sajda va shu singarilar kiradi.

K.K.Platonov qo'rquv, avvalo ijtimoiy his - tuyg'u sifatidagi qo'rquv singari inson psixikasi hodisalarini dinga xos psixologik ildizlarga taalluqli deb hisoblaydi. U inson psixikasidagi anglangan va anglanmagan hodisalar to'g'risidagi ziddiyat dinning yana bir psixologik ildizidir deb hisoblaydi. U ko'pgina diniy xatti -

harakatlar psixologik strukturasining zarur elementlari hisoblangan musiqa, teatr, adabiyot, she'riyatni qabul qilish bilan bog'liq murukkab psixologik kechinmalar - katarsis (poklanish) emotsional o'ziga xos hissiyotni ham dinning psixologik ildizlari elementlari qatoriga kiritadi.

Hozirgi vaqtida tadqiqotchilar, ijtimoiy uyushmalar ijtimoiy psixologiyaning sub'ektlari bo'lishi kerak, degan to'g'ri xulosaga keldilar. Bular doirasida ehtiyoj, qiziqish, ijtimoiy norma, qadriyatlar, jamoatchilik fikri va shu singarilarni ijtimoiy-psixologik hodisalar sifatida samarali o'rghanish imkonini beradi. Dinni ham ijtimoiy birliklar doirasida o'rghanish, baholash, tavsiflash lozim. Shaxs ijtimoiy - psixologik hodisalarning, ijtimoiy borliq ijtimoiy psixologiyaning ifodasidir.

Shuning uchun hozirgi zamon talabi dinni o'rghanishda fannining dinsonshunoslik sohalarida, ya'ni tarix, falsafa, jamiyatshunoslik, psixologiya fanlarida mavjud bo'lgan materiallardan va uslublardan atroflicha foydalanishni, uning tub mohiyatini to'g'ri tushunishni va ijtimoiy muhitdagi o'mini ilmiy talqin qilishni taqozo etadi, shu nuqtai nazarga asoslangan holda, dinning psixologik ildizlarini yoritishda inson psixikasiga xos bo'lgan xususiyatlarini, rivojlanish jarayonlarini o'rghanishda psixologiya fanidan va uning metodlaridan foydalangan holda diniy ilmiy asosda o'rGANAMIZ.

Shaxsga ilmiy metodologik nuqtai nazardan yondoshuv ijtimoiy guruhning ruhiy holatini, uning his - tuyg'usi, kayfiyati va xokazolarini ayrim odamlar kechinmalarining majmui sifatida ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Bunda ijtimoiy guruhning yaxlitlik, bir butunlik sifatidagi o'ziga xos psixologik holatlari diqqat - e'tiborda bo'lmaydi.

Ijtimoiy fanlar mavqeidan yondashuv esa, aksincha, jamiyatning ishlab chiqarish usuli birlamchi, ijtimoiy - psixologik hodisalar esa hosila bo'lib, ularni ayrim odamlar onging holatiga taalluqli deb bo'lmaydi, degan qoidadan kelib chiqadi.

Materialistik falsafaning inson ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan qoidasiga asoslanadigan bo'lsa, jamiyatdagi birliklarini, sotsial psixologiyani

shakllantirishda ijtimoiy omillar hal qiluvchi rol o'ynashi, shaxs ijtimoiy omillarning qonuniy mahsuli ekanligi ayon bo'ladi.

Ijtimoiy fanlar tadqiqotchini jamiyatga xos psixologik hodisalar xususiyatlarini, ularni paydo bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishini aniqlashga undaydi va aniqlashga yordam beradi.

Tarixiy - sotsiologik usul deb atalmish bunday yondoshuv tarixiy etnografik tadqiqotlarini olib borishda ,ayniqsa, yaxshi samara beradi. Bu usul dinshunoslikda ham evristik qimmatga egadir, chunki u yosh avlodda diniy e'tikotlarning va an'analarining saqlanish va takrorlanishiga sabab bo'ladigan sotsial - psixologik omillarni tadqiq etishda to'g'ri yo'nalishni belgilab olish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ijtimoiy-psixologik hodisalarining xususiyatlarini hisobga olmay turib dinni tushunish, izohlash, tavsiflash mumkin emas. Din ma'naviy, aniqrog'i, g'oyaviy - madaniy omil bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ko'pgina jihatlardan ijtimoiy-psixologik hodisa hamdir.

Din ijtimoiy birliklar va guruhlar mafkurasi va psixologiyasining tarkibiy qismi, bayram, urf-odat va marosimlarning manbai bo'lib, jamoa va guruhlar fikrini shakllantiradi, shaxs va ijtimoiy guruhlarning dasturlarini, qadriyat yo'nalishlari va motivlarini belgilaydi. Shu bilan birga, dinning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi, muayyan jamiyatdagi shart sharoitni uning dastlabki shakllari - sehrgarlik, totemizm, fetishizm, otashparastliklarni o'rganish, shuningdek turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda dinning paydo bo'lish, mavjud bo'lib turish shart-sharoitlari va ildizlarini o'rghanishni ham taqozo etadi.

Dinning falsafiy mohiyati. Dinning paydo bo'lish sabablarini o'rghanishning ilmiy asoslari dunyoviy dinshunoslikda quyidagicha bayon etiladi:

1. Diniy tushunchalar, ta'limot va tasavvurlarning paydo bo'lishini izohlashda insoniyat taraqqiyotining shart - sharoitini hisobga olish zarur.
2. Mavjud ijtimoy - iqtisodiy taraqqiyot darajasini, unga mos ravishda ijtimoiy - siyosiy munosabatlarga asoslangan holda insoniyatning ma'naviy kamolotini, ularning tashqi dunyo to'g'risidagi tasavvurlarining va bilmlarining darajasini bilish zarurdir.

3. Tabiat sirlari oldida ibtidoiy odam ojizligi oqibatida tashqi dunyo to'g'risida, unda bo'layotgan voqe - hodisalarga nisbatan noto'g'ri qarashlar, g'aroyib hodisalar haqidagi asossiz tasavvurlarning tug'ilishiga olib kelganligini hisobga olish lozim.

4. Mehnat taqsimotining paydo bo'lishi asosida zolimlik va mazlumlik, boylik va qashshoklikning yuzaga kelishi bilan din hukmron sinfni himoya qiladigan ma'naviy qurolga aylanganligini nazarda tutish kerak.

5. Tabiatshunoslik ilmi, dalillarini fan - texnika yutuqlarini hisobga olish va ulardan tabiat va jamiyat sirlarini tushunishda foydalanish lozim.

Bular bilan bir qatorda dinshunoslik asosan tabiatshunoslikka suyanish kerak degan g'oyalarni hisobga olish, dinning paydo bo'lish sabablarinigina emas, balki unga bo'lgan munosabatini ham to'g'ri talqin etishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy asoslab o'rghanish yani:

- a) ob'ektivlik;
- b) konkret- tarixiy sharoitni hisobga olish;
- v) ilmiylik;
- g) sinfiylik;
- d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqlik;

e) din mavjudligini, umuman gnesalogik ijtimoiy - iqtisodiy va psixologik sabablarini hisobga olishni taqazo etadi.

Kuzatilayotgan tabiat va jamiyatdagi hodisalar mohiyatiga ko'ra nihoyatda murakkabdir. Tabiiy va ijtimoiy fanlarda buyuk muvaf faqiyatlarga erishgan hozirgi zamonda ham hali bilib etilmagan sirli jarayonlar mavjud. Tabiat va jamiyatda hamma narsa-hodisalar doim o'zgarib va rivojlanib boradi.

Dinning jamiyatdagи vazifalari. Jamiyat shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo'lgan din xalqlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan holda rivojlangan, moslashgan, sekin-asta diniy tizimni vujudga keltirgan. Natijada ma'lum ijtimoiy - siyosiy va madaniy - axloqiy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olgan. Bunday

funktsiyalar jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlarida, ,ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu o'rinda dinning, ayniqsa, islomning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rni, vazifalari, fan va madaniyat bilan o'zaro ta'siri xususida fikr yuritish o'rinnlidir. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, har qanday din o'z homiylari uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj hosil bo'lishini olib qaraylik. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlariga etishishi qiyin, ilojsiz bo'lib ko'ringanda bunday ma'naviy - ruhiy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli va tashvishli onlarda, orzular ro'yobga chiqishi ilojsiz bo'lgan paytda insoniyatning dinga ehtiyoji ortaborgan jamiyat bo'lib yashash talablarida boshlangan va din bu o'rinda ma'naviy - ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, dinlar o'z ta'limot tizimini vujudga keltirib, unga e'tiqod qiluvchi shaxs va jamoani shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funktsiyasi deyiladi. Bunga din muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishni ko'zda tutadi. Masalan, islom o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, hattoki adabiyot va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uchinchidan, din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) Funktsiyasini bajaradi. har qanday dinlarning ma'lum urf - odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'lim va talab asosida bajarilishi shart qilib kuyiladi.

To'rtinchidan, din dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat - aloqa bog'lashlik vazifasiga ham egadir. Bunda konkret bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'lishi, urf - odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etish ko'zda tutiladi. Cherkov,

machit va diniy tashkilotlar dinning bu funktsiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat qiladi.

Bulardan tashqari din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlari bo'lib, insonning yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, dorul fano, dorul baqo - dunyo haqidagi masalalarga o'z munosabatlarini bildirishdan iborat. Dinlar tarixi siyosiy funktsiyaga ham ega bo'lganlar hozir deyarli barcha dinlar bunday funktsiyani bajarmaydi yoki bu funktsiya sezilarli emas. Har qanday dinning ma'lum tarixiy sharoitda bajaradigan funktsiyalari yig'indisi uning ijtimoiy vazifasini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir xil bo'lgan emas. U vaqtga, o'ringa, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

«Dinshunoslik» kursi dinning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, uning ta'limotini, vujudga kelishi va shakllanishini o'rghanuvchi fandir. Bu fan jamiyat taraqqiyoti jarayonida din bilan bog'liq bo'lган barcha ijtimoiy hodisalarni - mafkura va aqidalar barcha ijtimoiy hodisalarni - mafkura va aqidalar, urf - odat va marosimlar, machit va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rghanish, tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Markaziy Osiyoda hurfikrlilik. Hurfikrlilikka xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda - deizm, panteizm, mu'tazililiylar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' mutafakkirlar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayomning ijtimoiy - falsafiy qarashlarida O'z aksini topgan. Ibn Rushdning «Ikki haqiqat» ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi shoh Akbar, so'ngra XVIII asrda frantsuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabati XIX asrda ilmiy dinshunoslik xususida yangi oqim, yo'nalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan. Binobarin, XIX asrda mifologik maktab (aka - uka Ya. va V.Rimm, M.Myuller); antropologik maktab (L.Feyerbax) va boshqa yo'nalishlar paydo bo'lgan. XX asrda dinshunoslik yanada yangi nazariyalar bilan boyigan. Bunda shveytsariyalik psixolog K. Yung va ,ayniqsa, frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeymning «kollektiv ong» haqidagi ta'limoti diqqatga sazovordir

Olimlarning dinshunoslik sohasidagi izlanishi muhim xulosalar chiqarishga olib kelgan. **Birinchidan**, har qanday din ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy ong

shakllaridan biridir; **ikkinchidan**, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli - tuman shakl va ko'rinish kasb etgan; **uchinchidan**, ibridoij diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo'lган dinlar rivojlanishi evalyutsiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, «Dinshunoslik asoslari» kursi predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: **Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lган barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqeい va ijtimoiy funktsiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandir.**

Yaqin va o'rta Sharq xalqlari tarixida hurfikrlilik g'oyalari Zardo'sht ta'limoti, Mazdak ijtimoiy - siyosiy faoliyati ta'sirida bo'lган. Al - Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar hurfikrlilikni keng rivojlantirganlar. Shu sababdan «Dinshunoslik» kursini o'rganish jarayonida bular ta'limotining o'ziga xos tomonlarini kengroq bayon qilish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, hurfikrlilik g'oyalarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi har bir tarixiy taraqqiyotda, ma'naviy hayotda, dinga bo'lган munosabatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida hurfikrlilikni ilmiy o'rganish uning har bir bosqichiga ob'ektiv yondashgan holda to'g'ri xulosalar chiqarish, uning tajribasi, ijobiy jihatlardan foydalanish shu kunning muhim masalalaridan biridir.

O'zbekistonda dinga munosabat. Hozirgi vaziyatda ilmiy dinshunoslik nazariy yutuqlarni va mamlakatimizdagi diniy tashkilotlarning g'oyaviy va amaliy ish faoliyatini hisobga olganda din va dindorlarga bo'lган munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bunday zarurat diniy tashkilotlarning hozirgi ijtimoiy tuzumga bo'lган ijtimoiy munosabatlariga ob'ektiv baho berishni talab etadi.

Bularning hammasi davr talabidan va kelajakdagi ma'suliyatni his etgan holda respublikamizda aholi dindorligi - darajasini aniqlash, dindorlar va diniy uyushmalarning jamiyatda tutgan o'rnini to'g'ri talqin etish hamda din bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarining umuminsoniylik tamoyillarini tiklash, din va diniy

muassasalarga doir muammolarga bo'lgan xolisona yondashishdir. Bu harakat ko'p yoqlama xususiyatga ega bo'lib, mustaqil respublikamizning ichki va tashqi siyosatida o'z aksini topmoqda. Respublikamiz Sharq va qarbdagi barcha tinchliksevar davlatlar bilan ularning ijtimoiy tuzumi, dinga munosabatidan qat'iy nazar, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy aloqalarni keng yo'lga qo'ymoqda. Ijtimoiy hayotda diniy tashkilotlar faolligining ortib borishini demokratiya jarayonida ular o'rning mustahkamlanishi deb qarash mumkin. Diniy tashkilotlarga xos ijtimoiy aktivlikning ortayotganligini e'tiborga olib, uni ikki yo'nalishda - ijtimoiy hayotda va dunyoqarashda shaxsning faolligini oshirish kerak. Diniy tashkilotlarning ijtimoiy yo'nalishlarda haqiqiy voqelikka oshkora va ijobiy yondashishlari kengayib borayotganligi odat tusiga kirib bormoqda.

Bunga respublikamiz hayotiga hozirgi kunda diniy tashkilotlarning xolisona munosabatlari, berayotgan ijobiy baholari jonli guvoh bo'la oladi. Bunda ayrim diniy tashkilotlarning ijtimoiy faoliyatları ahamiyatga molikdir. Shuning uchun hozirgi davrda ularga nisbatan bo'lgan munosabatlarda umuminsoniylik, demokratik xolislik tamoyillari tiklanmoqda. Dinga e'tiqod qiluvchilarga ma'muriy – buyruqbozlik taziyqi o'tkazishdan voz kechilmoqda. Lekin din va fandagi muammolarini qaytadan ko'rib chiqish, turg'unlik davridagi eskicha qarashlardan voz kechish va ilgari «jangovar ateizm» yo'l qo'ygan qo'pol xatolarni tuzatish zaruriyati yuzaga keldi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Zero, I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «**Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi - huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Va shu asosda O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga erishish»dan iboratdir.¹**

Xulosa qilib aytganda, dinlar va diniy e'tiqodlar insoniyat tarixida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bu hodisa hozirgi zamon uchun ham xarakterlidir.

¹ 1 «Fidokor» gazetasi, 8 iyun 2000 yil.

Tayanch so'zlar:

Teologiya, dinshunoslik, e'tiqod, ateizm, ijtimoiy, psixologik, gnoseologik, kompensatorlik, regulyatorlik, integrativlik.

Nazorat savollari:

1. Dinshunoslik fani nimaga o'qitiladi?
2. Dinning qanday tarixiy ildizlari bor?
3. Din qanday vazifalarni bajaradi?

DINNING ENG QADIMIY SHAKLLARI

Diniy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din to'g'risida turli xil qarashlar bo'lib, ularning bir-biridan tafovutini anglash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganilayotganda unga tarixiylik tamoyili (tamoyil) asosida yondoshish katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan qaralganda ayrim belgilari zamonaviy dinlarda ham saqlanib qolgan dinning eng qadimiy shakllari - totemizm, fetishizm, animizm, animatizm, shamanizm, sehrgarlik va magiyalardan iboratdir. Qadimda bu dinlar Markaziy Osiyo mintaqasida ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik ular o'rmini buddaviylik, Zardo'shiylik, shomonlik e'tiqodlari egallagan. Hozirda bu mintaqada nisbatan eng ko'p tarqalgan din islomdir.

Markaziy Osiyo jumhuriyatlarida islomning o'ziga xos ko'rinishini tushunish uchun konkret tarixiy sharoitni, xalqning o'tmishi, yashash tarzi, ishlab chiqarish usullari, etnik xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Islom va Qur'onning vujudga kelishi tarixi bilan bog'liq bo'lgan muammolar avvalo Sharq islomshunoslari, so'ngra ko'proq Evropa islomshunoslida XIX asrning o'rtalaridan boshlab o'rganila boshlagan. Evropa, Amerika islomshunosligi va qur'onshunoslida olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligi, konkret dalillarga boyligidan qat'iy nazar, ularning barchasi metodologik jihatdan cheklangan.

Din tarixida dinshunoslar dinning paydo bo'lishini turli izohlab kelganlar. Uning paydo bo'lish sabablari qadimgi dunyo dinshunoslarini qiziqtirgan, binobarin, unga javob topishga harakat qilishgan. Qadimgi Xitoy, Hindiston va xususan, qadimgi grek faylasuflari borliq to'g'risida fikr yuritganlarida din, uning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida ham ayrim g'oyalarni olg'a surishgan.

Antik dunyo falsafasida bu muammoni hal etishda dinshunoslar ikki guruhg'a bo'lingan. Agar materialistlar xudoning go'yo mavjudligiga ishonchni tabiiy va erdag'i sabablar bilan bog'lab izohlagan bo'lsalar, idealistlar buni ideal (ruhiy) kuchlarning mavjudligidan axtarardilar.

O'tmishdagi materialistlar dinni inson ongingin mahsuli deb qaraganlar va ularning dunyoqarashlari markazida dinning shakllanishi sabablarini, shart - sharoitlari to'g'risidagi masalalar turadi.

Diniy ong, urf-odatlar, diniy dunyoqarash ko'p jihatdan inson his - tuyg'ulari, ehtiroslari, xayollari ta'siri ostida paydo bo'lishi to'g'risidagi tushuncha qadim zamonlardayoq mavjud bo'lган.

Qadimgi materialist faylasuflar (Demokrit, Lukretsiy Kar va boshqalar) qo'rquv, tahlika hissi dinga ishonish manbai bo'lган deyishgan. B.Spinosa, L.Feyerbax singari mutafakkirlar ham dinga shunday yondoshish tarafdorlari bo'lishgan. Chunonchi, L.Feyerbax o'zining «Dinning mohiyati to'g'risida lektsiyalar», «xristianlikning mohiyati» degan asarlarida dinning paydo bo'lish sabablarini «Qaramlik hissi va qaramlik anglashilishi»dan qidirish lozimligini, dinni tushuntirib berish uchun «qo'rquv» singari salbiy his-tuyg'ularnigina emas, balki «quvonch», «minnatdorchilik», «muhabbat» va «e'zozlash» singari ijobiy tuyg'ularni ham e'tiborga olish lozimligini ta'kidlagan edi.

Bu bilan L.Feyerbax dinning mohiyatini insonning mohiyatidan iborat qilib qo'yadi. Lekin insonning mohiyati ayrim odamga xos bo'lган mavhum emas, balki haqiqat holida u hamma ijtimoiy munosabatlarning majmuidir.

Uning fikricha, inson mohiyati faqat «urug'» deb juda ko'p alohida odamlarni tabiiy vositalar bilan bir - biriga bog'laydigan ichki, tilisiz umumiylit deb tushunilishi mumkin. Shu sabali Feyerbax «diniy hissiyotning» o'zi ijtimoiy mahsul ekanligini va o'zi tahlil qilayotgan mavhum alohida odam haqiqatda muayyan ijtimoiy shaklga mansubligini payqamasligi ta'kidlangan.

Klassik falsafa asarlarida dinning paydo bo'lishi va uni o'rganishning ilmiy dunyoqarashga tayangan metodologik qoidalari bayon etib berilgan.

Din turlari maktablar va yo'naliishlarga mansub bo'lган xorijiy dinshunoslar va faylasuflarning diqqat- e'tiborida bo'lган va shunday bo'lib qolmoqda. Masalan, daniyalik faylasuf va ruhshunos Jeyms bunday deb yozgan edi: «Dinning tajriba mohiyatan diniy hissiyot bo'lib, u barcha va hamma diniy nuqtai nazarlarining muhim xususiyatlarini tashkil etadi. Barcha tasavvurlar unga nisbatan bo'ysunuvchi

va shartlidir». Jeyms «hissiyotni dinning eng chuqur manbai deb noto'g'ri hisoblagan, falsafiy va xudojuylik kayfiyati esa asl nusxaning boshqa tilga tarjimasi sifatida ikkilamchi ustukurmadan boshqa narsa emas» deb ta'kidlagan edi. Bu fikrga aslo qo'shib bo'lmaydi.

Dunyoviy dinshunoslik ta'limotining asoschilari ham diniy ongda hissiyot, e'tiqod va tasavvurlarning muhim o'rinnegallashini yaxshi anglaganlar va uni talqin etishning ilmiy tamoyillarini belgilab berganlar.

G. Plexanov diniy hissig'tni dinning zarur jihatlari deb hisoblagan edi. Uning fikricha, hayotda yaxshilik bilan yomonlik deb ataladigan «mangu muammolar» mavjud ekan, odamlar axloqiy kamolotga intilib, ana shu ikki tushuncha orasida gangib qoladilar; bunday fursatda dinning mohiyati o'zining yuksak axloqiy ideallarini namoyon etadi. Biroq, bu o'rinda ham qo'rquv bilan ta'qib etib turgan axloqiylik tushunchasi oxiratdagi hayot tushunchasi bilan qorishib ketardi.

Dinda ijtimoiy, tarixiy, gnoseologik va psixologik ildizlar mavjuddir. Bular orasida psixologik ildizlarni alohida ajratib ko'rsatish o'rnlidir. Ularga gnoseologik nuqtai nazardan va eng avvalo ijtimoiy ildizlar mavqeidan qarashimiz zarur. Asrimizning 50-60 yillaridagi tadqiqotlar esa, bu sohadagi ta'limotni yanada rivojlantirib, dinning maxsus psixologik ildizlari ham borligini isbotladi.

Dunyoviy dinshunoslik dinning tasalli berish funktsiyasiga nisbatan salbiy munosabatini ham shu ma'noda tushunish lozim. Kimki qulni quzdorlikka qarshi qo'zg'atish o'rniga unga tasalli bersa, quzdorlarga yordam bergen bo'ladi; tasalli berishning asl mohiyati va ahamiyati to'g'risida gapirar ekanmiz, cherkov tasallisi ijtimoiy vazifasini sinfiy kurash nuqtai nazaridan tahlil etish kerak. Bunda tasalli berish inqilobiy harakatni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy - psixologik omil sifatida qarab chiqilishi kerak. Bularning hammasidan mashhur dinshunoslari tasalli berishga, boshiga falokat, musibat, baxtsizlik tushgan, alam - sitamga duchor bo'lgan kishilar taqdiriga insonlarcha hamdardlikka salbiy munosabatda bo'lganlar, degan ma'no kelib chiqmaydi. Ularga inson sifatida axloqning ana shu umumbashariy qoidasi aslo begona emas, degan xulosa kelib chiqadi.

Muammolardan yana biri shundan iboratki, diniy his - tuyg'u tug'ma degan muammo ilmiy munozara bahslarining mavzui bo'lib qoldi. Bunda diniy dunyoqarash mavqeida turadigan kishilar faqatgina diniy his - tuyg'u abadiydir degan g'oyani o'rinsiz himoya qiladilar.

Qadimgi din shakllaridan Fetishizm. Har qanday narsa va buyumlar- toshlar, yog'ochlar, daraxtlar hoh tabiiy bo'lsin, hoh insonlar mehnati orqali yaratilgan bo'lsin, Fetish sifatida ko'rinishi mumkin. Ko'zmunchoqlar, tumorlar va boshqa shu qabilarni taqib yurish odatlari deyarli Markaziy Osiyo hamma xalqlari orasida hozirda ham uchrab turadi. Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, ayrim hollarda tumorlar, ko'zmunchoqlar, muqaddas yozuvlar diniy xizmatlar bilan bir qatorda estetik jihatdan ham muayyan vazifalarni bajarganlar. Shuningdek, ular mahalliy xalqlarning ayrim tarixiy madaniy an'analarini ham ifoda etadi.

Animatizm diniy tasavvurlarning o'zgarib borishi va rivojlanishi nuqtai nazardan fetishizmga nisbatan yuqori bosqichdir. Hozirga qadar bizning so'z boyliklarimizda animatizmga xos bo'lgan qarashlar bilan bog'liq bo'lgan so'z birikmalari uchraydi. Bunga «yomg'ir kelyapti», «quyosh chiqayapti» kabilar misol bo'ladi.

Shundan so'ng narsa va butun mavjudotlarni «ikkilantirish», ya'ni ularning inson ko'ziga ko'rinxmaydigan «joni», «ruhi» mavjudligi haqida dualistik tasavvur shakllana bordi. Bunday qarashlarni ingliz tarixchisi - elshunos E.Taylor animizm - tabiatdagi narsa va hodisalarni boshqarib boradigan jon va ruhlarining haqiqiy mavjudligiga ishonch deb ataydi. Inson vafotidan so'ng uning ruhi yashashi haqidagi qarash ham animistik qarashdir.

Sharq xalqlarining qadimgi diniy qarashlarida samoviy jismlarga, hodisalarga itoat qilishlar ham keng o'rin olgan. Bu borada yulduzlar harakatiga keng o'rin berilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining osmon xudosi bo'lgan «Tangri»ga ishonishi, samoviy jism va hodisalarning muqaddaslashtirishlar bilan bog'liq qadimgi bir qancha diniy tasavvurlarning o'zaro uyg'unlashuvining natijasidir. Ko'pgina turkiy xalqlarda Tangri xudo sifatida osmonga, erga, oyga nisbatan ham qo'llanilgan. Bu

vaziyat osmon, er suv, tog' xudolarini hali bir-biridan ajratilmaganligidan dalolat beradi.

Sharq xalqlari orasida ajdodlarga, ularning ruhlariga sig'inishlar, ulardan madadlar kutishlar, er, inson salomatligi uchun foydali bo'lgan chashma va buloqlarni muqaddaslashtirishlar, ular bilan bog'liq qurbanliklar qilish uchrab turadi. Tog' balandliklari, dovonlari, so'qmoqlari bilan bog'liq ruhlar eng kuchli va qudratli ruhlar hisoblangan. Ular sharafiga bag'ishlangan tosh buyumlari, muqaddas tepaliklar, sun'iy to'siqlar, ayrim hollarda esa xom g'ishtlardan qurilgan gumbaz tom bilan yopilgan maxsus inshoatlar barpo qilingan.

Odatda bular atrofiga tog' echkisi va qo'yarning shohlari terib qo'yilgan, uzun tayoqlarga bir tutam junlar, lattalar, paxtalar va yovvoyi qo'toslarning dumlari osib qo'yilgan. Hozirda ham bunday muqaddas joylarda, garchi hech kim dafn qilinmagan bo'lsa ham, mozorlar deb ataladi. Bular islom bilan bog'liq marosimchilik, toatibodatlarning tarkibiy qismiga aylanib qoldi.

Dinning qadimiyligi shakllariga ona xudo (Onaxit) bilan bog'liq tasavvurlar ham kiradi. Ona xudo hosildorlikning mo'l-ko'lchilikning ramziy ifodasi, oila o'chog'ini, yangi yosh avlodning homiysi ham hisoblangan. O'zbeklardagi Anbar ona, qirg'izlardagi Umay enelar shular jumlasiga mansubdir.

Totemizm. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk qarashlari tarixi totemistik qarashlar bilan ham bog'liqdir. Bu qarashlar asosan yirtqichlarni muqaddaslashtirish orqali namoyon bo'lgan. Muayyan insonlar guruhlari hayvon turidan kelib chiqqan deb faraz qilish totemistik qarashlarning asosiy mazmunidir. Masalan, it, bo'ri, kiyik yoki bug'u, burgutlar turkiy xalqlarning bosh totemlari hisoblangan. Ular muayyan urug'larning asoschisi va homiysi deb bilingan.

Eneolit davriga kelganda esa (eramizdan 3 -5 ming yil ilgari) sopol idishlarda o'simliklar, buyumlar, geometrik shakllargina emas, shuningdek, tog' echkisi va qo'ylar ajdaholarning tasvirlari ham uchraydi. Shunga ko'ra qadimgi odamlar yovvoyi hayvonlarni bu dunyoda emas, balki o'zga dunyoda - g'ayri-tabiiy mavjudotlar, xudolar, ruhlar dunyosida yashaydilar va odamlar bilan xudolar orasidagi bog'lanishlarda vositachilik vazifasini bajaradilar, deb tushunganlar.

Chunonchi, turkman xalqlarining afsonalariga ko'ra burgut odamlar uchun emas, balki echkilar va ularning bolalari uchun yomg'irni yog'diradi.

Qozoqlarda tug'ishi yaqinlashgan va yangi tuqqan ayolni yovuz ruh hisoblagan «alvasti» dan asrashda burgutdan foydalanish haqidagi tasavurlar saqlanib qolgan. O'zbek va tojik xalqlarining milliy bosh kiyimi do'ppilarda qushlarning, jumladan, musichaning tasviri uchraydi, deyarli hamma erlarda bolalarni ko'z tegishlaridan, balo - qazolardan saqlash maqsadida ukkinining pati va panjalaridan foydalanilgan. Bu holat chorvadorlarda ham uchraydi.

Dunyo xalqlarida keng tarqalgan qushlarni, ,ayniqsa, suvda suzadiganlarini e'zozlash, inson vafotidan so'ng uning joni, ruhi qush shaklida inson tanasini tark etadi deb bilishlar, xorazmliklarda va tog'li tumanlarda yashovchi tojiklarda ham uchraydi. Tojikistonning uzoq tog'li viloyatlaridan birida yashovchi xalqlar kabutarlarni inson ruhi deb qarab, ularga ozor bermaydilar, iste'mol qilmaydilar, e'zozlaydilar.

Markaziy Osiyo xalqlarining ilk diniy qarashlarida tuya va otlarni muqadaslashtirish keng o'rinni olgan. Bu jarayon eramizdan oldingi davrlarda ko'chmanchilik turmush tarzi va u bilan bog'liq xo'jalik ishlarining shakllanishi tufayli yanada rivojlangan.

Eramizning III - IV asrlaridan boshlab 300 yildan ko'proq davr mobaynida qadimgi Buxoroda zarb etilgan tangalarda, garchi turli-tuman ko'rinishlarda bo'lsa ham, tuyaning tasvirlari chop etilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining diniy qarashlarida bunday hayvon shakllaridagi muqaddaslashtirishlarning qoldiqlari uzoq davrlar mobaynida saqlanib qolgan. Chunonchi, bu vaziyat Siyovush (bu «qora ayg'ir ot, toycha» ma'nosini anglatadi) bilan bog'liq qarashlarda ham o'z ifodasini topadi.

Fetishizm, animizm va boshqa shu kabilardan iborat bo'lган qadimgi xalqlarning ilk diniy qarashlari urug'chilik tuzumining emirilishi va uning o'rnida sinfiy tabaqaviy jamiyat tashkil topishi jarayonida o'zgarib boradi.

Ovchilik bilan bog'liq sehrgarlik, afsungarlik va totemistik xislatlarga ega bo'lган qarashlar va harakatlar, keyinchalik ruhlar, yoki shaytonlar haqidagi

tasavvurlarga, hamma narsa va hodisalarni, shuningdek odamlarni ikkilantirishga, ya’ni bir-biriga nisbatan mustaqil moddiy va ruhiy tomonlari bor degan qarashlarni vujudga keltirdi.

Shaytonlar va ularning malaylari haqidagi qarashlarning vujudga kelishi, din tarixidagi muhim hisoblangan bosqich, ko’pxudolikning (politeizm) mavjudligi bilan o’zaro tutashib ketadi. Markaziy Osiyo xalqlarining parilar, jin va shaytonlar, devlar, alvastilar haqidagi tasavvurlari ozmi - ko’pmi bir - birlariga ancha o’xshashdir.

Bu g’ayri tabiy mavjudotlar o’zlarining hislatlari, odamlarga bo’lgan munosabatlariga ko’ra, shartli tarzda uch guruhga bo’linadilar:

Birinchi guruhga odamlarga homiylik qiluvchi, ayni vaqtda odamlarga zarar va xastalik ham keltiruvchi bo’lib, ularni zarar – zahmatlardan qutulish va rahm - shafqatga ega bo’lish uchun is chiqarish, qurbanlik orqali halos bo’lishi mumkin bo’lgan ruhlar kiradi. Bularga mozorlarda yashaydigan arvoxlar, ruhlar, o’t-o’choqlar bilan bog’liq diniy tasavvurlar va marosimlar misol bo’la oladi.

Ikkinci guruhga, insonlarga ziyon keltiruvchi hisoblanmish alvasti, ajina, dev, alomon, sarkiz, olmoz qabilardan iborat bo’lgan ruhiy mavjudotlar kiradi.

Uchinchi guruhga esa inson bilan o’ziga xos tarzda jinsiy munosabatda bo’la oladi deb tushunilgan parilar kiradi. Hozirda ham ba’zi tumanlarda bularga bag’ishlangan maxsus marosimlar o’tkaziladi. Chunonchi, jonivorlar so’yiladi, holvaytar, qatlama va hokazolarga o’xshash marosimchilik taomlari tayyorlanadi.

Ana shu davrlardan boshlab sehrgarlik vujudga kela boshadi.

Sehrgarlik. Fanda magiya deb ham yuritiladigan sehrgarlikning asosiy belgisi ayrim odamlar sehrgarlar insonlar bilan ruhlar o’rtasidagi munosabatlaridan vositachilik vazifasini bajara oladigan hislatlarga ega deb ishonishdir. Maxsus kiyim kiygan, childirma ushlagan va boshqa turli narsalar taqqan sehrgarlarning xalq o’rtasida raqs tushib va jazavaga kirib ruhlar bilan «aloqa bog’lashi» va ulardan ma’lum yo’l-yo’riq olish sehrgarlikning asosiy marosimi hisoblangan.

Sehrgarlar asosan ruhiy, asab kasalliklari bilan og’rigan kishilarni davolashgan, karomat qilish bilan shug’o’llanishgan, Karomat qilishni va sehrgarlarning ayrim vazifalarini yana bir alohida toi fadagi kishilar - «duoxonlar» ham bajara olishgan.

Sehrgarlikda bir qancha diniy tartib va usullar o'ziga xos ravishda «payvandlangan».

Kasalliklarni sehrgarlik usuli bilan davolashga o'rinishlar hanuzgacha Markaziy Osiyo xalqlari orasida uchraydigan ibtidoiy turmush tarzining eng turg'un bo'lagidir.

Diniy tasavvurlarning dastlabki shakllari mavjudlik davridanoq diniy ishonchlar, toat - ibodatlar, afsungarlik, sehrgarlik, jodugarlik o'zlarining maqsadlariga, yo'naliishlariga ko'ra yaxshi va yomon kabilarga ajratilgan va kishilarni yoovchilik, yoalohida malaka, bilmni talab qiladigan boshqa hunar bilan, yo davolashlar, yoki ixlos (issiq-sovuq qilishlar) bilan bog'liq bo'lган turlarga bo'lingan.

Sehrgarlikning asosini xavf-xatardan saqlashga qaratilgan maxsus harakatlar (duo o'qishlar, har xil irim-sirim bilan bog'liq ishlar) tashkil qiladi.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridan toat-ibodatlar bilan bog'liq ijtimoiy hayotda jamoaning, urug'ning hamma a'zolari bir xil shakllarda qatnashganlar, chunki bu davrlarda urug'doshlar, qabiladoshlar orasida ijtimoiy tenglik hukm surgan. Keyinchalik urug'chilik - qabilachilik tuzumining emirilish davrida, mas'ul kishilar uchun maxsus joylar, ruhoniylikni kasb-hunar qilib olgan kishilar toifasi (koxinlar, sehrgarlar va boshqalar) vujudga keladi.

Diniy tasavvurlarning ilk shakllari Markaziy Osiyo xalqlarining keyinga diniy qarashlarining tarkibiy qismlarida tarixiy sharoitlar ta'sirida o'zgargan holda saqlangan: ularning san'ati, madaniyati va turmushiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Animizm – lotincha anima, animus so'zlaridan olingen bo'lib, jon va ruhlarga ishonishni biliradi. Bu atama ilmiy iste'molga ingliz etnologi E.B. Taylor tomonidan kiritilgan. Marhumlar, ajdodlar ruhi, odamlar joni, tabiat hodisalari ruhlari animizning asosiy obrazlari bo'lган. Animizm tabiat hodislari ruhlarini oliyjanob va insonga dushman kuchlar deb bilgan. Uning ta'siri zamonaviy jahon dinlarida ham saqlanib qolgan.

Fetishizm – frantsuzcha – tumor, idol so'zlaridan bo'lib, jonsiz narsalarga ular g'ayri tabiiy kuchga ega deb ishonish va sig'inishni anglatadi. Toshlar, daraxtlar, umuman istalgan narsa fetishizm predmeti bo'lishi mumkin. Fetishizm elementlari

hozir ham mavjud. Ko'chma ma'noda fetishizm nimanidir hamma narsadan yuqori qo'yish, hayot mazmuni deb bilishni anglatadi. Tovar fetishi, pul fetishi tushunchalari ana shuning natijasidir.

Zardo'shtiylik. Bu – Movarounnahrda ilgarigi diniy tasavvurlar va ko'p xudochilikka asoslangan diniy e'tiqodlarni payg'ambar Zardo'sht (ba'zi manbalarda Zardust, Zardo'sht) tomonidan isloh qilinishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir-birlarini istisno etuvchi turli fikrlar hanuz davom etib keladi.

Ko'p tadqiqotchilar Zardo'sht tarixiy shaxs bo'lib, u milodgacha 589 - 512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiatshunos va shoir ekanini e'tirof etadilar.

Zardo'shtning diniy islohotini tushunish uchun o'sha davr Movarounnahr ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli va siyosiy vaziyatini e'tiborga olish kerak. Gap shundaki, Movarounnahr iqlimining nisbatan mo''tadilligi, geografik jihatdan ikki qit'a o'rtaida joylashgani sababli savdo-sotiqning kuchayishi bu erlarda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ertaroq vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ayni chog'da xunarmandchilik, chorvachilik va ovchilik ham rivojlangan. Bu hududda yilqichilikning rivojlanishi, ayniqsa, Farg'ona vodiysida qorabayir zotiga o'xshash otlar boqish keng ko'lam olgani ham ijtimoiy hayotda katta rol o'ynaydi. Uning ustiga mis va qo'rg'oshin konlariga boy bo'lgan Oltoyning yaqinligi bu erda temirchilik, misgarlik rivojiga asos bo'ldi.

Zardo'sht yashagan davrda o'troqlik turmushi afzalligi yaqqol namoyon bo'lgan, ammo unga qabilalar o'rtaсидаги qirg'inbarot urushlar raxna solayotgan edi. Urushlar ko'pincha xarajatlar bir qabila va elatning o'z xudolariga ko'plab qurbanliklar qilish odatlari zaminida ham yuzaga kelardi. O'z davrining koxinlari, sehrgarlari va mo''tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardo'sht yuqoridagi odatlarini bartaraf etish va xalqlarga tinch mehnat bilan shug'ullanish imkonini yaratish uchun ko'pxudolik e'tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolik (arabcha Alloh) ga sig'inishni targ'ib etish deb bildi.

Shoh Vishtasia farmoniga binoan «Zardo'sht 1200 bobdan iborat pandnomasi «Ovesto»ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan» - deydi

Firdavsiy. Keyinchalik u «Kitob» 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan, makedoniyalik Aleksandr Sharqni zabit etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltid, kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini yoqtirgan» «Ovesto» eng qadimiy yakka xudochilikka asoslangan dinnning birinchi muqaddas kitobi bo'lib, e'tiborli tarixiy manba va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. Unda dastlabki falsafiy qarashlar bilan diniy - afsonaviy tasavvurlar uyg'unlashib ketadi; shu zaminda ma'naviy - axloqiy barkamol odam ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllantirish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. «Ovesto»da tabiiy ilmlar - agronomiya, metrologiya, zootexnika, tibbiyat, falakiyat, ilmi nujum, jo'g'rofiyaga doir bilmlar ham mavjud.

Zardo'shtning diniy islohoti o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas. qarbiy Evropa va rus tadqiqotchilarining fikricha, milodgacha bo'lган 3-2 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda oriy deb atalgan qabila yashagan. A. P Primakning aytishicha, oriyalar ko'chmanchi chorvadorlar bo'lishgan.

Ularda yozma adabiyot bo'lмаган, ammo hayratomuz og'zaki ijod iste'dodiga ega bo'lib, ular yaratgan o'ziga xos ashula, gimnlar, o'git-nasihat shaklidagi qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib borgan.

Umuman, Sharqda qadimda inson ichki olamini munavvar etish, niyati bilan amal mushtarakligiga jiddiy ahamiyat berish diniy va ôalsaôiy fikrlarning markazida turgan. Angliyadagi Oksford universitetining professori Maks Myuller Pomir atrofida yashagan oriy qabilalarining Hindistonga, bir qismi Evropa va Eronga ko'chib ketishganini ta'kidlab, ular, albatta o'zlari bilan birga shu erdag'i osori-atiqalar (mifologiya)ni ham olib ketishgan, deydi.

Demak Evropa va Hindistonga hamda Yaqin va O'rta Sharqqa tarqalgan ko'p xudolik asoslari avvalo Markaaziy Osiyoda vujudga kelgan, shu bilan birga Zardo'sht asos solgan yakka xudolik din ham boshqa joyda yashayotgan xalqlar e'tiborini o'ziga jalb etgan.

Zardo'shtiylikning muqaddas kitoblar to'plami «Ovesto» Iskandar asos solgan hokimiyat tugagach, eramizgacha bo'lган 250 yillarda arshohiyalar davrida yana tiklana boshlagan va u yangi matnlar bilan to'ldirilgan. Sosoniylar hokimiyati davrida

(milodning III - VII asarlari) bu ish nihoyasiga etkazildi. «Ovesto»ning uchta kitobi qadimgi tilda va bittasi pahlaviy tilda tiklangan.

Uning birinchi kitobi «Vadovdot» ya’ni devlarga qarshi qonun, deb ataladi. «g’sin» va «Vispard»ni qo’shgan holda «Vadovdot - Sade» nomi bilan yuritilgan. «Vadovdot» ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi deyish ham mumkin. «Ovesto» ning ikkinchi kitobi «g’sin» bo’lib, Zardo’sht xat(noma) lari uning asosiy mazmunini tashkil etadi. U 72 «xa» - bashoratdan iborat bo’lib, birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Oxuramazdaning vahiyulari haqligiga imon keltirishga doir duolar bor. 19 - bashoratda olam yuzaga kelmasdan ilgari mavjud bo’lgan xudo sha’niga shukronalar aytildi.

Imon kalimasi, poklanish (yuvinish gigienasi), yovuzlikni qarg’ayotgan payt tanani qanday maromda tutishlik, dev-ibislarni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig’ bo’lish, kechirim so’rashga doir duolar mavjud. Gunohdan forig’ bo’lish, imonni saqlab qolish uchun mana bunday duolar o’qish tavsiya etiladi:

«Ey olamning hukmdori Oxuramazda! Men barcha gunohlarimga iqrorman, ularni takrorlamaslik uchun senga so’z beraman: men har qanday yomon niyat (fikr) lardan, har qanday yomon so’zlardan, harajatlar har qanday yomon amallardan voz kechaman: men fikrlagan va gapirgan yoki qilmoqchi bo’lgan va qila boshlagan va qilgan hamma nojo’ya ishlarimdan voz kechaman: niyatlarim, so’zlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buyon ishonchingni oqlayman: gunohlarimni keng karaming ila kechirgin, tanam va jonimni u dunyoyu bu dunyo munavvar etgil, ey parvardigorim»!

Yosinlarning 7-bobida Zardo’sht orqali xabar berilgan bashoratlar o’z ifodasini topgan. Zardo’sht Oxuramazdadan o’z axloqiy qonun-koidalarini ma’lum etishni so’raydi. Oxuramazda butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi - ezgulik va yovuzlik haqida vahiy qiladi.

Bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan bu boshlang’ich kuchlar harajatlar doim birgalikda mavjud bo’lib, ular hayot va o’lim, osmon va jahannam ma’nolarini anglatadi. Jahannam Oxuramazda vahiyisida «hayotning eng yomon onlari», osmon va ruhning eng yuksak holati sifatida gavdalanadi.

Olamdagi yovuzlik va notakomillik narsa, hodisalar va ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish bo'lib, imonli kishilar bu jarayonda eng katta faollik ko'rsatishga da'vat etiladilar. Ular Oxuramazda yuborgan qonunlar, o'git-nasixatlarga amal qilsalar, ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi.

Olam qarama-qarshiliklar kurashi asosida ko'rilgan: jismoniy (fizik) narsalarda yorug'lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotdaadolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda u o'z ifodasini topadi. Diniy soha esa ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhi o'rtasidagi kurashga asoslanadi.

Oxuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman unga qarshi odamlarni yomon ishlarga boshlayveradi. 30-bashoratda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo'l yo'q, binobarin, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonidan ishtiroq etishga majbur, deyiladi. Shuning uchun dindorlikda imon-e'tiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim bo'lib, u odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi.

Imon-e'tiqodli odam, albatta ezgulik tarafida turadi. g'vuz ruhlar - dev, pari, iblis va boshqalar gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoli sifatida tasvirlanib, Oxuramazda ulardan saqlanishga da'vat etadi. g'sinning birinchi bashoratida xudo – «Men ezgu fikr (niyat) larni, ezgu so'zlarini va ezgu amallarini yoqtiraman. Men mazdayosin qonunlariga asoslangan targ'ibotlarni ulug'layman, deydi.

Demak, Zardo'shtiylik imoni 3 tayanchga asoslanadi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat.

Oxuramazda odamlarni o'z istaklarida xolis bo'lib, ular bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, kattazanglik (dimog'dorlik), shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurishga chaqiradi. «Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo sotiq shartnomaga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo'lish imonlilik alomatlaridir».

Imonli odam o'g'rilik va talonchilikdan, begonalarning mol-dunyosiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga hiyonat qilishdan, ya'ni imoniga xilof ish qilishdan o'zini saqlay biladigan komil insondir. «Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayyouring», ya'ni avval ma'naviy dunyoyingiz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi, deydi Oxuramazda.

«Ovesto»ning muqaddas kitoblarida qadimi materialistik falsafaning asoslari – tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shiladi. Hatto marhumlar erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularning murdalarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan.

Oxuramazda «erga yaxshi, mustahkam urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q», deydi. Xudoi taoloning bu aytganlariga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbanlikka so'yishdan afzal hisoblangan. Ekin ekish erdag'i yovuzlikka barham berish, demakdir. «Odam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, - deyiladi bashoratlarda, - kimki erga urug' qadabdi, u odamiylikka imon keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir.

Zardo'shiylikning bosiq, musiqa bilan uyg'unlashib ketgan dono o'gitlari ona zaminga, dehqonchilik chorvachilik, xunarmandchilik va Vatanga, xalqka o'lug' muxabbat ruhi bilan uyg'unlashib ketadi.

Zardo'shiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlari tantanalarida bu ruh ,ayniqsa, ulkan qudrat bilan namoyon bo'ladi. Boychechakning chiqishi, lolaqizyoaldoqning ochilishi, bodomning go'llashi, umuman bahor bilan tabiatning go'zallahib borishi ezgulik ruhining tantanasi bo'lib, ularning har biri katta shodiyonalikka sabab bo'lgan.

Odamlar tabiatning bu go'zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar.

Yosinning 29 - bashorat 5-hikmati va 50-bashorat 8-hikmatidan ibodatdan so'ng, ikki kaftni oldinga yozib ko'targan holda xudoi taolodan o'z talablarini iltijo qilish rasm – rusumi haqida gap boradi. Bashoratlarda er, osmon, okean, boshlanishi yo'q yorug'lik sohasi va jannat haqida fikrlar mavjud.

Bashoratlardagi Odam Ato haqidagi fikrlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iyim nomi bilan birinchi odam va uning faoliyati haqida gap boradi. U Oxuramazda irodasiga muvofiq, odamlarni, hayvonlarni va qushlarni parvarishlaydi, er yuzida qizil shu'lali olovni ko'paytiradi va shu tarzda 300 yil yashaydi. Oxuramazda unga oltin nayza bilan, oltin qamchi xadya etadi. Er odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganida, Iyim nayzani erga suqib, xudodan uni kengaytirishni iltijo qiladi va bunga erishadi.

Oxuramazda Odam Atoga muz davri kelayotganidan xabar beradi, bu ofatning oldini olib qolish kerakligini aytadi. Iyim maxsus uy qurib, mavjud hamma hayvon va o'simliklarning eng yaxshi zoti va navidan bir juftdan saqlaydi, natijada dunyoda tirik tabiatni ofatlardan saqlab qoladi. Biroq Iyim o'z ishiga ortiqcha baho berib, mag'rurlanib ketadi va xudo tomonidan taqiqlangan ne'mat – yirik shohli hayvon go'shtidan tanovul qilib qo'yadi. Oqibatda xudoning qahriga uchrab, abadiylikdan mahrum bo'lib qoladi. Odamzod hayotining bu birinchi bosqichidan so'ng, ikkinchi davr boshlanadi.

Bu davr Zardo'sht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq bo'lib, u din va imon uchun beomon kurashlar bilan xarakterlanadi. 3000 yillik kurashlardan so'ng, Zardo'shtning farzandi boshchiligidagi dunyoda osoyishtalik va farovonlik davri yuzaga keladi, yovuzlik kuchlari timsoli bo'lган dev – Axriman engiladi. 3- davrda qiyomat – qoyim boshlanadi va o'liklar tirilib, xudo xuzo'riga o'z qilmishlari haqida hisob bergani borishadi.

Hamma ishlardan voqif bo'lган va hisob-kitob qilib borgan xudoi taoloni aldab bo'lmaydi. Zardo'shiylik e'tiqodicha, odam o'lgandan so'ng uning joni uch kun davomida tanada turadi, to'rtinchchi kunda o'z mahrami – farishtasi yo'lboshchiligidagi narigi dunyodagi «Chinvot» degan ko'priordan o'tishi kerak.

Ezgu ishlar qilgan odamlar uchun bu ko'prik kengaygan holda turadi. Ular undan bemalol o'tib, jonlari abadiy rohat – farog'atda ketadi va oxiratda o'liklar tililadigan kunda o'z tanalariga kirib yotadilar. g'vuz ishlar bilan shug'ullanganlar uchun «Chinvot» qilday torayadi va ular jahannam azoblariga mahkum bo'ladilar.

Ovestoning uchinchi kitobi «Visparat» deb nomlangan. Udma olamni yoki hamma narsani bilishshga doir pand – nasixatlar o’rin olgan. U ibodat namozlari yig’indisi bo’lib, 25 qismdan iborat.

Oxirgi kitob «Bundaxash» qadimgi Eron tili – pahlaviy tilida yozilgan.

G’shtlar va yosinlar 3 qatlamdan iborat: Birinchisi xalq eposlarining Zardo’shtgacha bo’lgan qo’shiqlari (she’rlari), ikkinchisi Zardo’sht xat(noma)lari va uchinchisi Zardo’sht halok bo’lgandan keyin kitob holiga keltirilgan va Kichik Avesto nomi bilan yuritiladigan qismidir. Demak, Avestoning ilk va kichik (keyingi) qismlaridan uning asosiy qismi Zardo’sht Nomalarini farqlash lozim. Nomalari ko’p xudochilikni, O’ta va tabiat stixiyali kuchlariga sig’inishni qoralab, yakka xudolikka e’tiqod qilishni talab etadi.

Hozirgacha bo’lgan ilmiy adabiyotlardagi farqlar ko’proq «Kichik Ovesta»ga asoslanib bildirilgan. Bunda yakka xudolik g’oyalari ko’p xudolik e’tiqodlari bilan qorishib ketgani uchun tadqiqotchilar Zardo’shtiylikni ko’p xudolik yoki ikki xudo dini sifatida talqin etadilar. Bunday qarashlar Zardo’shtiylikning uchinchi yo’nalishi-ko’p xudochilik bilan yakka xudochilik qorishmasidan iborat mazdaizm bilan aralashtirish oqibatidir.

Zardo’shtgacha bo’lgan Oxura, Mitra, Mazda, Onaxit va boshqa xudolar haqida fikrlar bo’lgan. Ammo u xudolar odamlardek hayot kechirgan bo’lsalar, Zardo’sht talqinida Oxuramazda Oliy ibtido bo’lib, uning na xotini, na bolalari bor. U hamma mavjudotlarni yaratuvchi va boshqaruvchi sifatida ezgulikni barqaror qiluvchi, odamlar qalbini munavvar etkuvchi Oliy ruh sifatida namoyon bo’ladi.

Eron shohlari o’z imperiyalarini barqaror qilishda Zardo’shtiylik dinining o’rni va roliga to’g’ri baho beradilar. Biroq bu dindagi o’rtahol dehqonchilik, mo’’tadil, kamtarona hayotdan iborat turmush tarzini ilohiylashtirib, quldorchilik munosabatlarini qoralash ularga yoqmaydi. Shuning uchun Eron shohlari Zardo’shtiylikni Zardo’shtgacha bo’lgan va Yaqin Sharqda ham keng tarqalgan ko’p xudochilik g’oyalari bilan aralashtiradilar. Zardo’sht o’miga o’zlarini xudo vahiylarini odamlarga etkazib turuvchi payg’ambar o’rniga qo’yadilar.

«Kichik Avesto» da Oxuramazda olamni yaratuvchi va tartib o'rnatuvchilikdan ko'ra ko'proq qabilaviy xudolarni boshqaruvchi Bosh xudoga aylanib qoladi. Ahmoniyalar Gretsiyani bosib olish uchun olib borgan urushlari (bunda Markaziy Osiyodagi turk jangchilari katta rol o'ynagani uchun Aleksandr Makedonskiy ulardan qasos oladi) hamda greklarning Eron va Turonni ishg'ol etishi oqibatida Oxuramazda qadimgi Gretsiyada bosh xudo Zevs, Aflotun sifatida talqin etila boshlaganiga tadqiqotchilar e'tiborni qaratadilar.

Ahmoniyalar Zardo'shiylikni o'z e'tiqodlariga bo'ysundirgan bo'lalar, Aleksandr Makedonskiy bu dinni butunlay yo'q qilish uchun unga oid kitoblarni yoqtirib yuborgan. Arablar Eron va Turonni bosib olishgach, mazdakizm ko'rinishidagi Zardo'shiylikka e'tiqod qiluvchilarni zo'rlik bilan islomga kiritadilar. O'z e'tiqodidan voz kechmaganlarni o'ldiradilar, quvg'in ostiga oladilar. Zardo'shiylikning bizgacha etib kelishida unga e'tiqod qilib kelayotgan Hindistondagi eronliklarning hissasi katta.

Biroq hukmdorlar Zardo'sht asos solgan g'oyalarni yo'q qilib yuborishga kuchlari etmadi. Uning olam, odamning yaratilishi, ikki dunyo haqidagi g'oyalari, jannat va do'zax, qiyomat-qoyim, oxiratda jonning tirilishi, gunoh va savob ishlar yozib borilishi, so'roq-savollar. «Chinvot» ko'prigi, jihad, erkin va ozod turmushga asoslangan barqaror tartibotlarni qaror topishi, yakka xudo bilan odamlar o'rtasidagi vositachi – payg'ambar to'g'risidagi fikrlar budda, xristian, islom dinlarida o'ziga xos ravishda xanuz yashab kelmoqda. Shuning uchun tadqiqotchilar jahon dinlarining vujudga kelishi va shakllanishida Zardo'sht asos solgan Zardo'shiylik dinining o'rni va rolini munosib baholaydilar.

Masalan, Zardo'shiylik dini bo'yicha katta va izchil tadqiqot olib borayotgan ingliz olimasi Meri Boys bunday deydi:

«Zardo'shiylikning ulug'vor va original ta'limotlari butun Yaqin Sharq hududida ta'sir etib, uning asosida iudaizm rivojlangan, xristianlik va islom paydo bo'lган». Shuningdek, buddizmning maxayana oqimi ham Zardo'shiylikdan oziqlangan. «Shuning uchun, - deydi u, - jahon dinlarining barcha jiddiy tadqiqotchilari Zardo'shiylikni o'rganadilar».

Agar Zardo'shtiylik qadimgi Movarounnahr va Baqtriyadagina emas, balki Araxoziya, Sakiston (hozirgi Afg'oniston va Shimoliy Hindiston), fore, Midiya, Parfiya, Assuriya, Vaviloniya, Lidiya va Kappodoniya (Kichik Osiyo), Gretsya, Suriya, falastin hududlariga ham tarqalganini hisobga olinsa, haqli ravishda uni jahonga tarqalgan birinchi din deyish mumkin.

Zardo'shtiylikning Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi, u jahon madaniy hayoti (tsivilizatsiyasi)ga ko'rsatgan zo'r ta'sirini inkor etish qiyin.

Bu din haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimizda avvalo ingliz D. J. Bulger, so'ngra frantsuz tadqiqotchilari A. Dyupliz va A. Dyuperondan minnatdor bo'lishimiz lozim. 1755 yilda Dyuperon Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdag'i Zardo'shtiy (mazdakiy)lar orasida uch yil yashadi, ularning ibodatlari, urf-odatlari bilan yaqindan tanishdi va «Ovesto» ni frantsuz tiliga tarjima qildi.

Hozir «Ovesto»ning to'rtdan bir qismining eng nodir nusxasi Bombaydagi Kama Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. U 1915 yilda ko'chirilgan bo'lib, 672 betdan iborat. «Ovesto» ning qarbiy Evropa, Eron va hind tillari orqali bizga ma'lum bo'lgani uchun undagi nomlar va terminlar, aftidan asliga to'g'ri kelmaydi. Ko'pgina osori atiqalar, ismlar, joylarning nomlari hindcha tusda yoki hindi – evropa tillariga xos shakl olgan. Undagi turkona jihatlar kam qolgan.

Har bir sohada birinchi ish, birinchi qadam, birinchi kashfiyot bag'oyat qadirlanib, insoniyat bu qadamini boshlab bergan kishilarni minnatdorchilik tuyg'ulari bilan doimo eslab turishni o'z burchi hisoblagan. Shu ma'noda jahon dirlari keyingi 2,5-1,5 ming yil davomida takomillashgan, ularning marosimlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari nechoglik xilma-xil tus olgan bo'lmasin, ular baribir Zardo'sht asos solgan yakka xudochilik e'tiqodlarining vorisi hisoblanishi kerak. Ulug' vatandoshimiz Zardo'sht Sepitomaning tarixida, madaniy taraqqiyotda o'ynagan buyuk rolini tiklash orqali o'z milliy qadriyatlarimizni ham tiklagan bo'lamiz.

Zardo'shtiylikning asosida qadimgi Eron xalqlari orasida tarqalgan mazdakiylik e'tiqodi ham Avesto, ayniqsa uning kichik qismidagi ta'llimotga tayanadi.

Manixeylik - eramizning III asrida Eronda shakllanib, tezda Italiyadan Xitoygacha bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda tarqaldi.

Uning asoschisi deb yarim afsonaviy shaxs Manini aytadilar. Manixeylik Zardo'shtlik bilan xristianlikning hamkorligidan paydo bo'lgan e'tiqoddir. Uning asosini zo'rdo'shtiylikdagi ikki qarama-qarshi kuch – nur va zulmat, ezgulik va yovuzlikning kurashi haqidagi ta'limot tashkil etadi Manixeylik xristianlikdan messianlik g'oyasini o'zlashtirib olgan, shu sababli Mani osmon elchisi hisoblanadi. Ammo xristianlik keyincha uni shakkok e'tiqod deb e'lon qildi.

Fan ham doim o'zgarib va rivojlanib borar ekan, unda hali echilmagan yangi-yangi jumboqlar, muammolar yuzaga kelib turadi. Fanning rivojlanishi yo'li ham shundan iboratki, tabiat va jamiyat haqidagi bilmlar tobora boyib boradi, kuzatilayotgan hodisalarning mohiyatiga yanada chuqur kirib boraveradi. Odamzod aqli tabiatda ko'p ajoyib-g'aroyib narsalarni kashf etgan, shu bilan tabiat sirlarini o'rganib boradi.

O'zbekiston, uning turli mintaqalari, shu jumladan islom an'anaviy keng yoyilgan Markaziy Osiyo mintaqalarida dinning evolyutsiyasi va saqlanish sabablarini bilib olish ,ayniqsa, talabalar uchun muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekistonda dinga ishonuvchilar ongi va psixologiyasida, dinning ta'siri saqlanib qolayotganligini aniqlashda an'anaviy yo'llar bilan yondashish endi eskirib qoldi. Bu sabablarni endi faqat dindorlar faoliyatiga, tarixiy inertsiya kuchiga, daxriylikni tarbiyalash ishidagi kamchiliklar va burjua-klerikal targ'ibot ta'sirlarigagina bog'liq qilib qo'yish to'g'ri emas. Diniy dunyoqarash va mafkurani bular bilangina bog'liq qilib qo'yib bo'lmaydi. Bu murakkab psixologik va ijtimoiy-psixologik hodisalardir. Dinga e'tiqod qilishni ilmiy tahlil etish, dindorlarning xatti - harakatlarini bevosita kuzatish shundan dalolat beradiki, biz dinning ijtimoiy-psixologik ildizlarini, hozirgi dinga ishonuvchilarning diniy psixologiyasining xususiyatlarini, hozirgi dindorlikning ko'rinishlarini chuqurroq o'rganishimiz lozim.

Tayanch so'zlar:

Ibtidoiy din, politeistik, totemizm, fetishizm, animizm, magiya.

Nazorat savollari:

1. Ibtidoiy dinlar qanday sharoitda vujudga kelgan?
2. Ibtidoiy dinlarning qanday shakllari bo'lgan?
3. Poleteistik dinlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

MILLIY DINLAR

Milliy dinlarning kelib chiqishi. Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanish tarixining murakkab va o'ziga xos tomonlari mavjuddir. Bu vaziyat ularning diniy turmushlarida ham o'z aksini topdi. Bu tarixiy jarayonning mazmunini dinning qadimgi shakllari va unsurlari, shuningdek, Zardo'shtiylik, monixeylik, buddizm, xristianlik, yahudiylik va islomdan tashkil topgan dinlarning tarixi tashkil qiladi. qayd qilingan bu dinlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida oldinma-keyin o'rinni olgan.

Bu hudud xalqlarining dastlabki manzilgohlari Farg'ona vodiysi tosh davrida - eramizgacha bo'lган 1 mln. - 500 minginchi yillarda vujudga kela boshlagan. quyi paleolit davridayoq (eramizgacha bo'lган 10 ming yillar) bu erlarda (Toshkent, Sherobod va boshqa erlar) ma'naviy madaniyatni shakllanayotganligini ifoda etuvchi qoyalarga o'yib tasvirlangan rasmlar, haykaltaroshlik paydo bo'la boshlaydi. Inson, o'simlik va hayvonlarning ramziy ifodalarini xayoliy tarzda o'zaro biriktirgan, uyg'unlashtirgan bu badiiy asarlar voqealikning inson tomonidan haqiqiy va xayoliy o'zlashtirishlarni o'zida ifoda etish bilan birga diniy qarashlarning vujudga kela boshlaganligini ham bildiradi. Keyinchalik neolit davrida «muqaddas» hayvonlarga, ona-xudoga bagishlangan haykallar, toat-ibodatlar, diniy marosimlar bilan bog'liq buyumlar paydo bo'la boshlaydi.

Sinkretizm faqatgina inson tomonidan voqealikning haqiqiy va xayoliy tarzda o'zlashtirilganlikning murakkab ko'rinishida o'zaro uyg'unlashganini, birikkanligini ifoda etmaydi. Shuningdek, sinkretizm qadimgi odamlarning tafakkurini ham uzluklilik va uzlusizlik tabiatini, uni aniq buyum va narsalar orqali ifoda etilishini ham bildiradi. Ushbu nuqtai nazardan yondoshilganda fetishizm - ayrim narsa va buyumlarda g'ayritabiy hislatlar, sifatlar bor deb bilish diniy tasavvurlarning eng qadimgi shakli bo'lishi mumkin degan fikrga boramiz.

Markaziy Osiyoliklar, jumladan o'zbeklar ham ilmlar xaritasida xitoy, Hindiston, Gretsiya, Eron, Arabiston, Evropa xalqlari orasidan doimo ergashib yuradigan xalq bo'limganligi, ular mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi jahon afkor ommasiga ayon bo'lib, qoladi.

Bizning kunlarimizda eng kichik xalqlar, elatlar ham jahon hamjamiyatlari orasida o'z o'rinalarini topishi uchun o'tmishlarni ilmiy asosda tiklashga intilmoqdalar. Ba'zi ko'p sonli va qudratli millatlar esa boshqa xalqlar madaniyati va qadriyatlarini o'zlariniki qilib ko'rsatishgacha borib etmoqdalar va ko'pincha bunga muvaffaq bo'lmoqdalar. Ammo turkiy xalqlarning bu kabi ishlar bilan shug'ullanishlari uchun hojat yo'q. Ular tarixning ichkarisiga kirib borishdan qaytmasalar va bosqinchi - kelgindilar qadriyatlari doirasidan chiqib olishga aqlari etib qolsa bas, boy va iboratomuz tarix tiklanadiki, shunda o'zbekning ham ko'zi ochilib, istiqlol sari intilishda qudratli kuchga ega bo'lib qoladi, bu esa uning millat sifatida o'z milliy man faatlarini to'la-to'kis anglashi, natijasida viloyatparastlik, urug'parastlik illatlaridan holi bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi.

Yahudiylilik (Iudaizm). Milodiy yil hisobining birinchi asrlaridan boshlab Markaziy Osiyo shaharlari Samarqand, Buxoroda o'zlarining milliy dirlari bo'lgan iudaizmga e'tiqod qiluvchi yahudiylar paydo bo'la boshladilar. Iudaizm milliy din sifatida miloddan oldingi ikkinchi ming yillikning oxirlarida vujudga kelgan. Qadimgi yahudiylar va Arabiston yarim orolida yashagan qadimgi arablarning diniy qarashlari, shuningdek, shumerliklar, bobilliklar, finikiyaliklar, misrliklar va Old Osiyolik boshqa xalqlarning asotirlari, rivoyatlari iudaizmning diniy poydevorlari bo'lib xizmat qildi.

Iudaizmning asosiy aqidalari orasidagi eng muhimlari: monoteizm – yagona xudo bo'lmish Yaxvega e'tiqod: haloskorlik – xudo tomonidan yuboriladigan haloskorga ishonch, bu haloskor dunyoni qayta quradi va butun yahudiylarni falastindan Sinion (quddus yaqinidagi tepalik) atrofiga to'plashi va ularning dushmanlarini jazolash, shuningdek narigi dunyoga ishonch, oxiratda har kimning o'z qilmishiga yarasha ajrini topishi, jannat va do'zaxlarning mavjudligiga, dunyoning oxiri borligiga, muqaddas kitoblarning benuqsonligi kabilarga ishonishdir.

Ilohiyotchilar fikriga binoan, Bibliyaning birinchi besh kitobi bo'lmish Tavrot (aynan tarjimasi qonun, Musoning besh kitobi) yahudiylarga etkazish uchun Muso payg'ambarga xudo Yaxvening shaxsan o'zi Sinon tepaligida bergen emish. Bibliyaning boshqa qismlari esa (qadimgi ahdga taalluqlisi) xudoning bevosita pand-

nasixatlari ta'siri natijasida yahudiylarning boshqa turli payg' ambarlari tomonidan yozilgan emish. Biroq hamma dinlarning muqaddas kitoblari kabi Bibliya ham insoniyat tomonidan yaratilgandir.

Odatda iudaizm shartli ravishda ikki davrga: qadimiy (quldorlik davri); milodning II asrigacha bo'lgan bu davrda Bibliyaning qadimiy axd qismi yuzaga kelgan va XIX asrgacha davom etgan. o'rta asr, feodal (Ravvin – talmud, an'anaviy) davrlarga bo'linadi. Ana shu davrlarda diasporlarda (yun. Tarqoq, falastindan tashqaridagi yahidiy koloniyalaring nomi) Tavrotni talqin va qayta talqin etish natijasida iudaizmning yangi bir muqaddas kitobi Talmud (qadimgi yahidiy tilda o'rganish) shakllangan, unda iudaizmning aqida va marosimlari batafsil yoritilgan.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida iudaizmda yangi bosqich – isloh qilingan iudaizm vujudga keladi. Bu davrlarda yangi burjua sharoitiga moslashish maqsadida aqidalarni yangilash va Talmudda belgilangan bir qator ma'lum yo'l – yo'riqlardan, ibodatlardan voz kechishlar ro'y berdi.

Hozirgi zamon iudaizmida isloh qilingan iudaizm bilan bir qatorda ortodoksal iduaizm ham mavjuddir. Ortodoksal iudaizm Isroilda alohida mavqega ega bo'lib, rasmiy davlat diniy hisoblanadi. Bunga XX asrda vujudga kelgan konservativ yo'nalishdagi iudaizm, uning ideologlari iudaizm va sionizm ittifoqining tarafdarlaridir, shuningdek bizning asrimizning 20 – 30 yillarida g'arbiy rekonstruktsionizm deb nom olgan, go'yoki shaxsiy milliy mansubligini belgilaydigan iudaizm «yahidiylar revolyutsiyasidir» deb e'lon qilingan yangi yo'nalishlar ham kiradi.

Markaziy Osiyoda yashayotgan yahidiy dindorlari orasida asosan ortodoksal shakldagi iudaizm mavjud va ular shartli ravishda etnik ko'rinishlar tartibga muvofiq to'rt xil: evropalik, Buxoro, Gruziya, tog'li yoki tat yahudiylarga bo'linadi.

Bu joylardagi yahudiylarning asosiy qismi, keyinchalik ular Buxoro yahidiylari nomini olgan, chamasi, sosoniylar davrida Marv va Eron orqali kirib kelgan bo'lsalar kerak. Bunga ularning qadimgi fors lahjalarining tojik shevasidan biri bo'lmish tili, shuningdek ayrim eroniy odatlari va hozirgi kungacha saqlanib qolgan xalqlarning madaniyatining birgina obidasi – yahudiylarni lug'ati 1327 yil Urganchda yozib

tugatilganligi bundan dalolat beradi. Buxoro yahudiylari o'zlarining etnik hislatlarini hammadan ko'proq aniq saqlab qolgan yahudiylardir. Bularga Bibliya iudaizmining asoslari oilaviy-maishiy tartibdagi patriarchal odatlar bo'l mish «halitso» –«to'rt tirsak», «ketuba», «kodash» o'n kishidan kam bo'l magan dindoshlar ishtiroqida vafot etgan ota-onaga bag'ishlangan xotira ibodatlari kiradi.

Ehtimol, ko'p asrlar mobaynida ular yo'qotgan asosiy narsa, faqatgina diniy ibodatlarda saqlanib qolgan va juda oz, tor darajadagi kishilar biladigan, qadimgi yahudiy tili bo'l sa kerak. Tat yahudiylari yoki ular ilgari aytilganidek Dog'iston, Shimoliy Kavkazda yashovchi «tog'lik yahudiylar» Eron laxjalari shevasidan biri bo'l gan tat tilida so'zlashganliklari uchun ham eroniy tilida so'zlashuvchi xalq hisoblanadi. Chamasi, ular V – VI asrlarda Derbentga ko'chib kelgan bo'lib, avval Zardo'shiylikni, keyin esa (VIII asrlardan boshlab) ikki asrlik hazar kog'onlarining hukmronlik davrida iudaizm ta'siriga o'tganlar.

Iudaizmnning markaziy diniy tashkiloti yo'q, Moskvadagi xoral sinagogi va Eshibatda (o'quv yurti) ruhoni y xodimlar: ravvinlar, kantorlar va boshqalar tayyorlanadi.

Jaynizm – atoqli ism Jinadan kelib chiqqan bo'lib, Hindistonda eradan avvalgi YI asrda paydo bo'lган. Rivoyatlarga ko'ra bu ta'limot 24 ta payg'ambar-ustozlar tomonidan yaratilgan va oxirgi payg'ambar Jina taxallusli Vardaxman Maxavira bo'lgan. Jaynizm tarafdorlari o'zlarining yarim mifologik payg'ambarlariga sig'inadilar. Bu din e'tiqodiga ko'ra jon mangu bo'lib, turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Inson joni hamma ishi uchun ma'suldir. Shu sababli inson sifatida itday yashagan odam keyingi hayotida it bo'lib tug'ilishi mumkin va h.k. Mangu farog'atga faqat ezgu ishlar bilan yashaganlar erishadi.

Daosizm – eramizdan avvalgi IY-III asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan falsafiy ta'limot. Daosizm tamoyillari muallifligi yarim mifologik Lao-tsziga nisbat berilgan «Dao de tszin» kitobida bayon qilingan.

Sintoizm – xudolar yo'li degani bo'lib, yaponlarning milliy an'anaviy dinidir.

Konfutsiychilik. Qadimgi Xitoy mutaffakiri Konfutsiy (Kuntszi) va uning izdoshlari asos solgan falsafiy-axloqiy ta'limot eramizning boshlarda diniy

ta'limotga aylangan. Uning asosiy manbai Konfutsiy izdoshlari tomonidan eramizgacha bo'lgan VI asrda yaratilgan «Suhbatlar va hukmlar» (Beseda i sujdeniya) asaridir. Konfutsiychilikning maqsadi xalqni mavjud tartiblarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, jamiyatda osmondan tushirilgan «jen» qonuni mavjud. Bu qonuni o'zlashtirish uchun kishilar jamiyat mezonlari, axloqi, an'analari – «li»ga amal qilishlari zarur. Konfutsiy ta'limotining dinga aylanishi munosabati bilan uning o'zi ham ilohiyashtirilgan. Uning ta'limotining asosini ezgulik, insonparvarlik g'oyalari tashkil qilgani uchun konfutsiychilik hanuz yashab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, milliy dinlar asoslari eradan avvalgi davrlarda paydo bo'lib, ular keyinchalik jahon dinlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Tayanch so'zlar:

Milliy din, davlat dini, hinduizm, jaynizm, konfutsiychilik, daosizm, iudaizm, sintoizm.

Nazorat savollari:

1. Milliy-davlat dini deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy-davlat dinlari qanday sharoitda vujudga kelgan?
3. Milliy-davlat dinlarining qanday shakllarini bilasiz?

JAHON DINLARI: BUDDAVIYLIK

Jahon dinlarining milliy dinlardan asosiy farqi. Din tarixida muhim davr jahon dinlarining paydo bo'lishidir. Milliy dinlardan farqli o'laroq ular millatlararo xususiyatga ega bo'lib qoldilar. Buddaviylik ana shunday dinlardandir.

Buddaviylik. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddizm muayyan o'rinni egallaydi. U Zardo'shtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma – yon shakllangan dinlardan biri bo'lgan buddizm miloddan avvalgi VI –V asrlarda Hindistonning shimolida vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik Janubi – Sharqiy va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqaldi. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ruy bergen muhim o'zgarishlar – urug'-qabilachilik aloqalari va tartiblarining emirilishi, sinfiy jamiyatlarning vujudga kelishi va yirik quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi.

III asrga kelib dunyoviy jamiyat (imperator Ashona)ning faol qo'llab – quvvatlashi natijasida mulk darjasini yagona bo'lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi – singxa) va diniy aqidachilik shakllangan.

Buddizmning ta'lim berishicha, har qanday borliq, (moddiyunlik) barcha ko'rinish va shakllardagi har qanday hayot – barcha mavjudotlarga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi – insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga qayta tug'ilishi dunyosi (sansara)ga bog'langanligi, ko'ngil qo'yganligidir.

Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyat, ehtiros va istak, azob-uqubatni chuqurlashtiradi. «Borliq girdobidan»dan olish uchun g'aflatlardan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin.

Ilk buddizmga bunday najotga faqat zohid yoki monaxgina umid qilishi, buning uchun esa u monaxlarga mo'l-ko'l xayr-sadaqa berish hamda 5 axloqiy talab (pancha-shila)ga amal qilishi kerak. Bu axloqiy talabga ko'ra, har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'irlik qilishdan, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyish lozim edi.

Buddizm ichida ko'plab sekta va yo'nalishlarning kurashi doimo sodir bo'lib kelgan. Xinayana buddizmning eng qadimgi shakllaridan biri hisoblanadi. Undan keyinroq, asosan Hindistondan tashqarida tarqalgan shakli-maxayanadir.

Buddizmning Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrda bu erlardagi qabilalarning avlodlari tomonidan tugatilgan grek-baqtriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I – III asrida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podsholigi davrida buddizm Hindistonda Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqda tarqalgan.

Keyingi o'n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarini umumlashtirgan holda taxmin qilish mumkinki, islomgacha bo'lган davrda buddizm Markaziy Osiyoda g'oyaviy turmushning muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddizm faqatgina maxsus ibodatxonalargagina emas, shuningdek podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag'al va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan deydi. Buddizmni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqlari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshoatlar ko'rdilar.

Buddizm bilan bog'liq obidalar ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o'rinnegallaydi. Buddizm bilan bog'liq imoratlar, kuriishlar hozirda ham Shimoliy Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida, Tojikistonda va qozog'iston janubida ma'lumdir. Bular orasida eng yirik inshoat eski termizdag'i Qoratepa nomli g'or ibodatxonasıdir.

Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo'lib, unga qumtoshli g'or binolar o'yib solingan va er ustida binolar barpo etilgan, bularning hammasi bir butun uyg'un bo'lган buddanining 20-25 ibodatxonalarini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddizmning muhim ahamyatga egaligidan dalolat beradi.

Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat – ibodat buyumlarini, tangalarga sovg'a qilingan sopol idishlarga bosilgan har xil yozuvlarni o'rganishlar qora tapaning melodning I asr oxiri va II asrning boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar bosqinchiligidan keyin tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylangan.

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy – maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari maxayana (shimoliy) ko'rinishidagi buddizm ta'sirida shakllangandir.

Tayanch tushunchalar:

Jahon dini, buddizm, xinoyana, maxayana, lamaizm, xristianlik, injil, tripitaka, katolitsizm, pravoslavie.

Nazorat savollari:

1. Jahon dini deganda nimani tushunasiz?
2. Buddizm dinining mohiyati va asosiy g'oyalari va yo'nalishlarini aytинг?
3. Buddizmning Markaziy Osiyodagi tarixi.

XRISTIANLIK

Xristian dinining paydo bo'lishi va tarqalishi. Jahon dinlaridan biri bo'lgan xristianlik I asrda Rim imperiyasining sharqiy provintsiyalarida shafqatsizlikdan najot istagan ezilgan omma dini sifatida paydo bo'ldi. XX asrlarga kelib, Rim imperiyasining davlat diniga aylandi. XI asrning oxirida xristianlikning Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi.

Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayok Talos (Merke) da cherkovlari kurilgan bo'lib, Samarqandda (301 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida episkoplik, kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), hirotda (558 yillar) 6–12 episkoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. xurosonliklar va sug'diyonaliklar buddistlar, zardo'shtiyalar, moniyalar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lishgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram erlarda ta'qib qilinganlar.

Markaziy Osiyo territoriyasida islomning tarqalish davrlarida islom bilan xristianlik o'rtaqidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973 – 1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo'lgan.

Ana shu davrlarda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshladi. Armaniston (301 yil) va Gruziyada (318 yili) davlat diniga aylandi. Kavkaz Albaniyasi territoriyasida esa (hozirgi Ozarbayjon va Janubiy Dog'iston territoriyasi) IV – VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

O'sha davrdagi ko'pdan – ko'p va bir - biriga qarshi kurashayotgan dinlar orasidagi Sharqning hukmronlari tomonidan eng ko'p homiylik ko'rsatilgan din xristianlikning sharqiy yo'nalishi bo'l mish nestorianlik bo'lgan. Halif saroylarida nestorianlik patriarchlariga butun sharq xristianligining homysi sifatida qaralgan, patriarchning qarorgohi esa Konstantinopol(Istambul) dan Bag'dodga ko'chirilgan.

Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, Amurgacha bo'lgan Shimoliy va G'arbiy Xitoyda targ'ibot qilganlar. Nestorianlikning Markaziy Osiyodagi tayanchi va islomga qarshi kurashidagi markazi, 1257 yildan so'nggina o'z faoliyatini tuxtatgan Samarqand mitropoliyasi bo'lgan. Xristianlik muxlislari soni jihatdan eng ko'p tarqalgan (1 milliard 400 million) bo'lib, u bir qancha mustaqil cherkovlarga, sektalarga, yo'naliish va oqimlarga bo'linadi: ularning ichida provaslavie, katolitsizm va protestantizm kabi yirik yo'naliishlar bor.

Xristianlik falastin va o'rta Er dengizi yahudiylari dinlari ichida vujudga keldi, o'nlab yillardan keyin esa boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqaldi. Yangi va eng yangi davrlarda u mustamlakachilik siyosati missionerlik natijasida Evropadan tashqarida ham tarqaldi.

Xristianlik vujudga kelishining sabablari tanazulga uchragan Rim quidorlik jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy hayot sharoitlari, quidorlik ishlab chiqarish usulining inqirozi, quidorlik tartibining parchalanishlari va g'oyaviy munosabatlarida respublikachilik demokratik qoidalarining yo'q bo'la borishi, yakka xoqimlik va mutlok hokimiyatchiliklarining mustahkamlanishi kabi vaziyatlari bilan bog'liqdir. Frantsuz tarixchisi N. Enshlennning: «xristianlik g'alaba qildi, chunki Spartak mag'lubiyatga uchradi» - degan mashhur iborasi bor.

Ekspluatatsiya va huquqsizlik, umumiy tartibsizlik va xarobaliklar, ochlik, kasallik, urushlar natijasida umidsizlikka tushgan va qiyin ahvoldan qutilish umidi bilan bog'liq bo'lgan, o'zlarining nigohlarini mistikaga, sehrgarlik, duixonlik, azayimxonlik, shuningdek ma'naviy huzur – halovat, ma'naviy taskinga juda muhtoj bo'lgan kishilarning holatlarini juda aniqlik bilan o'zida ifoda etgan xristianlik ham islom kabi iudaizm bag'rida etilgan.

Mutloq, abadiy, o'zgarmas marhamatni, bilimni, benihoyat qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani o'zlashtirgan, lekin ulardan (islom va iudaizmdan) farqi shundaki, uch ko'rinishlarga yakka xudoni o'zida mujjasamlashtirganlik aqidasini yaratdi.

Uch ko'inishdagi xudo haqidagi ma'lumotga binoan, xudoning ichki hayoti sababi o'z-o'zidan mavjud bo'lgan uchlikdagi uch asos yoki «muqaddas uchlik» bo'lgan ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruhning o'zaro munosabatidir. O'g'il Iso bayon qilinishi tarjimai holiga kura ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratiladi (provaslav yo'nalishi ta'limoti), (katolitsizmda esa ota-xudo va o'g'il-xudo ham xudodan tug'iladi).

Xudoning mujjasamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati – odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, «Gunohni yuvish» ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustahkamlanadi. Xristianlik muqaddas ruh ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruh uch yuzli xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'ibot tashkilotchilik, jannat va duzox, oxiratda, go'yo dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristianlikdagi yo'nalishlar. Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ruy berdi, ya'ni Isoi Masih mohiyatini talqin qilishda farqlanadigan ikkta diniy-aqidaviy yo'nalishlar: monofizilar va nestorianlar bir-birlaridan ajralishdi.

Ko'pchilik xristianlar Isoi Masihning ham xudo, ham odam tabiatiga ega deb bilsa, Konstantinopol arximandratı Evtaxiya ta'limotining tarafdarları bo'lgan monofizilar u faqatgina xudo mohiyatining borligidan iborat dedilar. Konstantinopol patriarxi Nestor qarashlari tarafdori bo'lgan nestorianlar esa u xudo insonlar hayoti kabi yashashi uchun vujudga kelgan odamdir, deb targ'ib qildilar.

Efes soborida (431 yil) nestoranchilikka bid'at deb qaralib, uning tarafdarlarini taqib qilish boshlandi. Natijada nestorianlarning Sharqqa kirib, ommaviy harakatlar boshlashlariga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda monofizitchilikka Yaqin Sharqdagi yakobitchilar, Janubiy Hindiston va Efiopiya xristian aholisining 96 foizi amal qiladi.

471 - yildan yuqorida kayd etilgan cherkovlar qadimgi Sharq cherkovlari deb atala boshlandi. Nestorianlar eng avval, Ossuriylar orasida tarqaldi, bular diniy jamoasi hozirda ham Suriyada, Iroqda, Eronda, Hindistonda bor.

1054 yilga kelganda xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo'linishi rasman tan olgan. Bu bo'linish Rim imperiyasining sharqiy va g'arbiy qismlari

orasidagi feodal munosabatlarining tafovutlarini o'zida ifoda etdi va Rim papasi bilan Konstantinopol patriarxi o'rtasidagi jami xristian cherkovlari ustidan yakka hokimlik uchun shiddatli kurashlar bilan bog'liq bo'ldi. Xristianlikning alohida va mustaqil bir_necha Evropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga keldi. Buning doirasida lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik va Kalvinizm cherkovlari shakllanadi. Bu har bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lган tomonlariga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bular ham o'z navbatida bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

Hozirgi xristianlikda turli yo'nalish va oqimlar orasidagi kelishmovchiliklarning kamayishi bugungi kun uchun xosdir. Bunga 1948 - yilda tashkil topgan Jahon Cherkovlari Kengashining faoliyatları va ekumenik xristianlar ko'maklashmoqda.

Xristianlikdagi yana bir yo'nalish – protestantlik bo'lib, katolitsizm va pravoslaviedan farqli o'laroq, diniy qarashlar jihatidan ham bir xil bo'lмаган yo'nalishlarni, faqatgina kelib chiqish jihatidan bir – birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog'liq bo'lган ko'pgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablarni yuzaga keltirdi. Protestantizm umumxristianlik asoslari va qarashlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunohdan halos bo'lishning yangi asoslarini ilgari surdi. Isoi Masihning kishilar gunohini yuvishga qaratilgan o'zini – o'zi qurbon qilishga ishonch, dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoni bo'lishi mumkinligiga ishonch, Bibliyaning oliy nufo'ziga ishonch orqali halos bo'lish ana shular jumlasiga kiradi.

Shunday qilib, protestanlik xudojuylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib utdi va uni ixtiyoriy diniy ishonch bilan bogladi. Protestantchilik Bibliyaga sig'inishning o'ziga xos shaklini qaror toptirdi, bu bilan protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, yuksak orzularini qayta tiklash, uni keyingi davr cherkovlari tomonidan «buzilishlardan» xalos qilishga intildilar.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiliginи bekor qildi (faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirishlar saqlanib qoldi). O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, aziz avliyolarga sig'inish, ular sharafiga turli-tuman

bayramlar o'tkazish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblar, sanamlar, haykallardan holi qilindi, monastirlar va monaxlikdan ham voz kechildi, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilindi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojuyning eng muhim burchi bo'lib qoldi.

Lyuteranlik, anabaptizm, anglikanchilik, kalvinizm, tsvingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Ibodat uylarini jihozlashda xristianlikning ramziy belgilari ishlatilmaydi, ibodatlarning o'zi Bibliyani o'qishlar va sharhlashdan iborat bo'lib, targ'ibotlar va ashula aytishlar bilan qo'shib olib boriladi. Faqatgina Isoi Masih bilan bog'liq bayramlar tan olinadi, shuningdek, birlik kuni, o'rim-yig'im kuni va boshqalar bor. Faqatgina balog'atga etgan holdagi chukintirishlar tan olish bilan birga, baptimizm dindorlaridan Isoi Masihning haloskorlik yo'lidagi o'z-o'zini qurbon qilishga samimiylar «aniq ishonch» talab qilinadi.

1944 yili sobiq SSSR dagi baptistlar jamoalari injilchi-xristianlar bilan birlashdilar. 1945-47 yillarda bu birlashma ittifoqiga pyatidesyatniklar jamoasi, 1963 yili esa menonitlar jamoalari ham qo'shildilar. Injilchi-xristian baptist jamoalari sobik SSSRda Injilchi-xristian baptistlar kengashi tomonidan boshqarilib turilardi. (Bu 1990 yilda injilchi-xristian baptistlarining ittifoki degan nom oldi). 60-yillarda injilchi-xristian baptislarga qarshi bo'lgan markaz tashkil topdi va injilchi-xristian baptistlar cherkovining kengashi degan nom oldi. Uzoq yillardan buyon bu markaz norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekistonda baptizm o'tgan asrlarning oxirlaridan beri mavjud bo'lib, ularning Toshkentdagi jamoalari, shu jumladan, «Ettinchi kun» adventistlari islochchi – adventist, pyatidesyatniklar, menonchilik, injilchi – xristian baptistlar kengashi, iegova shohidlari kabi protestantizm jamoalari ham mavjud. Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi protestantchilik birlashmalari yangi mustaqil jumhuriyatlarda demokratik o'zgarishlarga muvofiqlashishga intilyaptilar, islohot jarayonlarining rivojlanish to'lqinlarida tashviqot, targ'ibot ishlarini faollashtirmoqdalar, dindorlarning ijtimoiy jarayonlarida faol ishtiroklarining o'zlariga ma'qul bo'lgan shakllarini belgilamoqdalar.

Dinlar va dindorlar orasidagi o'zaro hamfikrlik va muloqotlar jamiyat taraqqiy etgan sari rivojlanib boradi. Dinlar orasidagi muloqotlar, hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan masalaga aylanmoqda.

Tayanch so'zlar:

Jahon dini, buddaviylik, xinoyana, maxayana, lamaizm, xristianlik, injil, tripitaka, pravoslavlар, katoliklar, protestantlar.

Nazorat savollari:

1. Jahon dini deganda nimani tushunasiz?
2. Xristianlik dinining mohiyati va asosiy g'oyalari va yo'nalishlarini ayting?
3. Hozirgi paytda xristianlikning tarqalishi.

ISLOM DINI

Islom dinining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Hozirgi davrda butun jahonda islom dini haqida g'oyat ko'p munozarali fikrlar bayon qilinmoqda. Shuning uchun bu mavzu doirasida islom dini shakllangan tarixiy shart –sharoit, uning rivoji, bunda Muhammad ibn Abdulohning ulkan xizmatlari, uning Markaziy Osiyo mintaqasiga tarqalishi, bu erdag'i tsivilazatsiya rivojiga, madaniyatiga ta'siri, uning hozirgi davrdagi mavqeい muammoli tarzda yoritib beriladi.

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, habashiston, G'arbiy Sudanda yashovchilarining bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, xitoy, hamda fillipin aholisining bir qismi, Evropa qismida esa Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlarning bir qismi islom diniga e'tiqod qiladi.

Aholisining ko'pchiligi mutloq musulmonlardan iborat bo'lgan 39 mamlakat, hatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etadigan ba'zilari ham (Misr, Malayziya 49) o'zlarini musulmon mamlakatlari deb ataydilar. Ularning ba'zilarida (Mavritaniya Eron, Pokiston, Kamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so'zi qo'shib aytildi. Rasmiy statistika buyicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi musulmonlardan iborat. 28 mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo, Kavkazorti va Shimoliy Kavkaz, Volgabuyi, G'arbiy Sibir va boshqa hududlarda yashovchi aholi orasida tarqalgan. Hozirda islomga e'tiqod qiluvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Ayniqsa, e'tiqod erkinligi haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtli matbuot sahifalarida, radioeshittirishlar va oynai jahon ko'rsatuvlariada din mavzuidagi chiqishlarning ko'payishi, maxsus gazeta va jurnallarning keng tarqalganligi islomga bo'lgan e'tiborini oshirib yubordi.

Islom jahondagi, ayniqsa, Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiy qiyofasida muhim iz qoldirdi. Bunga eng avvalo bu hududlarda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi, islom mafkurasi zamonida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukmronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari shariat tomonidan idora etilganligi imkon bergen. Shunga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo'qolmay, yangi islom yo'naliishida rivojlangan va u ko'pincha qadimiy musulmon an'analari sifatida qabul qilingan.

Musulmonlar madaniy merosi masalasi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun kurashi jarayonida asosiy masalaridan biriga aylandi va ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Xo'sh islom nima? Islom so'zining lug'aviy ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin: 1) ixlos, turli sifatlardan salomat bo'lish; 2) sulk va omonlik; 3) itoat va buysinish.

Islomning paydo bo'lishi tahlil etish tarixiy davrning xususiyatlari, arab qabilalari o'rtaida hukmrom bo'lган ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni va ularning diniy g'oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi.

Arabiston yarim oroli noqo'lay iqlim sharoitiga ega bo'lган qum sahrolardan va tog'lardan iborat bo'lib, uning aholisi V-VI asarlarida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanar edi.

Yarim orolning cheksiz sahrolarda yashavchi ko'chmanchi, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari - bundan ham ogir sharoitda yashar edilar. Ular taraqqiyot jihatidan ancha orqada qolgan, hali urug'chilik, qabilachilik tuzumida edilar. Yarim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qiryooqlari bo'y lab cho'zilgan va qadimdan hijoz deb nom olgan joylar bu davrlarda bir muncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib, bu rivojlanish qismi suvli vohalardagi dehqonchilik asosan janubdan shimolga o'tgan qadimiy karvon yo'li bilan bog'liq edi.

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlariga qaraganda, VI asir Yamandan Shimolga Suriya, Misr va falastinga olib berilgan karvon bo'lib faqat bu davrlarning o'zlariga emas, balki janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston, Shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eronning ham bir-biri bilan bog'laydigan o'z davri uchun yirik va

katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'li edi. Hijozdagi ayrim aholi yashaydigan manzillar, yo'l ustida joylashgan Makka, Madina, Toif shaharlari VI asrda ancha rivojlangan. Bular shuningdek ko'chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qilar edilar.

Makka diniy markaz va savdo markazi sifatida Arab qabilalari orasida e'tiborli edi. Makka markazida joylashgan Ka'ba islomda eng «muqaddas» hisoblangan va «Ollohnning uyi» (Bayto'lloh) sajdagoh hisoblangan. Undagi qora tosh (hajarl-asvod) va uch yuz oltmis sanam arab qabilalari uchun e'tiqod ma'nbaiga aylangan. Ziyoratga kelish oylari muqaddas hisoblanib, bu vaqtlar ichida qabilalar o'rtasidagi urush va janjallar to'xtatilar edi.

V-VI asirlarda Makkada Quraysh nomli arab qabilasi hukmron bo'lib, qurayshlarning yuqori tabaqalari savdo-sotiq bilan ancha boyib ketgan, bu erda pul muammolari, sudxurlik keng rivojlangan, shuningdek qul savdosi va qo'rollarning mehnatidan foydalanish ancha kengaygan edi. Bu davrlarda Yamanni qo'lga kiritish uchun Vizantiya va Eron o'rtaida kurash avj olgan edi.

Yaman sosoniyalar hukmronligi ostida o'tgan davrlarda (572-628) Eron ko'rfazi orqali Hindistonga boriladigan yo'li tez rivojlana boshladi va shu munosabat bilan Hijoz orqali o'tgan yo'l inkirozga uchraydi. Bu hol faqat Hijoz shaharlarigina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi va umuman Arabiston buyicha ijtimoiy-iqtisodiy tanazulning boshlanishiga sabab bo'ladi. Undan qutilish uchun yangicha g'oyalar kerak bo'lib qoladi.

Lekin bu g'oyani amalga oshirish uchun Arabiston shaharlari va qabilalari o'rtaida mavjud bo'lgan tarqoqlik va kelishmovchiliklarga xotima berib barcha arab qabilalarini bir davlatga birlashtirish, ularning tarqoq holda bo'lgan iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona kuchga aylantirish zarur edi.

Ijtimoiy hayot taqozosi natijasida vujudga kelgan arab qabilalari o'rtaidagi markazlashishga intilish harakatlari arablar jamiyatida IV asr oxiri va VII asr boshlarida yuz bergen jiddiy tarixiy voqealar asosida yoritadi. Bu intilishni o'zida aks ettirilgan mafkura sifatida islom dini vujudga keldi va markazlashtirilgan arab davlatining paydo bo'lishi, qo'shni mamlakatlarining bosib olinishi va arab

xalifaligining kengayishi jarayonida bu din kuchli g'oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi.

Muhammad – islom payg'ambari. Islom dinida payg'ambar hisoblangan Muhammad melodiy 570 yilda Makkada quraysh qabilasining xoshimiylar avlodidan bo'lgan. Abdulloh va Omina xonadonida tug'iladi. Muhammad yoshligida etim qolgan, avval bobosi Abu Mutualib, so'ng amakisi Abu Tolib qo'lida tarbiyalanadi. Balog'atga etgach, savdogarlar qo'lida xizmat qilib 24 yoshda beva boy ayol - Xadichaga uylangan va uning mablag'lari bilan mustaqil savdogorlik qila boshlab, juda ko'p davlatlarga borgan.

Muhammad 610 yilda 40 ga kirganda Makkada yakka xudoga e'tiqod qilish to'g'risida targ'ibot yurgizgan.

U targ'ibot boshlagan dastlabki yillarda, nisbatan juda oz kishi (Xadicha, Abu Bakir, Talxa, Zubayr, Usmon va qarindoshlari, ayrim savdogarlar) bu targ'ibot izidan borganlar. Shuning bilan birga, o'sha davrdagi qurayishlarning ummaviylari xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida badavlat zodagonlar uning targ'ibotiga jiddiy qarshilik ko'rsata boshlagan. Makkada ahvol jiddiylashganini ko'rib Muhammad Madinadagi Auz va Xazrej nomli vakillari bilan Madinaga ko'chib ketgan.

622 yili yuz bergen bu ko'chish (arabcha «hijra») dan musulmonlarning hijriy yili hisobi boshlanadi. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «muhojirlar» (ko'chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa «ansorlar» (yordamchilar) deb nom olgan.

Muhammad Madinaga kelgach o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi va islomni targ'ib qilishni davom ettiradi.

Nihoyat makkaliklar bilan madinaliklar o'rtasida bir xil janglar bo'lgan. Ulardan biri Badr qudug'i yonida hijriy yilining ramazon oyida (17 yoki 19 kun) bo'ladi. Ikkinci jang 625 yil iyul-avgust oylarida va 626 yili «xandoq» jangi nomini olgan to'qnashuvlar ham bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Muhammad g'alaba qozongandan keyin, Madinada o'z mavqeini mustahkamlab bu erda faol siyosat olib boradi.

628 yili musulmonlar jamoasi uchun muhim bo'lgan voqeа yuz berdi. Muhammad Kaba'ni muqaddas deb e'tirof etishni namoish qilish maqsadida 1500 ga yaqin musulmonlar bilan barcha qabilalar jangga boradigan mavsumda Makkaga jo'naydi. Bundan xavotirlangan rahbarlari Abu So'fiyon bilan birga Makkadan 30 km.cha narida bo'lgan Xudoybiya vodiysida uni to'xtatadilar. Muzokaralar boshlanib, o'rtada «shartnoma», «xudoybiya sulhi» tuziladi, qasam aytildi, qasam «bayha» deb ataladi. Bitimlarga muvofiq Makkaliklar madinaliklarga kelasi yildan boshlab hajga kelishga ijozat berishadi.

630 yili Madina qo'shinlari Makkani qarshiliksiz egallaydilar. Ummaviylar bilan raqobat tugab, ular Muhammadning yaqin yordamchisiga aylanadilar. Islom Arabiston yarim orolining asosiy hukmron diniga aylanadi. Shunday qilib Muhammad Islom bayrogi osti arab qabilalarini birlashtirib, yagona markazlashgan mamlakatni tashkil etadi.

Muhammad 632 yili iyun oyida 62 yoshda Madinada vafot etadi. Bu davrga kelib anchagina mustahkamlashgan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat Yamandan Sino yarim oroliga, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrolarigacha cho'zilgan katta hududni o'z ichiga olgan edi.

Muhammad vafotidan keyin xalifalar (yordamchilar) davlatni boshqaradilar, va shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixida «Arab halifaligi» deb nom oladi. Muhammad vafot etgandan keyin birinchi kundanok musulmonlar jamoasining yo'l boshlovchilari o'rtasida hokimiyatt uchun kurash boshlanadi. Bu kurashda muhtojirlar guruhi golib chiqadi va Muhammadning qaynatasi, Oyshaning otasi Abu Bakr xalifadeb e'lon qilinadi.

Abu Bakr hukmronligining (632 - 634) dastlabki yillarida bir qator arab qabilalari o'rtasida Madina hukmronligiga qarshi bosh ko'targan qabilalar harakati «Islomdan chiqish», «dindan qaytish» deb ta'riflangan.

Dindan qaytgan kishilar qattiq ta'qib qilingan. XalifaUmar (634 - 644) zamonida istilolar yanada kuchaygan. 634 yili Basra, 633 yili Damshq, 640 yili Quddus olinadi va falastin, Suriya erlari to'la ravishda xalifalik qo'liga o'tadi.

Yana shunga ahamiyat berish kerakki, keyingi xalifalar Usmon (644 - 656) va Ali (656 - 661) zamonlarida ham istilolar davom etadi. Kavkaz va Turon tomonga yurishlar kuchayadi. Qisqa vaqt ichida Gruziya, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xuroson, Mavr erlari arablar qo'l ostiga o'tadi va xalifalik qo'shinlari Amudaryo sohillariga chiqadi. Shunday qilib 30 yildan ozroq vaqt ichida arab xalifaligi o'sha zamonlardagi eng katta imperiya bo'lgan Vizantiyaga nisbatan ham katta hududni bosib oladi, sosoniyalar imperiyasi barham topadi.

Buning natijasida Amudaryo sohillaridan Shimoliy Afrikagacha Tibilisi va Darbanddan Yaman va Ummongacha cho'zilgan yangi imperiya vujudga keladi. Qisqa vaqt ichida arab qo'shinlarining bunday engil g'alaba qozonishining sababi nimada degan savol tug'ilishi tabiyidir. Arab qo'shinlarini yaxshi tashkil qilingan yoki yuqori harbiy texnikaga ega bo'lgan deb aytish to'g'ri bo'lmaydi, chunki bu kishilar badaviylar, ya'ni ko'chmanchilar va boshqa har xil qabilalardan tuzilgan bo'lib, o'z zamonida ma'lum bo'lgan harbiy san'at va texnika darajasidan ham ancha orqada turar edi. Osonlik bilan erishilgan g'alabalarning asosiy sababi bu davrda arab qo'shinlariga jiddiy qarshilik ko'rsatadigan kuchning yo'qligi edi.

Islomning asosiy oqimlari. Sunnalar. Islomning keng tarqalgan oqimlaridan bo'lib, Osiyo va Afrika qit'alarida yashashadi. Sunna YII asring ikkinchi yarmida Arabistonda paydo bo'lib, VII – XII asrlarda diniy- siyosiy kurashlardan so'ng xalifalikning etakchi e'tiqodiga aylandi. Sunniylar Qur'oni Karim bilan bir qatorda Sunnalarning ham muqaddasligini tan olishadi. Sunnaning xanafiylik, malikiylik, shafiylik va xanbaliylik kabi to'rt mazhabi bor. Ular o'z nomini asoschilari ismidan olishgan. Mamlakatimizdagi musulmonlarning asosiy qismi xanafiyardir. Shimoliy Kavkazda shafiylar yashashadi.

Shiyalar. Islomning yana bir oqimi Shiyalardir. Shiyalar arabcha guruh, partiya ma'nosini anglatadi. Shiitlar Qur'oni Karimning ilohiyligini e'tirof etgan holda, uning oyatlarini Aliga nozil bo'lgan deb bilishadi. Shiyalarning imomiylar mazhabi 11 imom bor deyishadi. o'n ikkinchi imom Muhammad al Mahdi IX asr oxirlarida g'oyib bo'lgan, ammo u albatta bir kuni qaytadi va er yuzida adolat tantana qiladi. Shiitlar Eron, Iraq, Pokiston kabi mamlakatlarda yashashadi.

O'zbekiston musulmonlарining asosiy qismi sunniylar mazhabidan bo'lsada, mamlakatimizda shiitlar mazhabiga ixlos qo'yganlar ham bor.

Hozirgi paytda diniy ekstremistik oqimlar sunniylar va shiitlar o'rtasida ham ixtilof chiqarib, o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qilish hollari uchrab turibdi.

Tayanch so'zlar:

Islom, iymon, e'tiqod, musulmon, Makka, Muhammad, hijrat.

Nazorat savollari:

1. Islom dini qachon va qanday sharoitlarda vujudga kelgan?
2. Islom dinida qanday asosiy oqimlar va mazhablar bor?
3. Islom o'rta Osiyoga qachon tarqaldi va buning ahamiyati?

ISLOM DINI MANBALARI: QUR’ON VA HADIS

Muqaddas Qur’oni karim va uning islom dinidagi o’rni. Har qanday e’tiqod va uning ta’limoti ma’lum bir manbalarga tayanadi.

Biz avvalgi mavzuda islom dinining paydo bo’lishidagi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy shart-sharoitlar to’g’risida hamda bu dinnig shakllanishi, joriy etilishida tarixiy shaxs Muhammad ibn Abdulohning xizmatlari, tarixdagi o’rni haqida qisman to’xtalgan edik.

Shu bilan birgalikda islom dinining jahon bo’ylab tarqalish sabablari uning mohiyati, bo’linib ketishi, mazhablari, jumladan: sunnalar va shialar haqida ham ma’lumotlarga ega bo’ldik.

Jahonda keng tarqalgan dinlarning barchasida ham ilohiy so’zlardan iborat deb muqaddaslashtirilgan kitoblar borligini o’tgan darslarimizda aytdik va ko’rib chikdik. Jumladan, xristian dinida «Bibliya», uning tuzumiga kiradigan afsonaviy payg’ambar Iso Masihning hayoti va targ’ibotlaridan iborat deb hisoblanadigan injillar, yahudiy dinida «Bibliya»ning qadimiy axd qismi, xususan uning tizimiga kiradigan xudo Yaxva tomonidan afsonaviy Muso payg’ambarga vahiy qilingan deb hisoblanadigan «Tavrot» hamda uning sharhlari to’plami-«Talmud» buddizm dinida xudo Buddanining ko’rsatmalaridan iborat deb hisoblanadigan «Tripitaka», hinduizm dinida qadimiy brahman dinidan boshlab muqaddas hisoblangan «Vedalar» va ularni sharhlovchi asarlar uppanishadlar ana shunday muqaddaslashtirilgan bebahो yozuvlar to’plamidan hisoblanadi.

Islom dinida asosiy diniy kitob hisoblangan «Muqaddas Qur’oni Karim» ham ilohiy so’zlardan iborat deb muqaddaslashtirilgan, uning mazmuni esa osmondan xudo tomonidan yuborilgan ko’rsatmalardan iborat deb ishonish musilmonlar oldiga qo’yilgan asosiy e’tiqod talablaridan biri sifatida ilgari suriladi va shunday ham.

«Qur’on» so’zi arabcha «qara’a»-o’qimoq bo’lib (ya’ni qiroat bilan ovoz chiqarib), «o’quv» yoki «o’qish» mazmunini beradi. Shunisi xarkterlik, ko’p dinlarda ular vujudga kelgan davr tushunchasiga xos ravishda muqaddas kitoblarni «Yozuv» yoki «Yozuvlar» (masalan: xristian dinida «pisanie yoki «svyashennoe

pisanie») deb atash odat bo’lgan. Bunga o’xhash nomlar islomda ham Qur’onga nisbatan keng qo’llanilgan. Masalan: (Kalomul-Oolloh so’z) «Kalomu ash-sharif» (Muqaddas-so’z), «Musxaf ash-sharif» (Muqaddas yozuv) bu erda mushaf yozuvi ma’nosida va x.k. Shuningdek musulmonlar orasida va diniy adabiyotlarda Qur’on muqaddas kitob sifatida ko’p nomlar bilan atalgan.

Qur’on oyatlarining o’zida ham «Ol-Imron» (3-sura, 2 oyat, 25-sura, 1-oyatda furqon va boshqalar). «Al-kitob» (2-sura, 1-oyat, 6-sura (114 bet) 92-oyat va x.k.) «xudo» (2-sura, 181-betlar, 1. Qur’oni Karim. «Cho’lpon» T. 1991y. 323 b.3-sura, 132-oyat) «Suhuf» (98-sura, 2-oyat) kabi nomlarni ham uchratamiz. (643 bet) Umuman, islom dini an’analarida turli xil nom va nomalar shaklida kelgan bo’lishiga qaramasdan uning eng qadimgi nomi «Qur’on», «o’quv» asosiy termin sifatida saqlanib qolgan. Buning sababi shuki, Qur’on matnlari og’zaki ijodning mahsuli bo’lib, u davrda arablar o’rtasida yozuv an’anasi deyarli bo’lmagan (chunki, Qur’ongacha yozilgan kitoblar bizgacha etib kelmagan). o’sha davr an’anasiga xos ravishda bu ijod namunalarini yod olib saqlash va og’izdan-og’izga ko’chib yurish odati bo’lgan.

Qur’on (tekstlari) matnlari katta kitob qilib to’plangandan keyin ham o’zining og’zaki ijodiga xos xususiyatlarini saqlab qolganligini bat afsil kuzatish mumkin.

Dunyodagi barcha islomshunos (dinshunos) buyuk olimlarning fikriga ko’ra, Qur’on jahon taraqqiyoti va madaniy merosiga buyuk hissasini qo’shib kelmoqda.

Qur’on va unga asoslangan islom madaniyati bugungi dunyo madaniyatining eng muhim qismini tashkil etadi.

Bu o’zga dinlar muqaddas kitoblari hamda falsafiy aqidalarini inkor etish degan so’z emas, albatta. Jumladan, Tavrot, Injil, Zabur ham Qur’ondan ilgari Olloh tomonidan yuborilgan kitoblar deb hisoblanadi. Ammo din nuqtai nazaridan islom o’zidan oldingi dinlardan farq qilib, o’zga dinlardan so’ng vujudga kelgan «oxirgi» din bo’lganligi uchun uning oldingilariga nisbatan ancha afzal jihatlari va «zamonaviy» tomonlari bo’lishligi tarixiy-taraqqiyot jihatdan tabiiy deb o’ylash joizdir.Bunga ko’p misollar keltirish mumkin. Sog’lom falsafiy nuqtai nazardan: Olloh oliy mavjud, yagona va makonu zamonda cheksizdir. Shu haqiqat Qur’onda ham ta’kidlanadi.

Mazkur vujudga oid «Ollohu kur-s-samoviy va-l-'arz» (Ollohu ko'klar va erdag'i nурdir» - Nur surasi, 35-oyat) degan oyatga ahamiyat berilsa, bu borliq haqidagi bugungi ilm. (Qur'oni Karim t-1991 319 bet). Ma'lumotga eng muvofik diniy hukmdir.

Qur'onning tabiiy ilmlar rivojiga turtki bo'lgani ham to'g'ri. Ya'ni, mavjudotning mohiyatiga oid holatlarni oladigan bo'lsak, Qur'onidagi: «Va min qo'lli shay'in halaqno zavjayn» (har bir narsani juft qilib yaratdik!)» Va-z-zoriyot surasi, 49-oyat) degan hukm ko'plab ilmiy kashfiyotlarga g'oyaviy asos bo'lgan.

Qur'onda o'tgan zinatlar haqidagi qissalar tarixi, jug'rofiya, ilmi falak, ilmi tabiat va boshqa sohalarga tegishli oyatlar uchraydi. Qur'on - hidoyat kitobi, ya'ni insonlarni lutf bilan to'g'ri yo'lga boshlovchi, to'g'ri yo'lga cheksiz undovchi ishoralardandir. Undagi tarix, tibbiyat, kimyo (ximiya) kabi boshqa fanlar haqidagi oyatlar ham inson aql-zakovatiga xitob bo'lib, uni hidoyatga chorlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek falsafa, adabiyot, tarix, jug'rofiya kabi ilmlar ham Qur'on bilan chambarchas bog'langanligini ko'p holatlarida kuzatamiz.

Bobokalonlarimiz Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalarning bizga qoldirib ketgan ilmiy meroslarida Qur'oni Karim etakchi o'rinni egallaydi. Ular) Qur'oni Karim oyatlaridan ,unga bog'liq ilmlardan keng miqyosda foydalanganlar. Shoirlarimiz Xoja Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Mashrab, So'fi Olloyorgacha, bu yoki inqilobgacha va hatto inqilob davrida o'tgan ko'plab qalam ahllari ijodida Qur'onning katta ta'siri borligini uchratamiz. Ularning barchasi o'z zamonasining ilg'or farzandlari bo'lganlar.

Umuman, Qur'on tavsiflarida musulmon ilohiyoti taraqqiyotidagi turli-tuman oqimlar, mazhablar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy kurash, shuningdek Qur'on mazmunini jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashtirishga intilishlar ham o'z ifodasini topmay qolmagan.

«Qur'oni Karim» arab adabiyoti, prozasi (lingvistikasi)ning dastlabki yodgorligi sifatida yagona arab adabiy tilining shakllanishiga sabab bo'lgan buyuk asardir.

Qur'on uslubi (nasriy qofiya - saj'da yozilgan) jahon adabiyoti, ,ayniqsa, Sharq adabiyotiga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Hozirgi vaqtda yurtimizda, xalqimiz qalbiga tom ma'nodagi hurfikrlilik, vijdon (e'tiqod) erkinligi, milliy munosabat, milliy mafkura, o'tmish madaniy merosiga hurmat, diniy ta'limotga yangicha munosabat va hurmat holatini olib kelgan qayta qurish (bozor iqtisodiyati) oshkorolik (xolisona) davrida Qur'oni Karim va boshqa barcha haq diniy adabiyotlarni o'rghanishga shijoat bilan kirishish o'z davrimizning qutlug' voqealaridandir.

Qur'onagi islom dinining marosimlar, axloqiy ko'rsatmalar, huquqiy qoidalar, odat va an'analar, millionlab insonlarning hayoti va yashash tarzning eng muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho kitob (qomus)dir.

Uning sura va oyatlari ijtimoiy - ommaviy va qolaversa xususiy (duogo'ylik) marosimlarida, nomozlarda, davlat va oila bayramlarida, jamiyat kundalik hayotga aloqador turli munosabatlar (to'g'ri tushunilgan takdirdagina) bilan to'lib toshgandir.

Bu kitobdagi juda ko'p pand - nasihat va iboralar, tilidan, millatidan qat'iy nazar, nafaqat islomiy, balki xalqlarning adabiy tiliga, kundalik muomalasiga singib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi bo'lган Qur'on dunyoning o'ziga xos bir yagona durdonasidir. Sharq xalqlarining ijtimoiy va ma'naviy qolaversa, ma'rifiy rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan bo'lib, u butun bashariyatning yo'lchi yulduzi deb aytishga haqlimiz.

Qur'on islom dinining muqaddas kitobi sifatida butun dunyoga ma'lum. Allomalar, dinshunoslar, islomshunoslar bu ilohiy kitobni ta'riflab: «Qur'on Ollohnинг mo'jiza kalomi bo'lib, Muhammad mustafo salallohu alayhu vassalamga vahiy orqali tushgan, tilovati ibodat hisoblanuvchi kitobdir», - deb hisoblaydilar

Diniy rivoyatlarda ko'rsatilishicha, Qur'onning mazmuni mo'jizaviy holatda Muhammad ibn Abdulohga parcha-parcha qilib 22-23 yillar davomida vahiy (aks-sado) yuborilib turilgan va vahiyning birinchi ayon bo'lishi «Laylat-ul qadr» deb ataladi ya'ni, o'sha kecha tunda boshlanib, uning vafotigacha davom etgan. (610-632 yillar). Keyinchalik islomda muqaddaslashtirilgan ana shu kecha an'ana bo'yicha xijradan 12 yil ilgari ramazon oyining 27 ga o'tar kechasi melodiy hisob yilnomaga

bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustgacha o'tar kechasi Qur'onni vahiy qilishning boshlanishi asos qilib olingan.

Bu haqda Qur'onda shunday deyiladi:

1. «Albatta Biz u (Qur'on)ni qadr kechasi nozil qildik.
2. (Ey Muhammad), qadr kechasi nima ekanligini siz qaerdan bilar edingiz.
3. Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir». (Qadr surasi. 97, 1-3 oyatlar.

T.91.642 bet)

Vahiyning boshlanishi to'g'risida diniy rivoyatlarda, jumladan Ibn-Isxok, Ibn-Islomning «Sirot-ar rasul Olloh» (Olloh elchisining hayoti) asarida: Muhammadning Makka (Madinada) yaqinida joylashgan Xira tog'idagi g'orga borib ibodat qilishi odat bo'lган, deb yozadi.

Islom an'anasi bo'yicha ana shu kechada vahiy deb hisoblangan «Al - a'laq», «Laxta qon» nomli sura (96 - sura, 640 - bet) quyidagi oyatlar bilan boshlanadi:

1. (Ey Muhammad, barcha mavjudotni) yaratgan zot bo'lishi Parvardigoringiz nomi bilan (boshlab) o'qing! 2.U insonni laxta qondan yaratgan (zotdir). 3-4. o'qing! Sizning Parvardigoringiz (insoniyatga) kalomni (ya'ni yozilishni-xatni) o'rgatgan o'ta qaramli zotdir. 5. U zot insonga uning bilmagan narsalarini o'rgatadi.

Diniy rivoyatlarda Muhammad o'ziga birinchi vahiy kelgach, targ'ibot boshlashga jur'at etmagan, shu sababli, Alloh unga qaytadan murojaat etib, uni targ'ibot boshlashga da'vat etgani to'g'risida dalillar bor:

1-2-3-4. Ey (kiyimlariga) o'ralib olgan zot, kechasi (bedor bo'lib, nomozda) turing!... Qur'oni tartib bilan (ya'ni dona - dona qilib) tilovat qiling! (73-sura 584 bet). 74-suraning boshlanishida ham yuqoridagidek Muhammadga murojat qilgan mazmun berilgan: 1-2 Ey (liboslarga) burkanib olgan zot, turing - da, (insonlarni oxirat azobidan) ogohlantiring! (74-sura, 587 bet). Muhammad faqat Alloh so'zlarini insonlarga etkazib beruvchi payg'ambar yoki elchi deb e'tirof etiladi. Vahiy esa Allohnинг Jabroil nomli farishta orqali o'z payg'ambariga zudlik bilan xabar etkazishi, deb tushuniladi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, islom manbalarida rivoyat qilishlaricha Muhammad 40 yoshga etganda, ya'ni 610 yili Makka shahri yaqinidagi Xira nomli g'orda yolg'iz

qolib, ibodat bilan mashg'ul paytida, Jabroil farishta u kishiga birinchi bor Qur'on oyatlarini keltirgan. Odatda Jabroil Muhammadga oyatlarni o'qib berar, u kishi esa yod olib, o'z safdoshlariga yoddan etkaza bergan, ular ham boshqalarga shunday qila bergan. Islom an'anasida Qur'oni Karim kitob sifatida Muhammadning vafotidan keyin shakllangan. Bundan keyingi davrlargacha oid bo'lган diniy rivoyatlarga qaraganda Muhammad Allohgа e'tiqod qilish va musulmonlikni qabul qilishi to'g'risida targ'ibot boshlagandan keyin bir qism makkaliklar uning izidan borgan, lekin ko'pchilik uning targ'ibotiga qarshi chiqqan. Qur'onda Muhammad targ'ibotiga qarshi chiqqanlarga «Kofirlar» degan nom berilgan.

Payg'ambar - «forscha» xabar etkazuvchi, xushxabar etkazuvchi (payg'om-xabar, bar-boridan etkazmoq) ma'nosini beradi. Bu ma'noda Qur'onda «Nabiy» (nabo-arabcha xushxabar, g'oyibdan keluvchi xabar degani). Bundan tashqari «rasul» (elchi) atamasi ham ishlatiladi.

Islom bo'yicha Muhammad – oxirgi payg'ambar, Allohning elchisi. Qur'onning mazmuni Alloh so'zlaridan iborat, bunga e'tiqod qilish esa dinning asosiy e'tiqod talablaridan biri degan tushuncha Qur'on oyatlari asosida shakllangan. Bu tasavvurlar bevosita diniy e'tiqodga xos bo'lган qarashlar va diniy rivoyatlardan iborat ekanligi o'z-o'zidan ravshandir. Biroq, VII asr boshlarida islom dinning va Qur'onning vujudga kelishiga sabab bo'lган ma'lum tarixiy voqealarning yuz bergenligi va bunda faoliyat ko'rsatgan ayrim tarixiy shaxslarning bo'lганligi shubhasizdir.

Bu masalani ilmiy mushohada etish bo'yicha XIX asr o'rtalaridan boshlab qator Evropa va rus islomshunoslari katta ish olib borganlar. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, bu dinni ko'ra olmaydiganlar ham yo'q emas, albatta.

Hatto Qur'on nozil bo'lган davrlarda ham unga yuzaki qarovchilar: «Bu (Qur'on Ollohning so'z emas, balki) faqat avvalgilardan naql qilinayotgan bir sehrdir. Bu faqat basharning so'zdir» deb baho beruvchilar bo'lган. (74-sura 24-25-oyatlar.588 bet.). Bu oyatlardan kelib chiqib soxta islomshunoslар ham Qur'onning vujudga kelishiga etarli baho beraolmadilar.

Qur'onning matnlarida Muhammadning oddiy odam sifatida hech qanday mo'jiza ko'rsatishga qodir emasligi to'g'risida har xil uydirmalar yozishgan. Vaholanki, suralarda Muhammadning hayoti va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar iboratomuz ochib berilgan.

Hadislar – islom dinining asosiy manbalaridan biri. Hadislar islom dinining Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manbalaridan bo'lib, Muhammad payg'ambarning o'gitlari va hayoti haqidagi kichik hikoyalardan iborat. Ulamolar tomonidan shunchalar ko'p hadis to'planganki, ularning qaysi biri chin, qaysi biri yolg'onligini aniqlashga ehtiyoj tug'ilgan.

Rus filosofi B.E Bertelsning ko'rsatishicha¹ yangi hadislarni to'qib chiqarish hech qanday gunoh hisoblanmagan, yuzlab hadis chiqarganlarni aytib, shu bilan mag'rurlanib yurgan kishilardan madinalik Ibn Abu Yah'yo, bag'dodlik al-Voxidiy, xurosonlik Ibn Sulaymon, suriyalik Muhammad Ibn Sayid, kufalik Abd-al-Karim Ibn Abdul-Avj va boshqa shunga o'xshash dalillarni keltirish bilan shubhalanadi. Haqiqiy deb hisoblangan hadislar to'g'risida eng mashxur ilohiyatchilar o'rtasida ham yagona fikr bo'limgan joylarini vaj qilib olgan.

Islom an'anasa eng obro'li hisoblangan hadislar to'plamini tuzgan Ismoil al-Buxoriy Muhammadning so'zлari va hukmlari deb hisoblangan rivoyatlardan 600 mingtachaga yaqinini sinchkovlik bilan erinmasdan to'plab, ulardan eng ishonarlisi 9220 tasini o'ta to'g'ri deb topgan.

Imom al-Buxoriy (810-870). U tuzgan hadislar ko'pincha «Sahihi Buxoriy yoki Sahih al Buxoriy deb, aslida esa «Al-Jam'as-Sahih» ya'ni (eng ishonarli to'plam) nomi bilan islom olamida mashhurdir. Shu sababli Buxoriy va undan keyin hadislarni to'plagan Muslim al-Kisha Nuriy (817-875) o'z to'plamlarini «as-Sahih (ishonchli) deb atagan.

Xullas, Bertelsning xulosasiga e'tibor bersak, hadislarning hammasi ham Muhammad hayotini va ilk islom tarixini aniqlash uchun ishonchli manba bo'la olmaydi deydi.

Yana bir XX asrning mashxur islomshunosi, arabshunos I.Yu.Krachkovskiy Qur'onga Muhammadning inson sifatida qilgan ijodining mahsuloti, ma'lum muhitda va ma'lum sharoitda vujudga kelgan asar sifatida qarab, bu yodgorlikning vujudga kelishida

¹ Bertels E. E. Suizm i suiyskaya literatura. M.1965.str 14-15.

Muhammadning faoliyatiga katta ahamiyat berib, uning haqligiga shubha qilmaydi. Uning fikricha, Muhammad hayoti keyinchalik rivoyatlar bilan qoplangan, 622 - yili Madinaga ko'chib kelgandan ilgarigi hayoti juda oz ma'lum, u asosan tarixiy shaxsdir, shubhasizki, eramizning VI-VII asrlarida yashaganligi, ya'ni Qur'on asosan 610-632 yillar o'rtasida vujudga kelgan asardir.

Qur'on matnlarini to'plash Muhammad vafotidan so'ng 20-25 yil davomida dastlabki xalifalar Abu Bakr Siddiq, Umar Ibn hattob, Usmon Ibn Affon va nihoyat hazrati Alilar davrida amalga oshirilgan.

Muhammadning tiriklik vaqtlarida, uning so'zlarini tartib bilan yozib bormagan, ba'zi odamlar suralarni o'z ixtiyorlari bilan yozib olib saqlab yurganlar. Ba'zi odamlarning xususiy jamlamalari ham bo'lган.

Xalifa Abu Bakr Siddiq davrida Arabiston yarim orolida ayrim qismlarida dinni qabul qilmaganlar o'rtasida g'alayonlar tez-tez bo'lib turgan g'alayon bostirilgan va Muhammadning ko'rsatmalariga sodiqlik bilan Abu Bakr va Umarlar tomonidan davlat boshqarilgan. « Shu janglarda ko'plab Qur'oni to'liq yod olgan qariyalar bo'ldilar. Yamamadagi jangda 72 qari shahid bo'ldi. Shunda hazrati Umar, Abu Bakrga: qarilar o'lib ketaversa, Qur'onga zarar etishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakliga keltirib jamlab qo'yish kerak degan maslahatni berdi.

Qur'on matinlarini to'plash va tartibga solish ishi 633 yili suralarining ko'pini yod bilgan Zayd Ibn Sobitga topshirilgan. U kishi, payg'ambarimiz qilmagan ishini qilmayman, bu ishdan ko'ra elkamga bir tog'ni yuklanglar engil bo'ladi deb javob bergenlar.

Rivoyat qilishlaricha, Muhammadning vafotidan so'ng Olloh taolo Zaidning ham qalbiga yo'l ochib, Qur'oni jamlashga dav'at etgan va u zot bu ishga ziyraklik bilan kirishgan. Kiyik terisiga yozilgan sahifalar jamlanib, hali falarning uyiga qo'yib saqlanib borilgan. Zayd to'plagan variantlar (suhuf) rasmiy ravishda muqaddas yozuv sifatida e'tirof etilmagan.

Suhuf tuzilgandan 17-18 yil o'tgandan so'ng undan boshqa to'plamlar ham barchaga ma'lum bo'lган uchinchi xalifa Usmon Ibn Affon davrida xalifalik kengaytirilib, arab bo'lмаган о'лkalarga ham islom keng tarqaldi .

Ta’biyki u Qur’on to’plamlarini taqqoslab chiqish va yagona to’plam tuzishga topshiriq (farmon) bergan. Zayd boshchiligidagi qayta tuzilgan to’plam «Musxaf» deb nom olgan. Ko’pincha islom olamida «Usmon Musxafi» deb ham yuritiladi. Bu nusxa musulmonlarda Qur’onning asl nusxasi deb hisoblanadi.

Uning asl nusxasi Madinada qoldirilgan, undan uch nusxa (boshqa ma’lumotlar buyicha 6 nusxa) ko’chirilib, Kufa, Basra, Damashq shaharlariga yuborilgan va ushbu rasmiy tekstlardan farq qiladiganlari yo’qotilishiga buyruq berilgan. Bizgacha etib kelgan eng qadimiy Qur’on qo’lyozma nusxalaridan 2 tasi hozirgacha saqlanib qolgan. Biri Toshkentda, ikkinchisi Qohirada Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Qur’on 114-suradan iborat. Suralarni juda shartli ravishda kitoblardagi boblar bilan taqqoslash mumkin. Qur’on matnlarida «sura» so’z muayan ravishda «oyatlar to’plam i» (oyatlar qatori yoki oyatlar tizmasi) ma’nosini beradigan joylar ko’p uchragani sababli, bu termin oyatlar yig’indisi ma’nosida tushuniladi deyish mumkin.

Suralar Qur’onda o’z mazmuniga yoki paydo bo’lgan vaqtiga (xronologiyasiga) qarab emas, balki hajmiga, ya’ni, har bir suradagi oyatlarning miqdoriga qarab joylashtirilgan.

Faqat bir necha sura bundan mustasno: 7 ta oyat bilan birinchi o’ringa joylashgan 1-sura, 5 va 6 oyatdan iborat bo’lgan 113 va 114-suralar, 4 oyatli 106, 112-suralar va hokazo. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta xajmga ega bo’lgan 2-sura 286 oyat bor, eng kichik suralar (103, 108, 110) faqat 3 oyatdangina iborat.

Qur’on dastlabki islom g’oyalarini o’zida aks ettirgan yagona yozma asar bo’lgani sababli islom tarixi bilan shug’ullangan barcha olimlarning bu kitobni tahlil qilishga katta e’tibor bergenliklari tabiiy bir holdir.

Evropa olimlari jumladan mashxur nemis arabshunosi Teodor Naldeke (1836-1930) xronologiyasi buyicha suralar umuman to’rt asosiy davrga bo’lingan: 1)Makka davrida 48 ta sura bo’lib, bular Muhammad faoliyatining dastlabki to’rt yiliga (610-614)to’g’ri keladi. g’ki buni poetik suralar deb ataydi. 2)Makka davrida 21 ta sura undan keyingi ikki yilga (615-616) to’g’ri kelib, Rahmon suralari deb ataladi.

3) Makka davrida 21 sura hijratdan oldingi oltinchi yilga (617) to'g'ri keladi. Bu suralar payg'ambarlik suralari deb ataladi.

Madina davrida 24 ta sura bo'lib, ular Muhammadning Madinada yashagan davriga (622-632) to'g'ri keladi deb belgilangan.

Islom an'anasisda suralar xronologiyasi mustaqil masala sifatida hech qachon ko'tarilmagan va muhokama qilinmagan. Faqat suralar ikki qismga bo'lingan. Makka davriga 86 sura, Madina davriga 23 sura(ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Makkada 91 sura, Madinada 23 sura) kiritilgan.Qur'onning har bir surasi bir necha oyatdan iborat. Umuman 6236 ta oyat bo'lib, «Oyat» so'zi faqat Qur'onning o'ziga xos atamadir va o'sha zamonda» «karomat», «Ilohiy belgi» ma'nosini anglatgan.

Bundan tashqari islom dini an'anasisda ayrim muhim deb hisoblangan oyatlarning o'ziga xos nomi bo'lib, ular asosan ana shu oyatlarning mazmuniga qarab berilgan. Qur'onagi har bir suraning nomi bor. Bu nom sura boshlanishida sarlavha qilib berilgan. Olimlarning fikricha, sura nomlari ham Qur'oni tahrir qilish davrida kiritilgan bo'lishi kerak. Chunki ko'pchilik hollarda suraning nomi biror ism yoki so'zga asoslanib berilgan.

Tabiat hodisalari: «Kun», «Tun», «Oy», «Quyosh», hayvonlar nomalari: 2-sura «Al-Baqara» (sigir) 6-sura «Al-An'on» («hayvon, mol») 29-sura «Al-Ankabut» (o'rgimchak) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Evropa islomshunoslaridan ko'plarining oyatlarni belgilovchi harflar mazmunini ochishga qaratilgan o'rinishlari ham halicha natija bergani yo'q. Biroq T.Naldeke fikri ma'lum e'tiborga sazovordir. Uning fikricha, bu harflar Zayid Ibn Sobit Suhufni to'plagan vakitda ayrim suralarni talqin etgan shaxslar nomlarining bosh harflari bo'lishi mumkin. Shunday qilib bu harflarni tushuntirib berishda haligacha olimlar o'rtasida muayan fikr yo'q.

Qur'onning muqaddaslashtirish munosabati bilan uning mazmuni shunchalik chuqur deb ko'rsatiladiki, oyatlardan uni talqin qilib berish faqat Ollohnning qo'lidan keladi, deb ko'rsatiladi: «Senga kitob yuborgan o'shadir. Unda tartib bilan joylashtirilgan oyatlar bo'lib, ular Ona kitobdir. Boshqalarning mazmuni o'xshashdir. O'z qalbida yo'ldan ozganlar uni chalkashtirishga urinib va izohlashga intilib, undagi

o'xshash joylarga ergashadilar. Uni izohlab berishni Ollohdan boshqa hech kim bilmaydi». (45-bet.3-sura).

Shunday qilib, Qur'on islom dinida eng muqaddas, barcha bilmlar manbai, qonunlar yig'indisi, mazmuni osmondan Olloh tomonidan vahiy qilingan kitob hisoblanadi.

Qur'oni muqaddas va ilohiy kitob deb tasvirlash maqsadida «Agar biz ushbu Qur'oni biron tog'ga nozil qilganimizda, albatta siz u (tog')ni Ollohning qo'rquvidan egilib yorilib ketgan holida ko'rgan bo'lur edingiz». (Lekin ayrim insonlarning dillari tog'ning toshidan ham kattikroq bo'lgani sababli ularga Qur'on oyatlari ham ta'sir qilmas), - deyilgan. (59-sura, 21-oyat, 538 bet)

Islom davlatlarida Qur'on mакtablar, madrasalar, universi-tetlarda maxsus dars sifatida o'qитiladi. (Men Pokistan islom davlatida 1993 yil mart oyida 7 kunlik sayohat davomida bu holatlarning shohidi bo'ldim. J.A.).

Qur'on matni sura va oyatlardan tashqari «Juz» yoki «Sipora» (o'zbeklar o'rtasida ko'pincha «Pora» so'zi ishlatilgan) ham «xibz»larga bo'lingan. «Poralar» 30 ta, «xibz»lar 60 ta bo'lib bu bo'linish faqat uni o'qish qo'layligi uchun qilingan. Qur'onning tuzilishidagi ko'rsatib o'tilgan xususiyatlaridan kelib chiqadigan yagona xulosa shuki, unda hozirgi zamon kitoblariga xos bo'lgan va tolib va talabalarimiz, kitobxonlarimiz odatlanib qolgan bo'linishlar ham yo'q, Uning matnlarini tushunish, mohiyatini anglab olish uchun islom tarixini yaxshi bilish kerak.

Shu bois, hozirgi paytda ko'pchilik o'quvchilarning fikr-mulohazalari e'tiborga olinib, Movarounnahr diniy boshqarmasining tashabbusi bilan Qur'on o'zbek tiliga tarjima qilindi. Matbuotda bu mavzuda bir necha maqolalar berildi, gazetxonlar fikri, mulohazalari e'lon qilindi. Qur'on jahondagi juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Uni ~arbiy Evropa tillariga tarjima qilish XI asrdan rus tiliga ag'darish esa XVIII asarlardan boshlab bir necha variantlari bosilib chiqqan.

Umuman, Qur'on 1698 yili lotin tiliga, 1770-1828 yillari orasida sakkiz marotaba, frantsuz tiliga, 1734 - 1826 yillari o'n marotaba ingiliz tiliga, 1846 yili nemis tiliga, 1716, 1790, 1792, 1884, 1907 va 1963, 1986 yillarda rus tiliga tarjima qilingan.

Qur'on turkiy tarjimalarining qo'lyozma nushalari ham ko'p. Bular haqidagi ma'lumotni Anqarada 1938 yilda nashr etilgan « Vakorlar dergisi» va Krakovda 1937 yilda chop qilingan «Skudda nad yazikom staroosmonskim» degan to'plamlaridan olish mumkin. Shuningdek, turk, tatar, uyg'ur tarjimalari ham bor.

Eski o'zbek tilidagi Said Maxmudxon Taroziy-Oltinxon To'ra tarjimalari ham bor. hozirgi kunda Qur'oni Karim «Cho'lpon» nashriyotida chop etilgan arabshunos Alovuddin Mansurning o'zbekcha izohli tarjimasи 1991 ko'p tiraj bilan muxlislarga etkazib berildi. Shuni alohida takidlash kerakki, Alovuddin Mansur ko'p sonli Qur'oni Karimga qiziquvchilarning o'qib tushunishi uchun juda qulay etib, astoydil har bir sura - oyatlarni izohlab berishga harakat qilgan.

Shariat – arabcha to'g'ri, yurish lozim bo'lgan yo'l demakdir. Shariat islom huquqi, axloqi, marosimlari va qoidalari to'plamidir.

Tayanch so'zlar:

Qur'on, payg'ambar, hadis, shariat, oyat, sura, vahiy, sahih, fikh, ijmo.

Nazorat savollari:

1. Qur'on qachon va qanday sharoitda vujudga kelgan?
2. Hadis nima va u qanday yaratilgan?
3. Shariat musulmonlar hayotida qanday rol o'ynaydi?

VIJDON ERKINLIGI VA MILLIY ISTIQOL

O’zbekistonda vijdon erkinligining ta’milnishi. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo’lib, kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi.

Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog’lom va barkamolligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o’rni va bajaradigan vazifalari g’oyat muhimdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavidan tortib, barcha xalqaro xujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstituttsiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o’z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumiyligi deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o’z dini yoki e’tiqodini o’zgartirish erkinligini, o’z dini yoki e’tiqodiga o’zicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o’z ichiga oladi.

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisani – turli dunyoqarash, e’tiqodda bo’lgan kishilar o’rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o’rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta’milnishini ham nazarda tutadi.

Odamlar doimo turli dunyoqarash va e’tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. Har kimning o’z ichki dunyosi, o’z e’tiqodi bo’ladi. U o’z hayotida ana shularga amal qiladi, shular bilan yashaydi, ularni himoya qiladi. Ammo bunday xilma – xillik, qarama – qarshilik aqida va g’oyalarning mavjudligi murosasiz ziddiyatlariga, jiddiy to’qnashuvlarga olib kelmasligi, odamlar, qavmu- millatlar, dinu mazhablar, Mamlakatu davlatlar o’rtasidagi yaxshi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga to’siq, sun’iy g’ov bo’lmasligi kerak. Hamma gap shundaki, e’tiqodlar o’rtasida nizolar tug’ilmasligi lozim.

Vijdon erkinligi tushunchasi. Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u, albatta ma’lum ijtimoiy vaziyatda namoyon bo’ladi. Shuning

uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'ektiv va sub'ektiv omillarisiz tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari « vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda, albatta milliy, mafkuraviy, madaniy va sinfiy omillarni ham nazarda tutish kerak.

Vijdon erkinligi dinga ishonuvchilarni majburan o'z e'tiqodlaridan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda taqiqlab qo'yishning har qanday nazariy va amaliy ko'rinishlariga chek qo'yadi. Shuningdek, u jamiyatdagi barcha dinlar, cherkov va diniy birlashmalar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biron bir dinni imtiyozli, boshqa dinlardan ustun qilib qo'ymaydi. Shu bilan birga jamiyatda ilmiy dunyoqarashning qaror topishini vijdon erkinligining amalda namoyon bo'lishi belgilaridan biri deb hisoblaydi.

Sobiq tuzumming dinga munosabati. Oktyabr inqilobidan keyin vijdon erkinligi ilmiy tamoyilga asoslangan davlat va din o'rtasidagi yangi munosabatni izchillik bilan amalga oshirishni ko'zda tutildi. Bu sohada 1918 yil 23 yanvar RSfSR Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan e'lon qilingan «Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida»gi dekret dastlabki qadam bo'ldi. Bu dekretda davlat organlari yoki diniy tashkilotlar tomonidan fuqarolarning vijdon erkinligiga zo'rlik va tazyiq ko'rsatishning har qanday ko'rinishlariga zo'rlik va taziyyq ko'rsatishning har qanday ko'rinishlariga chek qo'yish; ularga dinga bo'lgan munosabatlarini amalga oshirishda to'la erkinlik berish ; dinga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsning huquqlarini ilgarigidek cheklab qo'yishlarini bekor qilish; hamma rasmiy aktlarda dinga bo'lgan mansublik shartlarini olib tashlash asosiy maqsad ekanligi ko'rsatildi.

Diniy tashkilotlarga o'z funktsiyalarini to'la amalga oshirishlari uchun barcha shart – sharoitlar yaratilishi lozimligi alohida uqtirib o'tildi. Shunday qilib, dekret asosida har bir kishiga xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod kilmaslik huquqi beriladi. Dekret sovet davlatining dinga nisbatan munosabatining negizi bo'lib, uning asosiy g'oya va tamoyillari ittifoqdosh respublikalar Konstitutsiyalari va shu sohadagi qonunlarida o'z ifodasini topdi va keyinchalik bularni rivojlantirishga harakat qilindi.

Jamiyatda yuz bergan katta ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar, millionlab mehnatkashlarning bundan buyongi hayot ko'rishida ularning dunyoqarashlariga, ma'naviy hayotga ham sezilarli ta'sir etdi.

Lekin bu ob'ektiv jarayon g'oyat ziddiyatli va notejis o'tdi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. Bir tomondan, Oktyabr inqilobi Rossiya va u bosib olgan o'lkalardek bir qoloq, joxil, turli xalqlar ma'naviy hayotida din uzoq yillar hukmronlik qilgan mamlakatda sodir bo'ldi. Yangi tuzumning davlat va din munosabatlarda keskinlik bilan amalga oshirilayotgan chora – tadbirlari jiddiy qarshiliklarga duch kela boshladi, kurash «yo hayot, yo mamot» tusiga kirdi. Ichki aksilinqilobi kuchlar va xalqaro interventsiya dindan sho'rolar hokimiyatiga qarshi kurashda har tomonlama foydalandilarki, bu hodisalar, albatta, oqibatsiz qolmadi, ikkinchi tomondan, ana shunday murakkab sharoitda diniy va milliy masalalarni qonuniy va oqilona hal etishda tajriba va sabr toqat etishmasdi.

Adolat, inson, aqlu zakovat, inson huquqlarini, qonunchilikni paymol qilmaslik kabi jihatlardan ma'muriyatchilik, zo'ravonlik, o'ta inqilobi jangovorlik, taziyq ko'rsatish usuli bilan ish ko'rish odat tusiga aylandi. Dinga qarshi ochiq jang e'lon qilindi. Shaxsga sig'inish davriga kelib borgan sari din va dindorlarga bo'lgan munosabat ko'proq jiddiylasha bordi. Ateizm falsafa ilmining tarkibiy qismidan uning deyarli «asosiy» va «bosh» masalasiga va shu yo'l bilan hukmron mafkuraning «o'tkir» quroliga aylantirildi.

Amaliyotda esa aholini ateistlashtirish, mamlakatni ommaviy ateizm mamlakatiga aylantirish chora – tadbirlari ishlab chiqildi va ularni amalga oshirish uchun kuch va vositalar ishga solindi. Din sotsialistik jamiyat uchun zararli sarqit, dushman hodisa deb uqtirildi, dinga ishonuvchilar esa har tomonlama qoloq, passiv, johil kishilar deb baholanadigan bo'ldi. 1925 yilda mamlakatda jangovar xudosizlar uyushmasi to'zildi, uning a'zolari soni tez orada 3, 5 million kishidan oshib ketdi.

Jangovar xudosizlar «Dinga qarshi kurash – sotsializm uchun kurash» shiori ostida ish olib borib, din va dindorlarni «fosh» etuvchi, aslida esa ularni haqorat qiluvchi turli xil ommaviy tadbirlar uyushtirishga, adabiyotlar, jurnallar, plakatlar,

kinofilm va san'at asarlari yaratib, keng aholi o'rtasida dinga nisbatan hurmatsizlik va nafrat uyg'otishga kirishib ketdilar.

Hayotni qayta ko'rish, madaniy inqilobini amalga oshirish, «odamlarni eskilik sarqitlaridan xalos qilish» va shu kabi shiorlar ostida va ko'pincha ma'muriy va o'zboshimchalik yo'llari bilan minglab cherkov, masjid, ibodatxonalar, maktab, seminariya, akademiyalar yopib qo'yildi, din peshvolari, ruhoniylari va ko'pgina dinga ishonuvchilar qatag'on qilindi.

Bunday mudhish jarayonlarda ,ayniqsa, chekka o'lkalarda, shu jumladan Markaziy Osiyoda g'oyat keskin va dahshatli tus oldi. Birgina jumhuriyatimiz hududida 24 mingdan ortiq masjid yopildi, ularning binolari buzib tashlandi. Mahalliy aholi musulmonlari uchun aziz, muqaddas bo'lgan xalqning tarixiy va madaniy merosi hisoblangan yuzlab obidalar, maqbaralar, maktabu madrasalar xarobalarga aylantirildi. Toshkent shahridagi 26 madrasadan 1930 yilda 23 tasi buzib tashlandi. Dindorlik uchun odamlar quvg'in qilindilar, ularning molu mulklari musodara etildi. Bunday qonunsizliklarga chidolmay, shahar va qishloq aholisidan anchagina qismi qo'shni mamlakatlar – Afg'oniston va Sharqiy Turkiston (Uyg'iristonga) qochib ketishga majbur bo'ldi.

«Aholini tezroq savodxon va ma'rifatli qilish» bayrog'i ostida asrlar bo'yи xalqning madaniy boyligi, ma'rifat qo'roli, milliy gururi bo'lib kelgan arab kalligrafiyasiga asoslangan alifbo bekor qilinib, 11 yil ichida (1929 – 1940 yillarda) avval lotin, so'ng rus imlolari majburiy joriy etildi. Bu katta ma'naviy faloqat edi, albatta, chunki mahalliy xalqlar bu bilan o'z o'tmishidan, boy tarixiy va madaniy merosidan, ajdodu avlodlari yaratgan boyliklardan mahrum bo'lishga mahkum etildi. Qadimiy madaniyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan zamin, dunyoga mashxur olimu mutafakkirlar etishtirib bergen xalqlar endi «savodsiz», «qoloq», «madaniyatsiz» ga chiqarib qo'yildi.

Arab alifbosidagi barcha kitobu risolalar taqiq ostiga olindi, ularga «xavfli, yot nashrlar» tamg'alari bosildi. Bebaho va noyob kitoblar esa o'lja sifatida markazlarga olib ketildi. Yuz minglab kitoblar, shu jumladan falsafa, huquq, tarix, fizika, ximiya,

tibbiyot, astronomiya va texnika fanlariga oid adabiyotlar gulxanlarda yoqib tashlandi, eski kitoblarni saqlaganlar esa jinoyatchi hisoblanib, javobgarlikka tortildi.

Vijdon erkinligi tamoyillarini izchillik va qat'iyat bilan amalga oshirishda barqarorlik etishmas edi. Masalaga yondoshish va uni hal etishda ko'pincha mavsumiylik, goh u chekkaga, goh bu chekkaga og'ib ketishlarga yo'l qo'yilar edi. Masalan, urush yillarida ahvol birdan jiddiy o'zgardi. Dinga ishonuvchilar va ishonmovchilarni, davlat bilan diniy tashkilotlarni bir – biriga qarama – qarshi qo'yish mamlakat xavf ostida turgan payitda naqadar xatarli ekanligi hammaga ma'lum edi.

Ko'pchilik diniy uyushmalar, dinga ishonuvchilar dushmanga qarshi kurashning birinchi kunlaridayonok o'z vatanparvarlik burchlarini amalda namoyish qila boshladilarki, buni sezmaslik va hisobga olmaslik mumkin emas edi. 1943 yilda ilgari tugatib yuborilgan pravoslav cherkovi patriarxligi yana tiklandi, xuddi shu yili o'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkil etildi. Buxorada Mirarab madrasasi ish boshladi, musulmonlarga haj qilishga ruxsat etildi.

Ammo 1960 yillarga kelib ahvol yana jiddiyasha boshladi. Turg'unlik davrida diniy birlashmalarini ruyxatga olish, dindorlarning konstitutsion huquqlaridan foydalanish nihoyat darajada cheklab kuyildi. Oddiy bir masjid yoki ibodatxonani ochish masalasi ham bevosita Moskvada hal qilinadigan bo'lib qoldi. Keyingi 25 yil mobaynida (1961 – 1986 yillar) mamlakatda musulmon diniy uyushmalarning soni 1546 taga kamayib ketdi.

Agar 1984 yilda mamlakat buyicha hammasi bo'lib 7 ta musulmon uyushmasi ruyxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 1985 yilda – 2 ta, 1986 yida 2 ta, 1987 yilda esa 7 ta, to'rt yil mobaynida jami bo'lib, 18 ta uyushma ro'yxatdan o'tkazildi yoki boshqacha qilib aytganda, butun mamlakat buyicha 18 masjid ochildi, xolos. Ammo buning natijasida dindorlik kamaygani yo'q, dinga ishonuvchilar e'tiqodlarini o'zgartirganlari ham yo'q. Din mahalla, xonodonlar, kishilar qalbiga, ichki dunyosiga yanadan chuqurroq kirib boraveradi. Ruxsat etilmagan ibodatxonalar, masjidlar, «maxfiy» diniy maktablar soni ko'payaverdi. Shunday qilib dinga nisbatan

qo'llanilgan ko'p yillik ma'muriy zo'ravonlik siyosati jamiyatimizga juda katta zarar keltirdi.

Mustaqillik davrida vijdon erkinligi. Qayta qurish, yangilanish, mustaqillik jarayonlari hamma sohalar kabi vijdon erkinligi, davlat va din, dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o'rtasidagi munosabatlar sohasini ham o'z ta'siriga qamrab oladi. Endilikda bu sohaga tamoman yangicha qarash yani umum insoniy qadriyatlar, umumxalq manfaatlari, inson huquqini himoya qilish, mamlakatda yangicha, demokratik va insonparvarlik muxitini barqaror etish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, odamlarning tinch, osoyishta va farovon yashashiga puxta zamin yaratish manfaatlari nuqtai nazardan qarash talab etiladi. Nazariyani eskirib ketgan, dog'maga aylangan tushunchalardan, yakka hokimlikka xizmat qildirish, buysundirish usuli va metodlaridan halos qilina boshladi.

Shuni mammuniyat bilan qayd etish lozimki, keyingi yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro munosabatda juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Dinning jamiyatdagi qonuniy o'rni tiklanyapti, hamma diniy uyushmalar, mazhablar va guruhlarning ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan, O'zbekiston hukumati musulmonlarining istaklarini inobatga olib, islom dunyosining eng muqaddas yodgorliklaridan biri xalifa Usmon «Mushaf» ini ular ixtiyoriga qaytarib berdi. qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi, yangi masjidlar ochilmoqda. Davlat diniy asarlarni chop etishga yordam beryapti, «Islom nuri» ro'znomasi, «O'zbekiston musulmonlari» oynomasi chop etilmoqda. Makka va Madinani ziyyarat etishga borayotgan musulmonlar ko'paydi.

Diniy bayramlar, sanalar, mashxur diniy arboblarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlar katta tayyorgarlik bilan keng ko'lamma nishonlanmoqda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» Qonun. Mustaqillik tufayli vijdon erkinligi tamoyillarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish bu davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. Zaruriyat qonuniy negizga tayanmogi kerak, qonun esa har doim harakatda, ishda bo'lmog'i darkor.

1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi yangi qonunni qabul qildi. Qonun loyihasini tayyorlashda keng jamoatchilik vakillari, xalq deputatlari, olimlar, mutaxassislar, turli millat va din vakillari faol ishtiroq etishdi. Bu qonun o'z ruhi va mazmuni bilan ilgarigi qonunlardan katta farq qiladi.

Qonunning «Umumiy qoidalar» bobida vijdon erkinligining asosiy tamoyillari, vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari, qoidalari va kafolati, fuqarolarning bu sohadagi huquq va burchlari bayon etilgan.

Qonunning 3 – moddasida har bir fuqaro dinga munosabatini o'zi mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanajagi takidlangan .

Yangi qonun ota-onalarga yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarga o'z bolalarini dinga o'z munosabatlariga muvofiq ravishda tarbiyalash huquqini beradi.

O'zbekiston fuqarolari dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, respublika qonunlari oldida teng huquqlidirlar. Ularning huquqlarini dinga yoki daxriylikka munosabatlariga qarab cheklab qo'yish yoki imtiyozlar berish, ular o'rtasida nifoq va nafrat ko'zg'otish yoki fuqarolarning tuyg'ularini haqoratlash kabi harakatlar qonun asosida qoralanadi va bu ishda aybdor bo'lган kishilar qonun oldida javobgardirlar. O'z diniy e'tiqodini sabab qilib qonunda belgilab qo'yilgan burchlarini bajarishdan hech kim buyin tovلاshi mumkin emas.

Yangi qonunda O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'o'llanmaydi, diniy tashkilotlar (masjidlar) diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat (hokimiyat) ishlariga aralashmasligi lozim. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga biror davlat vazifasini yuklamaydi, diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, unga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi, siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaydi va ularni mablag' bilan qo'llab kuvaltamaydi, davlat qonunlari va huquq – tartibotiga rioya qiladi. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtiroq etish huquqlariga egadirlar.

Fuqarolar dinka bo'lgan munosabatlaridan qat'iy nazar, ta'limning xilma-xil turlari va darajalarini egallashlari mumkin. Belgilangan qoidalar asosida davlat organida ruyxatdan Nizomga asosan o'tish, fuqarolar uchun diniy tashkilotlar maxsus o'quv yurtlari tashkil etishlari mumkin. Har bir fuqaro o'zlari tanlab olgan tilda yakka o'zi yoki boshqalar bilan birgalikda, shu jumladan uyda va diniy tashkilotlar xuzo'rida diniy ta'lim olishlari mumkin.

Yosh bolalarga tashkiliy ravishda diniy bilmlar berish ular faqat maktab yoshiga etgandagina, maktabdagi darslari tomom bo'lgach, shu o'quvchilarning ota-onalarini yoki ota-onalar o'rnini bosuvchi kishilarning yozma ruxsatnomalari bo'lgandagina ruxsat beriladi.

Yosh bolalar voyaga etgach, diniy bilm olish – olmasligini o'zlari hal qiladilar.

Diniy ta'lim beruvchilar maxsus diniy ma'lumoti bor kishilar bo'lib, bolalarni o'qitish uchun diniy boshqarmaning, markazning ruhsatnomasiga ega bo'lishi kerak. Xususiy diniy ta'lim berishga yo'l qo'yilmaydi.

Bu qonun-qoidalarni buzganlar qonun oldida javobgardirlar. Yangi qonunda diniy tashkilotlar (jamiyatlar, markazlar va boshqarmalar)ning faoliyati, huquq va vazifalariga alohida o'rinn berilgan.

Diniy tashkilotlar (diniy jamiyatlar, boshqarmalar, markazlar, monastirlar, diniy o'quv yurtlari, birlashmalar va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lмаган о'з Nizomlari asosida ish yuritadilar. O'zbekiston Respublikasida diniy xarakterga ega bo'lgan partiyalar, respublikadan tashqaridagi diniy partiyalarning bo'lim yoki filiallarini to'zish ham man etiladi. Diniy boshqarmalar va markazlar o'z Nizomlariga ko'ra diniy o'quv yurtlari tashkil etishlari va ularda masjidlar, diniy boshqarmalarda, markazlarda ishlaydigan ruhoniylar tayyorlashi mumkin. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ruyxatdan o'tishi shart.

Davlat qarmog'idagi o'quv yurtlari uchun qabul qilingan huquqiy normalar diniy o'quv yurtlari uchun ham bab – baravar taaluqlidir.

Qonunchilikka muvofiq diniy jamiyatning tashkil topishida 18 yoshga to'lgan va undan katta yoshli bo'lajak jamiyat a'zolari tuman xalq deputatlari mahalliy

Kengashlari, Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Adliya vazirligi idoralariga o'z Nizomlari va arizasini topshiradilar. Nizomi ruyxatdan o'tkazilgan diniy jamiyatgina huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilganidek, har qanday fuqaro 18 yoshga to'lgandan keyin diniy jamiyatga a'zo bo'lishi mumkin. Diniy jamiyat tashkil etish uchun unga bir xil e'tiqodga ega bo'lgan kamida 10 kishi a'zo bo'lishi kerak.

Diniy tashkilot Nizomi davlat qonunlariga zid bo'lmasligi kerak. Agar diniy tashkilot Nizomi O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi» qonuniga va jumhuriyatning boshqa qonuniy xujjatlariga zid bo'lsa, diniy tashkilotlarning ushbu Nizomi ruyxatga olinmaydi.

Diniy jamiyat amaldagi qonuchilikni va respublika Konstitutsiyasini buzsa yoki dindorlarning ko'pchiligi jamiyatni ruyxatdan o'chirishni iltimos qilsa, bunday sharoitda diniy tashkilot faoliyati tuxtililadi. Jamiyatni ruyxatga olgan tegishli mahalliy organ idorasi bu haqida o'z qarorini chaqirishi shart.

Diniy tashkilotlar o'z mulkulariga ega bo'ladilar. Binolar, din bilan bog'liq buyumlar, ishlab chiqarish, ijtimoiy va hayriya ishlariga mo'ljallangan inshootlar, pul mablag'lari hamda diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulk diniy tashkilotlarning mulki hisoblanadi.

Mahalliy hokimiyat va davlat idoralari sajdagoh imoratlari va davlat mulki bo'lgan boshqa mol – mulkni diniy tashkilotlarga mulk qilib berishi mumkin. Shunisi e'tiborga molikki, diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy xayriyalardan, shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag'lardan soliq undirilmaydi.

Qonun asosida diniy tashkilotlarga ishlab chiqarish, ta'mirlash- qurish, qishloq xo'jaligi korxonalarini, shuningdek, huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan xayriya muassasalari (etimxonalar, internatlar, shifoxonalar va boshqalar) ta'sis etish huquqi berilgan. Ularning ishlab chiqish faoliyatidan keladigan foydadan ijtimoiy tashkilotlar korxonalardan olinadigan hajmda soliq olinadi.

Qonunda fuqarolarning diniy e'tiqod, rasm – rusum va marosimlarida qatnashish bilan bog'liq bo'lgan huquqlariga katta o'rinn berilgan.

Diniy tashkilotlar odamlar erkin kela oladigan ibodat yoki diniy yigilishlar joylariga, shuningdek, u yoki bu din muqaddas hisoblaydigan joylarga (tavof joylarga) asos solish va saqlashga haqlidirlar. Ibodat, diniy rasm – rusum va marosimlar o'tkazish mahalliy hokimiyat tomonidan takiqlanmaydi. Ular ibodat qiladigan binolar va uning atrofidagi hududlarda, tavof etiladigan joylarda, diniy tashkilotlarda, muassasalarda, kabristonlarda fuqarolarning xonadonlari va uy – joylarida hech qanday to'sqiniksiz o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, qariyalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq joylarida va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy marosimlar ulardagi fuqarolarning iltimosiga muvofiq va ma'muriyatning ko'maklashuvida o'tkaziladi.

O'zga hollarda ommaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar va marosimlar, mitinglar, ko'cha yurishlari o'tkazish uchun belgilangan tartibga amal qilinadi.

Fuqarolar va diniy tashkilotlar o'zлari xohlagan tildagi diniy adabiyotni, shuningdek diniy marosimlarda foydalanadigan boshqa buyumlar va materiallarni sotib olishga va foydalanishga haqlidirlar. Diniy tashkilotlar diniy adabiyot, diniy mazmundagi axborot materiallarini tayyorlash, eksport va import qilish, tarqatish va ularni ishlab chiqaradigan korxonalarini ta'sis etish huquqiga egadirlar.

Diniy tashkilotlar xayriya, mehr – muruvvat faoliyatini amalga oshiradilar. Fuqarolar va diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarda qatnashadilar, tavof qilish, yig'ilishlarda va broshka diniy tadbirda qatnashish uchun chet mamlakatlarga chiqishga haqlidirlar. Diniy tashkilotlar diniy ta'lim olish uchun fuqarolarni chet elga yuborishlari va chet el fuqarolarini ta'lim olish uchun qabul qilishlari mumkin.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga xaqlidirlar. Ular o'rtasida mehnat munosabatlari bitim va shartnomalarda o'z ifodasini topadi. Diniy tashkilotlarda mehnat shartnomasi asosida ishlovchi fuqarolar kasaba uyushmalarining a'zolari bo'lishlari mumkin. Ular davlat va jamoat korxonalari va tashkilotlari ishchilari va xizmatchilari bilan baravar soliq to'laydilar, ijtimoiy ta'minlanish va sug'urta qilish xizmatlaridan foydalanadilar, umumiy asosda pensiya olishga haqlidirlar.

Qonunning oxirgi, oltinchi bobo davlat idoralari va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan. Bu munosabatlar endilikda, albatta, shakl va

mazmunga egadir. Davlat idoralari diniy tashkilotlarning ichki ishlariga aralashmaydilar.

Mazkur qonunning 29 – moddasi alohida e’tiborga molikdir. Unda bayon etilishicha, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida»gi Qonunni buzgan mansabdor kishilar va oddiy fuqarolar qonun oldida javob berishlari ko’rsatilgan.

Xo’sh, ushbu jumhuriyat qonuni avvalgi vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi qonunda qanday farqi bor va unda nimalarga ko’proq urg’u berilgan?

Birinchidan, mazkur qonunda dindorlarning erkin e’tiqod qilishiga alohida e’tibor berilgan. Avvallari, agar har bir diniy marosimga turli bahonalar bilan tanqidiy baho berilgan bo’lsa, endilikda bu narsaga chek qo’yildi.

Ikkinchidan, qonunda dindorlar ham, dahriylar ham O’zbekiston qonunlari oldida teng huquqliligi ko’rsatilgan. Undan tashqari avvallari diniy ibodatxona olish uchun 20 voyaga etgan kishilar yoki 18 va undan ortiq kishilar O’zbekistonning tegishli organlariga ariza berishlari kerak bo’lsa, endilikda ularning soni 10 kishiga kamaytirilgan.

Uchinchidan, qonun vijdoniy e’tiqodga, uning dunyoviy va diniy shakllariga erk beradi, ularni mustaqil, teng mavjudligini va nizosiz ish olib borishlarini ta’minlaydi, ularni qo’llab – quvvatlaydi, g’ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qiladi. Chunonchi, vijdon erkinligi huquqini 1992 yilda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi himoyalaydi. Uning 31 – moddasida «hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi».

Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yilmaydi» deyilgan. Shunday ekan, O’zbekiston Konstitutsiyasi va vijdon erkinligi qonuniga binoan har bir fuqaro dindor bo’lish yoki bo’lmaslikni shaxsan o’zi belgilaydi. Dindorlar bilan daxriylar orasida bu masalada munosabatlarni keskinlashuviga yo’l qo’yilmaydi, har qanday ekstremistik harakatlar qoralanadi va bu ishlarni tashkilotchilari va katnashchilari qonun oldida javob beradilar. Qonun boshidan oxirigacha vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatini amalga oshirishni jumhuriyatda tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlikni ta’minlash bilan, jamoat

xafsizligini, fuqarolarning huquq va manfaatlarini doimo muxofaza qilish bilan birga olib borishni ko'zda tutadi.

Qonun dindan davlatga va Konstituttsiyaga qarshi targ'ibot olib borish, nifoq, nafrat qo'zg'atish, millatlararo adovat uyg'atish hamda davlat manfatlariga va O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasiga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlar qilish, qonuniy ravishda va demokratik yo'l bilan to'zilgan hokimiyat va boshqaruv idoralariga hamda davlat vakillariga nisbatan g'ayriqonuniy usullar bilan tazyiq o'tkazish uchun foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar biron-bir siyosiy partiylar faoliyatida ishtirok etmaydilar va ularga moliyaviy yordam bermaydilar. Diniy tashkilotlar boshqa idoralar kabi jumhuriyatimizda osoyishtalik, xalqlar tinchligi, O'zbekistonning mustaqilligi yo'lida olib borilayotgan ishlariga munosib hissalarini qo'shishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Yangi Konstituttsiyamizning ijobiy jihatlari, yangi tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farqlari, avvalambor bu Konstituttsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi g'oyasiga ko'ra yangi xujjatdir. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni ilgari so'rghan va shu asosda «fuqaro – jamiyat – davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy echimini topishga harakat qilingan». Konstituttsiyada hurfikrlilik vijdon va diniy e'tikod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilgan. Unda dinning tarbiyaviy ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar:

Vijdon erkinligi, diny e'tiqod, diniy muassasalar, milliy istiqlol, diniy urfatlar.

Nazorat savollari:

1. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
2. Sovet tuzumi davrida dinga qanday munosabat bo'lgan?
3. Mustaqillik sharoitida dinga nisbatan siyosatning demokratik xarakteri qanday?
4. 1998 yil qabul qilingan «Diniy tashkilotlar va vijdon erkinligi to'g'risida»gi qonunning ahamiyati.

DINIY EKSTREMIZM, FUNDAMENTALIZM VA UNGA QARSHI KURASH – DAVR TALABI

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va dindagi islohotchilik harakatlari. XX asr insoniyatga ulkan kashfiyotlar, buyuk yutuqlar, umuminsoniy qadriyatlar, xususan, O'zbekistonimizga mustaqillikdek buyuk baxtni berdi. Ammo u bizga xalqaro miqyosdagi diniy ekstremizm, fundamentalizm, millatchilik va terrorizmni ham meros qilib qoldirdi. Bu salbiy hodisalarning na faqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon uchun ofat-fojea keltirishi mumkinligi haqida Prezidentimiz o'tgan asrning oxirgi yillaridayoq butun dunyoni ogoh qildi.

O'zbekiston dunyoviy davlat qurish yo'lidan barqaror bormoqda. Xo'sh, dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi? Unda diniy e'tiqodga qanday o'rinni ajratilgan? qolaversa, din va umum e'tirof etilgan tamoyillarga asoslangan demokratiya tushunchasi o'rtasidagi aloqalar qanday bo'lishi kerak?

Ushbu murakkab savollarga javob izlar ekanmiz, xalqaro hamjamiyatning mutloq ko'pchilagini tashkil qilgan dunyoviy davlatlar tajribasi, ular taraqqiyotining tamal toshi bo'lib xizmat qilayotgan g'oya aslo xudosizlikka asoslanmagani, yaqin o'tmishimizdagi o'xshash daxriy jamiyatni anglamasligiga amin bo'lamiz.

Dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo'lgan munosabat demokratiya mezonlariga asoslanganini chuqur idrok etamiz. Ularda din hayotidagi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ruhiy muhit rang-barangligini ta'minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng huquqli bo'g'in sifatida qabul qilinganligiga ishonch hosil qilamiz. Yana bir bor ta'kidlaymiz: demokratik dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarda rang-barang ma'naviy-madaniy va tarixiy qadriyatlar tizimidagi teng huquqli bo'g'in, bu boshqa bug'inalardan zaifroq ham yoki ustunroq ham emas. Bizning jamiyatimiz taraqqiyoti negizi qilib belgilangan hurfikrli tamoyili ham xuddi ana shu tajribalar idroqiga asoslangan.

Dunyoning ko'pchilik davlatlari xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosa qilishi, balki umummilliy yuksalish yo'lida u bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin.

Demokratik davlatlarda aholining ko'pchiligin tashkil etadigan xalqning diniy e'tiqodiga ko'rsatilgan izzat-hurmat bilan bir qatorda tub etnoslar uchun noan'anaviy bo'lган, lekin fuqarolarning muayyan qismi e'tiqod qiladigan dinlar, qolaversa hechqanday dinga e'tiqod qilmaslikka bir xil munosabatning qaror topganligi Qu'roni Karimdag'i ibratli xikmatlardan «dinda majburlash yo'q» degan so'zlarning chuqur insonparvarlik falsafasini yanada yaqinroq olib beradi.

XX asrning ikkinchi yarmida umummusulmon tsivilizatsiyasi hududida joylashgan ayrim davlatlar taraqqiyoti tajribasi, afsuski, ba'zilarda, xususan, G'arb dunyosida, islom dining jamiyat rivojlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijobiy ta'siri haqida jiddiy shubhalar tug'ilishiga sabab bo'ldi. Masalaning tassuflı jihatlaridan yana biri shundaki, haqiqiy insonparvar Islomning asl mohiyatidan yiroq ko'rinishlar, oxirgi yillarda, ayrim olimlar tomonidan olg'a surilayotgan tsivilizatsiyalararo qarama-qarshilik va ziddiyatlar haqidagi sun'iy nazariyalarini oziqlantirmoqda, turli madaniyatlarni qiyoslash jarayonida umummusulmon madaniyatining salbiy jihatlarini bo'rttirib ko'rsatishda dastak bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan bir vaqtida, masalaning ikkinchi tomoniga katta ahamiyat berilgan. Ya'ni yuqoridagi mezonlar Konstitutsiyaning 57 moddasida quyidagicha aniqlantiriladi: «Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushi, ijtimoiy, milliy, irqiyligi va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiysalarining hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi».

Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida mamlakatimiz sharoitida dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini aniqlashtiruvchi asosiy tamoyillar qatoriga.

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;

-diniy e'tiqodlarning fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

-diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'kib qilishga yo'l qo'ymaslik;

-ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish yo'lida diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;

-dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish» kiritilgan.

Dunyoviy jamiyat qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi zikr etilgan konstitutsion mezonlar va Prezidentimiz fikrlaridan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy va adolatlilik dunyoviy jamiyat qurish kontseptsiyasida din - madaniy - ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida so'zsiz tan olinadi. Mustaqil rivojlanish yillarda ushbu mezonnning hayotga nechog'lik izchil tatbiq etilayotganini faqat qalbi ko'r, adolatga xusumat bilan munosabatda bo'lган kimsalargina inkor etishi mumkin.

Ikkinchidan, sof diniy extiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lган har qanday g'arazga erishish yo'lida diniy omildan foydalanish ga intilish qat'ian man etiladi.

Prezident, haqli ravishda, dinning O'zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi katta imkoniyatlariga ishonadi va «biz din bundan buyon ham aholini eng oliv ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlaridan, tarixiy va madaniy merosidan bahramand qilishi tarafдоримиз», deb ta'kidlaydi . «Lekin biz - davom etadi I.A.Karimov, - hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiy va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yaymiz».

Shu o'rinda huquqiy onga tayangan madaniyatning eng muhim uzviy qismlaridan bo'lган qonunga itoatkorlik ko'nikmasi haqida to'xtalish zarur. Erkinlik - demokratiya degani faqat huquqlardan emas, balki ular bilan barobar, zimmamizga

yuklangan majburiyatlar ham ekanini qon-qonimizga singdirmagunimizcha, demokratiya - huquqiy jamiyat qurish bilan bog'liq ezgu niyatlarimiz, shirin orzuligicha qolaveradi.

Bayon etilganlaridan aniq va ravshan ko'rinish turganidek, jamiyatimiz yangilanishi dasturidagi dunyoviy davlat tushunchasi, aslo, dinning ijtimoiy – madaniy hayotdagi rolini inkor etmaydi. Aksincha, shakllanayotgan yangi sharoitlarda, umuman dinlar va xususan islomning ijtimoiy – madaniy hayotdagi muhim o'rnini va vazifalarining chuqur idrokini ko'rsatib turadi.

Demak, dunyoviy tabiatga ega davlatimiz dinning barkamol insonni voyaga etkazishdek nozik va ma'suliyatli ishdagi cheksiz imkoniyatlaridan foydalanish iga intiladi. Ayni paytda diniy da'volar bilan niqoblangan, aslida xolis diniy e'tiqodga mutlako aloqasi yo'q, jamiyatdagi hamjihatlik, millatlararo va dinlararo totuvlik, siyosiy-ijtimoiy baroqarorlikka taxdid soluvchi har qanday urunishlarga dunyoviy davlat tuzumining mutlako murosasiz ekanini ham aniq-tiniq, ko'rsatib turadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning tushunchamizdagi dunyoviy tuzum har qanday madaniyat negizida muayyan dunyoqarash yotishi e'tirofiga tayanadi. O'zbekiston an'analar negizida esa islomiy omilning roli muhimligini tan oladi.

Aslini olganda, bunday yondashuv vatanimiz tarixida takror va takror sinalgan tajribalardan chiqarilgan yagona to'g'ri xulosadir. Moziyga nazar tashlasak, xalqimiz o'z taraqqiyotining eng yuksak cho'qqilariga diniy ilmlar bilan dunyoviy: umuminsoniy – ijtimoiy hamda aniq fanlar rivojlanishining hamoxangligi va mutanosibligi ta'minlangan paytlarda ko'tarilganining guvoxi bo'lamic. Bugungi ibora bilan aytganda, bu holat - dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi muvozanatning hamda bir - birini to'ldiruvchi uyg'unlikning barqarorligi demakdir.

Har bir inson o'z baxtining yaratuvchisidir. Ushbu hayotiy haqiqatni jamiyat taraqqiyotiga ham hech ikkilansmasdan tatbiq etish mumkin, deb o'ylaymiz. Modamiki shunday ekan, hayotimizning barcha jabhalaridagi kabi diniy yo'nalishda ham umummilliyl yuksalishga halaqit berishga o'rinyotgan omillardan ko'z yumishimiz nojoizdir. O'zbek xalqining «Andishaning oti qo'rkoq» degan hikmati barchamizni, oxir-oqibat xalqimiz va Vatanimiz taqdirini belgilovchi omillardan

bo'lgan diniy hayotda, onda-sonda bo'lsa ham uchrayotgan noloyiq harakatlarga befarq bo'lmasligimizni taqozo etadi

Insoniyat tarixining eng qora kunlarida uni yorug'likka olib chiquvchi nurli ta'limotlar nozil bo'lgan. Zulm va istibdod bu ta'limotni bugib tashlagan davrlarda ham u dilga taskin va yupanch bag'ishlab, umid baxsha'mol sifatida ko'ngillarda muhim yashagan. Qizil imperiya vayronlari aro bo'y cho'zgan niholday barq, urib chiqqan orzu - armonlar, taomil, rusum... shundan shahodat emasmi?!

Turli xalqlar qismatida islom turlicha jilva qiladi, qadim Turkistonda u bulutlar ko'mib yuborgan, so'ng yana ko'rinish berib, munavvarlik ulashgan oftob yanglig' muqim yashab keladi. Va unga kim o'z ko'zi, ko'nglidagi dunyosidan kelib chiqib nazar soladi...

Shunday davrlar bo'lganki, arablarda axloqsizlik tamomi avjiga chiqqan. Inson va diyonat oradan ko'tarilib, mayparastlik va naxsga mukkadan ketishgan. Butga sig'inishgan.

«Biz zolim, axloqsiz, pastkash kishilar edik. Tuban hayot kechirardik, bo'lar - bo'lmasga urush chaqirib, bexudaga qon to'kar edik Mehmondo'stlik va mehribonlik rusumini unutgan edik, deydi hazrati Imomi Ja'fari Sodiq. – Muhammad alayhis-s-salom bizni oljanob bo'lishga undadi. Yagona Ollohga sig'inishga, rost gapirishga da'vat etdi». Islomning mohiyati shu. Uning zamirida hidoyat yotadi.

Lekin har kim uni har xil talqin qiladi. Tabiatan odam bolasi dunyoni o'zining qarichi bilan o'lchaydi. Shuning uchun ham, garchi islom muqim turgan bo'lsada, daraxt ildizidan chiqqan niholday turli qarash va turli oqimlar paydo bo'lgan, ayrim xudkomlar esa sultanatni qo'lga kiritish niyatidagi sa'yi harakatini islom vositasida niqobladi va alal – oqibat ular muqarrar sur'atda mo''minlarni guruh – guruhlarga ajratib tashladi.

Hazrati Umar kunlarning birida Ziyod ibn Jobirdan suraydi:

- Islomiyatni buzadigan narsa nima?

- Siz so'zlang, men eshitay, - deydi Ziyod ibn Jobir.

- Din odamlarining yanglish gapirishi, munofiqlar o'zlarining buzuq fikrlarini oyat hadis bilan isbotlashga urunib, musulmonlarni aldashlari va buzg'un hukm chiqaradigan odamlardan bo'lib qolishidir.

Bu - eski haqiqat. Va u aytilganidan buyon necha zamonlar o'tdi. Olloh aziz qilgan Odam o'g'illari esa sira o'z bilganidan qolmaydi. Dunyo zavqida kimdir payg'ambarlik da'vo qiladi, kimdir hukmini o'tkazish ilinjida islomdagi aqidaga boshqacha tus beradi. Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganidek, inson hayotidagi narsa uni o'z orqasidan etaklaydi. Bog' xayoli boqqa, do'kon xayoli do'konga olib boradi. Faqat bu xayollar xaqikatni yashiradi. Chunki, xayol senga u narsani go'zal qilib ko'rsatgan.

Ulug' Tangri hikmat sohibidir, deydi hazrat davom etib, u go'zal shakllar zamirida xikmatlarni sir tutgandir. Agar har bir ko'ringan narsa ko'ringani kabi bo'lsaydi, juda o'tkir va ziyrak ko'zlar soxibi payg'ambar: «Narsani menga bo'lgani kabi ko'rsat», deya faryod etmasdi. Bu bilan shunday demoqchi bo'ladi : - Ey rabbim ! Aslida xunuk bo'lgan narsani go'zal, go'zal narsani esa xunuk qilib emas, balki hamma narsani qanday bo'lsa, ushanday ko'rsatginki, tuzoqqa tushmaylik va yo'limizni hech vaqt yuqotmaylik.

Jahon dinlarida ekstremizm, fundamentalizm illatlari. Vahhobiylilik – diniy-siyosiy oqim. U XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najl voxasida yuzaga kelgan. Vahhobiylar bevosita din nomidan ish ko'rgan va uni «tozalash», go'yoki payg'ambar davridagi «asl holatiga» qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari so'rgan. Ingliz kolonializmi bu vaziyatda o'z maqsadi yo'lida foydalangan: ularni qurollantirib Usmonli turklarga qarshi janga tashlagan. Shuning uchun ham ular Usmonlilarga mansub bo'lmish xanafiy mazhabini kofir mazhabi deya e'lon qilishgan.

Vahhobiylilik ildizining eng avvalo o'sha davrdan axtarish lozim. XVI asrning boshlarida Usmonli turklarga qaram hududlar yanada kengaydi, ular Misrni qo'lga

kiritgach, hijoz, Yaman, Jidda, Makka va Madinani ham o’z tasarruflariga olishdi. Istambuldan kelgan vakillar bu erlada ish yurita boshlashdi. Oradan vaqt o’tishi bilan, tabiyki, arablarda muholif kayfiyat tug’ilgan va bu Muhammad ibn Abd al – Vahhob qarashlarida ham o’z aksini topgan. Usmonli turkilar Abu Xanifa, ya’ni xanfiy mazhab ahlidan edi, vahhobiylar esa xanbaliy mazhabdandir.

Bundan 1165 yil muqaddam xalifa Ma’mun tasarrufidagi hududda mutaziliylik amalda bo’lgan va ular aqidalar mohiyatini idrokka tayanib anglashni yoqlashgan. Ibn Xanbal aynan shu qarashga qarshi chiqqan, oqibatda bir necha bor jazolangan. Uning qarashlarida yangilikka, xur fikrga qarshilik, o’ta bir yoklamalik, men haqman deb turib olish va aqidasiga mos kelmagan dunyoni tamomila rad etish ustunlik qiladi. Alal-oqibat uning mazhabi ham islomdaggi o’ta bir yoklama mazhabga aylangan.

Xanafiy esa islomdaggi eng mu’tadil mazhabdir. Din amallari unda oson ko’rsatilgan. Usmonli turklar serhasham kiyim kiygan, bu ham baland ovozda qo’shiq kuylash, chekish ham vahhobiylarning nazarida, bid’atdir va ular shunga qarshi chiqishgan. Sharoit shunday ediki, faqat qarshi chiqishni o’zi kifoya qilmasdi, shu bois vahhobiylar bizning da’vatlarimizni tinglab, bizga ergashmaganlar kofirdir degan va ularga qarshi jihod e’lon qilishgan.

Vahhobiylar aqidaparastlikda Ibn Xanbalidan ham qattiq ketishgan, chunki o’zining musulmon birodariga qarshi qilich yalanyoochlash uchun oshig’ich asos yaratish kerak edi. Ular Rasuli Akram, shuningdek, o’tgan islomiy azizlarga hurmat ko’rsatish, ularning qabrini ziyorat qilish – bid’at, Olloh taolodan o’zgaga sig’inish, so’fiylar ham islom kishilari emas, deb da’vo qilishgan.

So’fiylik islom, jumladan bizning xalqimiz tarixida o’chmas iz qoldirgan, zamonlar taloto’pida o’z ibrati va bitiklari bilan bugunga qadar e’zozlanib, yashab kelayotir. Vahhobiylar esa bu tariqat ahlini mensimaydi, valiylik martabasini butunlay tan olishmaydi. Sehrgar ko’zbo’yamachiga chiqarishadi. Pirdan qo’l olish ular uchun Ollohga emas, shaxsga sig’inish hisoblanadi.

Haj ziyoratini batomom to’xtatish, so’ng katta to’lovlar evaziga hajga ijozat berish ham ular joriy etgan tartiblardir.

Vahhobiylar dunyoviy madaniyatga qat’iy qarshi turishgan, musiqa, teatr va tasviriy san’at bilan shug’ullanish, bundan zavq – shavq olishni kechirilmaydigan gunoh deb hisoblashgan. Ayni paytda ular hokimiyatni egallash va uning vositasida o’z tartib – taomillarini hayotga tatbiq etish uchun qat’iy kurash olib borishgan, faqat bu niyat « dinni asliga qaytarish» degan da’vat asosiga ko’rilgan, xolos.

Vahhobiylar harakati tarixda qoldirilgan izlardan bunga istagancha misol keltirish mumkin.

Ular qadami etgan joyda azizlarning sag’analarini buzishgan, islom olimlari yaratgan nodir kitoblarni o’tda yoqishgan, noyob madaniy obidalarni vayron qilishgan.

Xo’sh, aslida vahhobiylar qayoqdan kelib chiqqan?

Ma’lumki islom dini hamjihatlikka, Olloh yo’lida bir bo’lishga da’vat etadi. Zamonlar o’tishi bilan bu birdamlik ayrim davlatlarga yoqmay qoldi, to’g’rirog’i, ular musulmonlar yakdilligidan hayqa boshladilar. Bir chetda turib qurok kuchi bilan arab davlatlariga taxdid solish hech bir foyda bermagach, qanday qilib bo’lmisin, musulmonlarni ichdan buzishga, nizo chiqarib, ularni bo’lib yuborishga harakat qilishdi. Bu vaziyatda mavjud mazhablar ichida nizo chiqarish imkoniyati qo’l keldi.

XVII asrda isaviylar hozirlangan dasturlar asosida go’yo islomga e’tiqod qo’yan bolalar Turkiya, Qohira, Misr va Suriyaga yuborib o’qitildi, ulardan esa ulomolar etishib chiqdi, bu olimlar o’zlari olgan ta’lim – tarbiyadan kelib chiqib isaviylar mafkurasiga xizmat qildi, dinni ichidan buzishda faollik ko’rsatishdi. Garchi islomdagagi kichik bir mazhab bo’lsada, xanbaliya mazhabidagilar dinga amal uning puritanlik, ya’ni, harfxo’r islom bo’lishini talab qila boshlashdi.

Mohiyatga harfxo’rlik va aqidaparastlik bilan yondoshuvchi bunday toifa uchun «faqat Qur’on va hadisgina ibrat, siz Muhammad alayhis-s-salomning «har bir yangilik zalolatdir» - degan so’ziga amal qilmayapsiz, hech qanday yangilik bo’lishi kerak emas !» yoxud «sizlar arabsizlar, Qur’oni karim sizlarga tushirilgan. Makka – Ollohnning uyi, u sizning shahringiz, nega shunday muqaddas joyda bir turk qozilik qiladi, arablarni xaq – noxaqqa ajratadi, borib o’z yurtida ko’rsatmaydimi karomatini!» – degan pisanda kifoya edi va shunday qutqular etilib kelayotgan

g’alayonni ko’ngillarda qo’zg’ab yubordi. Shunday kayfiyat kishilarini uyshtirishda Muhammad ibn Abd al – Vahhob da’vatlari etakchilik qiladi.

Vaholanki, hech kim payg’ambar alayhis-s-salom hadislarini o’zicha talqin qilishga, ularni o’z manfaatlariga moslashtirishga haqli emas. Islom olimlarining ta’kidlashlaricha. Rasuli akram «har bir yangilik zalolatdir» deganlarida ibodatdagi yangilikni nazarda tutganlar. Zinhor – bazinhor dunyoviy yangilikni, taraqqiyotni emas.

Soddadil yoshlar vahhobiylar ta’siriga tez tushadi. Jamoat namozlarida, to’yu janoza payti, talabalar davrasida ular gunoh va nogunoh ishlarni chalg’itib tushuntirishadi. Deylik, kimda – kim qabristonga borib, o’tganlar haqiga Qur’on tilovat qilsa, unday odam bilan gaplashmaslik kerak yoxud musiqachining musiqa chalib topgan puli harom, ota-onangiz, qarindosh urug’ingiz namoz o’qimasa, ular bilan aloqani o’zing, xotin – qizlarning yuzlarini bekitmay yurishi gunohi kabira, deya o’git berishadi. Vaholanki, o’tganlar haqiga duo qilish Qur’on oyati bilan isbotlangan va mu’tadil musiqa mubohligi haqida sahih hadislar vorid bo’lgan.

Yaqinda bir birodarimiz universitetda o’qib yurgan singlisi darslarga bormay, uyga kelmay qo’yib, toza kuydirib yuborganligidan zorlanib qoldi: «Avvaliga hijobga kirdi, namozlarni kanda qilmay o’qiy boshladi, ro’zani to’kis tutdi. So’ng yuzini butunlay bekitdiki, hatto ko’zi zo’rg’a ko’rinadi, yana hijobi qop-qora deng, bundoq boshqacharoq rang tanlasang, bo’lmaydimi, desam, quloq solmaydi. Nima emish, kamina - namoz o’qimaydigan odam – g’irt kofir emish, shu bois aytgan gaplarimni birontasini ham bajarmaslikka haqqi bor emish. Shunaqa odat chiqardiki, na non, na ovqat eydi. Yangasiga aytibdiki, maboda shu taomga qarom aralashgan bo’lsa, sizlar qatori do’zahga tushaman, yaxshisi emay qo’ya qolay!

Sizlar bilan bir dasturxon atrofida o’tirishning o’zi bir gunoh debdi u. Juda alam qildi tug’ishgan singling sendan qazar qilsa, yovga qaraganday qarasa, nima degan gap o’zi bu?

Bir kuni uyga kelibdi- da, otin oyim meni Turkiyaga, madrasada o’qishga yubormoqchi, debdi yangasiga. O’sha madrasada besh yil tashqariga chiqarmay diniy saboq berilar emish. Buning uchun otin oyisinikida yarim yilgacha xizmat qilishi,

demak, sadoqati zoxir bo'lishi kerak, shundagina u o'z mablag'i hisobidan o'qishga yuborar ekan.

Shu gaplardan keyin u bira to'la uyga kelmay qo'ydi. Yangasiga u « yaqinda hijobga kiramiz, shundan oldin fursat bo'lsa, qishloqqa borib kelaman», debdi.

Bu gapni eshitib picha ko'nglim yorishdi. Onamning mazasi yo'q, bir – ikki kun oldida yursa, aqli kiradi, dunyoviy ishlarga moyillik sezsa ham emas, deb o'yladim. Har qalay, otinoyi, oq yuvib oq taragan onasi emasku! Onaning mehri bo'lakcha bo'ladi.

Ammo ko'p o'tmay otam telefon qildi. Onang og'irlashib qoldi, singlingni olib tezda etib kel, dedilar. Garang bo'lib qoldim. Nimasini aytay? Avvaliga singlimni axtarishga tushdim, qani endi topila qolsa ?!

Umidim uzilgach, yarim kechada qishloqqa jo'nadam. Onamning ahvoli og'ir ekan, to'shakda qimir etmay yotibdi. Meni ham zo'rg'a tanidi, singlimni so'radi. Nima deyarimni bilmayman. To'g'risini aytsang, o'lгganning ustiga tepgan bo'ladi.

Axiyri o'qishi tugashi bilan kelib qoladi, dedim. Onamning ilhaq bo'layotganini ko'rib, otam yana meni izimga qaytardi.

Dardu dunyo qorong'i desangiz. Singlimni kimdan so'rabsurishtirishni, qaerdan borib axtarishni bilmayman, xayolimga har xil o'ylar keladi, qiz bola narsa..

Nihoyat, bir kun singlimning o'zi yangasiga telefon qilibdi, hozir hujradan chiqmay saboq olyapmiz, debdi. Yangasi, onangiz og'ir, yo'lingizga ko'z tikib yotibdi, sizni axtarib akangizning qancha ovora bo'lganini bilsangiz edi, desa, u aytgan emish:

-Men xudo yo'liga kirgan odamman, hujrani tashlab hech qayoqqa ketmayman!

Shundan buyon u na telefon qiladi, na o'zi ko'rinish beradi.

U yoqda onam shu qiziga ilinib, ilhaq yotibdi. Toza kuyib ketdim. O'zimdan o'tganini o'zim bilaman. Ammo islom deganda men qandaydir harbiy tartib - intizom, bunday toshmehrlikni tushunmayman. Otin oyisining chizgan chizig'idan chiqmasa-yu, ammo tug'ishgan akasi, ilhaq bo'lib yotgan validai muxtaramasidan yuz o'girsa? Yashash manzilini aytmasa? – Qanday gap o'zi bu? O'sha – otin oyisining o'zi kim? Diniy savodi etarlimi? Qanday ta'llim olayapti ular? Nega

buncha aqidaparast bo'lib ketishmoqda? Ishlarni bunday yo'lga boshlashdan maqsad nima? Agar, rostini aytadigan bo'lsam, shu otinoyi shu qizlarga xudo yo'lida saboq berayotganiga ham ishonmayman. Umuman, kim unga bunday huquq bergan?

Singlimga o'xshagan yoshlar turli xil ta'sirlarga tushib qolishini, ularning ma'naviyatiga ziyon etishini sira – sira istamayman.

Darvoqe, nega endi birodarimizning singlisi Turkiyaga borib madrasada saboq olishi kerak?

Turkiya mudofaa qo'shinlari yuksak martabali rahbarlaridan biri Chevikning «Nyus uik» gazetasida yozishicha, hozir islom reaktsion kuchlari mamlakatda kurd partizanlariga nisbatan keskinroq ekstremistik harakat qilishayotir. Shuning uchun ham yaqinda islom aqidaparastligini cheklash va madrasalar ustidan nazorat o'rnatish hukumat tomonidan ko'rib chiqildi.

Kapablankada bo'lib o'tgan konferentsiyada ham, ayrim arab va musulmon davlatlarida islom niqobi ostida ish ko'rayotgan fundamentalistik – ekstremistik kuchlar qattiq qoralanadi.

Sir emas hozirgi taqvodor yoshlar orasida o'zini vahhobiy deb atashdan cho'chisa-da, xayrixohligini yashirmaydiganlar uchrab turadi. Vahhobiylar ta'siriga tushganlarning aksariyati hatto ota – onasini johil hisoblashadi, ular bilan farzandga xos muomala qilishmaydi. Kerak bo'lsa, namozxon xotinini uyga qamagancha, o'zidan bo'lak kimsa kelsa, ovoz chiqarmasligini tayinlab qo'yadi. Ota-onasi farzand diydorini sog'inib kelgan taqdirda ham uni ko'ra olmay ketadi. Ular ota-onasi va yaqinlarini namozni to'la-to'kis o'qimaslikda, arab tilini bilmaslik, o'qiyotgan namozini o'zları ham tushunmaslikda, ya'ni «johillik»da ayplashadi.

Islom dunyosidan o'zilib, mutassiblarcha hayot kechirishga buyurmeydi. Tabiyki, XX asrda axborot oqimisiz yashashni tasavvur qilish qiyin. Zamonaviy vahhobiylar esa televizor ko'rishni ham gunoh sanar ekan. Dunyodan to'liq uzilib, faqat ularning biryoqlama «qarash»iga o'ralib yashaydigan odamning mutassib holatini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a.

Shuni aytish kerakki, kishi ma’naviy jihatdan kamol topishi, komil inson bo’lib etishishi uchun diniy ta’limot qanchalik muhim bo’lsa, dunyoviy ilm, san’at va ma’rifat ham shunchalik qimmatlidir.

«Qur’on hukmicha, iymon-islomni bilib olingandan keyin har bir musulmon o’z zamonasi ilmini o’qib tushunishi va zamonaviy xunarlarni o’rganishi, albatta zarurdir», degan edi Alixon Sog’uniy asrimiz boshida. Ammo bu tilak qalqib yuzaga chiqishi uchun bir asrga yaqin muddat kerak bo’ldi. Hozir ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy kadrlar tayyorlash izchil tus olayotir, yuzlab iqtidorli yoshlari xorijdagi nufuzli oliy o’quv yurtlarida saboq chiqarmoqda.

Islomdagi eng yirik mazhab xanafiy, ya’ni Abu Xani famazhabi, unda din amallari oson ko’rsatilgan. Milliy urf-odatlar rad etilmaydi. Misol uchun Navro’z bayrami o’tkazish, salsa o’rash yoki o’ramaslik, to’y va dafn marosimlari xususida bahs yuritilmaydi. Qabrlarni ziyyorat qilish, marxumlar ruhiga duo qilish savob hisoblanadi. Ixtilof kelib chiqishiga yo’l qo’yilmay, barcha masalalar kelishuv yoki ijmo’- fatvo orqali hal etiladi. Abu Xanif mazhabiga ko’ra, namozni kanda qilib, gohi-gohida o’qiganlar ham musulmondirlar.

Islomda Qur’oni karim va payg’ambarimiz sunnatlari asosidagi hukmlar, ya’ni qonunlar majmuasi shariat deyiladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, Payg’ambarimiz Muhammad alayhi-s-salom yashab o’tgan davrdan buyon qariyb o’n tO’rt asr vaqt o’tdi. Tabiiyki, vahhobiylar tatbiq etishga urinayotgan o’sha davr udumlari, turmush tarzi, dunyoqarashni ado etish uchun butun shart – sharoit o’zgargan. Shuningdek, islom olamida shariat hukmiga loyiq ko’rilgan ijmo’ va qiyos tushunchasi mavjud. Unga ko’ra, dinga amal qiluvchilar o’rtasida shariat qoidalari hukmi xususida ixtilof chiqsa, ulamolar kengashi, yangi fatvo joriy etishgan. Shu fatvo shariat hukmi maqomida bo’lgan. Ya’ni, diniy ixtiloflar, hokimiyat uchunadolatsiz kurash (deylik, xalifa Yazid faoliyati kabi) azaldan bo’lib turgan. Ammo ma’lum bir diniy oqim sifatida alohida harakat qilish biror-bir qoidada aytilmagan.

«Islom milliy an’analarining, islom madaniyatining tiklanish jarayoni islomni tashqaridan har qanday «import» qilishdan voz kechish, islomga siyosiy tus berish va siyosatga islom ruhini baxsh etishdan voz kechish to’g’ri ekanligini

ko'rsatdi», - deydi Islom Karimov. Shu «import»ga bandi bo'lib qolgan aqidaparastlar o'z xalqi boshiga keltirgan kul fat bu fikr asosli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Biz XXI asr bo'sag'asida turibmiz. Yurtboshimiz niyat qilganidek, XXI asrga sog'lom avlodni etishtirib beraylik! farzandlarimiz alpqomat bo'lsin! ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan bizdan o'zib ketishsin!

Hozir barchaning umid ko'zi - gurkirab o'sayotgan yoshlarda. Kim ularning komil insonlar bo'lib etishishini istamaydi deysiz? Komillik esa dunyoviy ilmlarni egallash barobarida shakllanadi. Hadisi sharifda aytilganidek, bir soat ilm o'rganish, bir kechalik nafl ibodatidan afzaldir.

Musulmon Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr al – Forobiy aytganidek, aslida har bir inson qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan maqom - yuksak kamolotga erishish uchun dunyoga keladi. Bu kamolot saodat deb ataladi. Va u yuksak kamolotni ta'min etuvchi turli juz'iylni o'zida birlashtiradi. Bu ma'rifat, ilm, kasb hunar kabi fazilatli san'atlardir. Ilm va kasb – hunarni egallashga, kamolotga erishishga, ahllarni tarbiyalashga havas bilan intilgan kishilar chinakam fazilat sohiblari, ma'rifat ahllaridir.

Tayanch so'zlar:

Ekstremizm, fundamentalizm, millatchilik, fanatizm, aqidaparastlik, vahhobiylilik, shovinizm.

Nazorat savollari:

1. Diniy ekstremizmning ijtimoiy ildizi nimada?
2. Fundamentalizmning mohiyati nimada?
3. Hozirgi davrda vujudga kelgan vahhobiylilik ekstremizm harakati vujudga kelishining sabablari nimada?

TAYANCH SO'ZLAR VA IBORALAR:

Dinshunoslik kursining predmeti.

Din, teologiya, diniy e'tiqod, diniy tasavvur, diniy kayfiyat, diniy-ruhiy kayfiyat, diniy muassasalar.

Dinning eng qadimiy shakllari.

Totemizm, fetishizm, animizm, animatizm, shaianizm, sehrgarlik, magiya, zardo'shtiylik, forsiylik, otashparastlik, mazdakiylik, manixeylik.

Milliy dinlar.

Urug'chilik,qabilachilik, elatchilik, milliy dinlar, xinduizm, jaynizm, singxizm, daosizm, konfutsiychilik, sintoizm, iudaizm.

Jahon dinlari: Buddaviylik.

Jahon dinlari, buddaviylik, «Tripitaka», maxayana, xinayana, lamaizm.

Xristianlik.

Xristianlik, Bibliya, pravoslavljar, katoliklar, protestantlar, ibodat marosimlari, diniy sektalar, baptizm.

Islom dini.

Islom, monoteizm, Qur'oni karim, diniy mazhablar,Sunna, Shiyalar, xanafiy, xanbaliy, molikiy, shofiiy.

Islom dini manbalari: Qur'on va hadis.

Qur'on, hadis, shariat, diniy-axloqiy manbaa, diniy-huquqiy qonun-qoidalar.

Vijdon erkinligi va milliy istiqlol.

Vijdon erkinligi, konstitutsiya, milliy istiqlol g'oyasi, diniy tashkilotlar.

Diniy ekstremizim, fundamentalizm va unga qarshi kurash – davr talabi.

Diniy ekstremizim, fundamentalizm, reaktsion ekstrimistik harakatlar, vahhobiylik, terrorizm.

YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI:

1. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash davr talabi. (I.A. Karimovning Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir asari bo'yicha).
2. Jamiatning bosh strategik maqsadi, kelajagi buyuk davlatni qaror toptirish ekanligi. (I.A.Karimovning Kuchli davlatdan kuchli jamiat sari asari bo'yicha).
4. Mustaqillikni mustahkamlashda diniy qadriyatlarning o'rni va roli. (I.A.Karimovning Olloh qalbimizda yuragimizda asari bo'yicha).
4. Mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda dinning mohiyatini bilishning roli. (Respublika Oliy majlis 9-sessiyasi materiallari asosida).
5. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishda iymon va e'tiqodning roli. (Respublika Oliy majlis 9-sessiyasi materiallari asosida).
6. Inson huquqlari va erkinligini yanada kengaytirishda vijdon erkinligi qonunining o'rni. (Respublika Oliy majlis 9-sessiyasi materiallari asosida).
7. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda diniy ong, madaniyatning ahamiyati. (Respublika Oliy majlis 9-sessiyasi materiallari asosida).
8. Inson omili tushunchasining mazmunida diniy qadriyatlar omilining o'rni va roli. (Respublika Oliy majlis 9-sessiyasi materiallari asosida).
9. Dinning dunyo madaniyatida tutgan o'rni.
10. Din va siyosat.
11. Diniy e'tiqodlarning kelib chiqish sabablari.
11. Diniy muassasalarining jamiat taraqqiyotida tutgan o'rni.
12. Markaziy Osiyo xududlarida qadimgi dinlarning vujudga kelishi.
13. «Avesto» Zardo'shiylik dinining muqaddas kitobi.
14. Hinduizm dinining vujudga kelish tarixi.
15. Buddaviylik dini.
16. Ibtidoiy davrlarda diniy tasavvurlar.
17. Xristian dini.
18. Xristian dini ibodat marosimlari.
19. Provasloviya va rus madaniyati.
20. Arablarning islomdan oldingi diniy e'tiqodlari.

21. Jamiyatda dinning ahloqiy vazifalari.
22. Islomda Muhammad ibn Abdullohning da'vati.
23. Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi.
24. Markaziy Osiyoda milliy va diniy madaniyat.
25. O'rta Osiyo mutafakirlari islom dini haqida.
26. Sovet imperiyasi davrida islom.
27. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida islom.
28. Muqaddas «Qur'onu Karim».
29. «Qur'on» adabiy – badiiy yodgorlik sifatida.
30. Ismoil Buxoriy va hadis ilmi.
31. Imom Termiziyning hadisshunoslikda tutgan o'rni.
32. Hadisi sharif odob-ahloq haqida.
33. Shariat va uning tuzilishi.
34. Shariat va fiqh ilmi.
35. Islom shariati oila va nikoh to'g'risida.
36. Tasavvuf, so'fiylik.
37. Movarounnahrda so'fiylik ta'limoti.
38. Din h urfikirlilik va ekologiya.
39. Vatanni sevmoq iymondandur.
40. Imom Buxoriy va islomiy ahloq.
41. Barkamol avlodni shakllantirishda Imom Buxoriy merosining ahamiyati.
42. «As-Sahih» hadislarda ijtimoiy ahloqiy g'oyalar.
43. Hadislarda ekologiya masalasining yoritilishi.
44. Ismoil Buxoriy va hozirgi zamon.
45. Hadislarda oila va nikoh haqida.
46. Imom Buxoriy va ma'rifikatparvarlik.
47. Imom Buxoriy hadislarida ota-onani ulug'lash haqida.
48. Navro'z va islom.
49. Imon va uning shartlari.
50. Yaqin o'tmishda ateistik targ'ibotchilik va uning salbiy oqibatlari.

51. Dinning dunyo madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni.
52. Din va dindorlarning falsafiy mohiyati.
53. Dinning ibtidoiy shakllarining vujudga kelishi.
54. E'tiqodning ibtidoiy shakli.
55. Ko'p xudolilik (politeistik) dinlarning vujudga kelishi.
56. Milliy dinlarning kelib chiqishi tarixi va sabablari.
57. Milliy dinlar shakllanishining dastlabki va eng so'ngi davrlari.
- 58. Milliy dinlar: hinduizm, jaynizm, daosizm, konfutsiychilik, sintoizm va iudaizm.**
59. Jahon dinlari kelib chiqishining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari.
60. Buddaviylik dini uning vujudga kelishdagi tarixiy shart-sharoitlar.
61. Xristian dini, paydo bo'lishidagi ijtimoiy iqtisodiy va tarixiy shart-sharoitlar.
62. Islom dini paydo bo'lishining ob'ektiv va sub'ektiv omillari.
63. Islomning Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga asta-sekin kirib kelishi
64. o'rta Osiyo mutafakkirlari islom dini to'g'risida.
65. Muqaddas Qur'onu Karim va uning islom dini hayotida tutgan o'rni.
66. Hadislar diniy-ahloqiy dasturlar manbai sifatida.
67. Shariatning vujudga kelishidagi extiyojlar. Islom shariati oila, nikoh va ayollar to'g'risida.
68. Tasavvuf, so'fiy, so'fizm, tariqat-islomdagi diniy falsafiy ta'limot sifatida.
69. Sharq va Markaziy Osiyo hududlarida vujudga kelgan tasavvuf va so'fiylik.
70. Movarounnahrda so'fiylik ta'limotlari.
71. hurfikrlilik ijtimoiy-siyosiy, taraqqiyot mahsuli ekanligi.
72. Antik davrda h urfikrlilik.
73. Mustaqillik sharoitida dinga nisbatan olib borilayotgan munosabatlar-ning demokratik xarakteri.
74. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va dindagi islo Hatchchilik xarakatlari.
75. Diniy aqidaparastlik tushunchasi. «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari
76. Hozirgi islom dinida vujudga kelgan vahhobiylik harakatlarining salbiy oqibatlari.
77. Din tushunchasi, dinning kelib chiqishi, teologik va dunyoviy ta'rifi.

78. Dinning ijtimoiy psixologik va tarixiy ildizlari. Dinning asosiy elementlari.
79. Diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi sabablari, tarixiy shakllari va xilma-xilligi.
80. Din va diniy e'tiqodning falsafiy mohiyati.
81. Diniy tasavvur, diniy kayfiyat, diniy ruhiy faoliyat.
82. Din va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar.
83. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va fuqarolarning vijdon erkinligi.
84. Qadimgi diniy urf-odatlarining hozirgi davr dinlarida saqlanib qolganligi.
85. Zardo'shtiylik, zaroastrizm, forsiylik, otashparastlik, mazdakiylik va manixeylik.
86. Zardo'shtiylikning yaqin va o'rta Sharq mamlakatlariga tarqalishi.
87. Urug'chilik, qabilachilik, elatchilik va hududiy milliy dinlar.
88. Daosizm va konfutsiychilik milliy dinlarining vujudga kelishi.
89. Buddha dinining asosiy ta'limotlari va payg'ambari.
90. Buddha dinining bo'linib ketishi: maxayana, xinayana va lamaizm.
91. «Injil» (Bibliya) xristian dinining muqaddas kitobi.
92. Baptizm-xristian dinining mazhabi sifatida.
93. Islom dinining asosiy oqimlari va mazhablari.
94. Shariat va uning asosiy talablari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. «O’zbekiston» 1992y.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sayoasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. «O’zbekiston», 1997y.
3. Karimov I.A. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman». «fidokor» 8-iyun 2000y.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T. «O’zbekiston», 1999y.
5. Karimov I.A. «hushyorlikka da’vat» T., O’zbekiston, 1999y.
6. Karimov I.A. «o’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurmoqdamiz» T., O’zbekiston, 1999 yil.
7. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent. «O’zbekiston» 1999 y.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. «O’zbekiston» 1999 y.
9. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. «O’zbekiston» 1998 y. 428-469, 524-536 betlar.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent. «Sharq», 1998y.
11. Karimov I.A. Iroda va iymon – e’tiqodimiz sinovi. T. «O’zbekiston», 1999y.
12. Karimov I.A. «Milliy mafkura kelajak poydevori» «O’zbekiston», 2000y.
13. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima. T. 1992y.
14. Istoriya religii Vostoka. M. 1997g.
15. Injil (o’zbekcha), Stokgolm. 1992 y.
16. Hadis (sharif), I, II, III, IV kitoblari. Toshkent. 1989-92 y
17. Xo’jamuratov I.R. Islom, milliylik, qadriyat. Toshkent. 1993 y.
18. Axmad Yassaviy. Devoni hikmat. T. 1992 y.
19. Komilov N. Tasavvuf. 1 chi kitob. T. 1996y.
20. Imam Ismoil Buxoriy Al-adab Al-Mufrad T. 1990y.
21. Imam at-Termiziy Shamoyiliy Muhammadiya T. 1991y.
22. Muxtasar. (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) T. 1992 y.
23. Maqsudxo’ja ibn Mansurxo’ja Majma’ul – Maqsud yoki Muxtasar Viqoyaning o’zbekcha sharxi T. 1996 y.

- 24.Abdusodir Irisov Chahoriyorlar T. 1993 y.
- 25.Nasafiy hazrat Bahouddin Naqshband T. 1993y.
- 26.Xusniddinov Z., Yusupov O. «O’zbekiston Respublikasida diniy munosabatlar». T. 2000y.
- 27.«Tafakkur» jurnali (barcha sonlari).
- 28.«O’zbekiston musulmonlari» jurnali (barcha sonlari).
- 29.«Islom nuri» ro’znomasi. Materiallari.
- 30.Jahon dinlari tarixi. T-1999 y.
- 31.Dinshunoslik asoslari. T. «O’zbekiston» 1995 y.
- 32.Dunyoviy davlat va din. Ko’ngildagi burilish. T. 1998y.
- 33.Abdullaev Yu. Vahobiylit ildizlari. T. 1998y.
- 34.Karimova V, Sunnatova R, Tojiboeva R. Mustaqil fikrlash. T. 2000y.
- 35.Ogoh bo’laylik. T. 1999y.
- 36.Xusniddinov Z. Islom. Yo’nalishlar, mazhablar, oqimlar. T. 2000y.
- 37.Choriev S. Siyosiy etuk shaxs. T.2004y.
- 38.Abu Hamid G’azzoliy. Tovba kitobi. T. 2003y.
- 39.Abu Hamid G’azzoliy. Ihyou ulumid-din. T. 2003y.
- 40.Biblya, Koran i sovremenniy mir. M. 1995y.